

TOSHKENT DAVLAT
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

TURKOLOGIYA TURKOLOGY

XALQARO ILMIY JURNAL

ISSN 2181-2101

2021

3

ISSN 2181 – 2100



TURKOLOGIYA TURKOLOGY



**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
ILMIY JURNALI**

**НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES**

**3
2021**

Журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги
Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги рўйхатидан ўтган
(№ 1129, 11.11.2020 й.) ISSN 2181 – 2100

Бош муҳаррир – Рихсиева Гулчехра Шавкатовна
филология фанлари номзоди, доцент

ТАҲРИР КЕНГАШИ

| | |
|----------------------|---|
| Қ. Омонов | <i>филология фанлари доктори, профессор (бош муҳаррир ўринбосари)</i> |
| Х. Ҳамидов | <i>филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (масъул котиб)</i> |
| Б. Тўхлиев | <i>филология фанлари доктори, профессор</i> |
| Қ. Содиков | <i>филология фанлари доктори, профессор</i> |
| Ш. Усмонов | <i>филология фанлари доктори, профессор</i> |
| Х. Дадабоев | <i>филология фанлари доктори, профессор</i> |
| Н. Раҳмонов | <i>филология фанлари доктори, профессор</i> |
| Б. Каримов | <i>филология фанлари доктори, профессор</i> |
| Дж. Шабанов | <i>филология фанлари номзоди, доцент</i> |
| П. Кенжаева | <i>филология фанлари доктори, доцент</i> |
| Н. Абдуллаев | <i>сиёсий фанлар номзоди, доцент</i> |
| А. Назаров | <i>сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD)</i> |
| М. Исҳоқов | <i>тарих фанлари доктори, профессор</i> |
| Д. Сайфуллаев | <i>тарих фанлари доктори, доцент</i> |
| Х. Файзиев | <i>тарих фанлари номзоди, доцент</i> |
| З. Алимов | <i>тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)</i> |
| Т. Расулов | <i>иқтисод фанлари доктори, профессор</i> |
| Н. Холматов | <i>иқтисод фанлари номзоди</i> |
| З. Қодирова | <i>иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)</i> |
| М. Воҳидова | <i>иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)</i> |
| Р. Баҳодиров | <i>фалсафа фанлари доктори, профессор</i> |
| Д. Пўлатова | <i>фалсафа фанлари номзоди, профессор</i> |
| А. Шоназарова | <i>АҚШнинг Колумбия университети профессори</i> |
| А. Гурер | <i>Туркиянинг Анқара университети профессори</i> |
| Ҳ. Байдемир | <i>Туркиянинг Отатурк университети профессори</i> |
| Ю. Кўч | <i>Туркиянинг Ҳожаттепа университети профессори</i> |
| Н. Телицин | <i>СПбДУ Туркология кафедраси мудири, профессор</i> |

Нашрга тайёрловчилар:

Ж. Исмоилов, Г. Раҳимжонова, Т. Исомиддинова

Журнал докторлик диссертациялари юзасидан илмий мақолалар чоп этилиши
лозим бўлган илмий нашрлар рўйхатига Ўзбекистон Республикаси Олий
Аттестация Комиссияси томонидан киритилган.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz


МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS
**МАҲМУД КОШҒАРИЙНИНГ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ,
“ДЕВОНУ ЛУҒАТИТ ТУРК” ВА УНИНГ ЖАҲОНШУМУЛ
АҲАМИЯТИ**

| | |
|--|----|
| <i>Содиқов Қ.</i> Маҳмуд Кошғарий келтирган уйғур алифбоси: ҳарф ва товуш муносабатлари..... | 4 |
| <i>Ко‘жао‘ғ‘ли Т.</i> Zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan Devonu lug‘atit-turk | 15 |
| <i>Düzgün Н.</i> Benim Divan-ı luğat-it türkten farsça çevirim | 20 |
| <i>Тўхлиев Б.</i> «Девону луғатит-турк»ка оид айрим мулоҳазалар..... | 26 |
| <i>Avrutina А.</i> History of the study of "Divan-i lugat at-turk" in Russia | 36 |
| <i>Пилипчук Я.</i> Маҳмуд ал-Қошғарийнинг “Девону луғатит-турк” асари илк араб графикасидаги турк тили ёдгорликлардан бири сифатида..... | 40 |
| <i>Memmedov М.</i> Mahmut Kâşgarlı'nın Dîvânü lugâti't-türk ansiklopedisinde tanrı / tengri ve tanrıçılık..... | 47 |

**МАҲМУД КОШҒАРИЙНИНГ ҚИЁСИЙ-ТАРИХИЙ ТИЛШУНОСЛИК,
ЛИНГВОГЕОГРАФИЯ, ЭТНОГРАФИЯ, СОЦИОЛИНГВИСТИКА
СОҲАЛАРДАГИ ХИЗМАТЛАРИ**

| | |
|---|-----|
| <i>Рихсиева Г.</i> Маҳмуд Кошғарий феълларда қўшимча маъно ифодаловчи айрим аффикслар ҳақида | 53 |
| <i>Омонов Қ., Махмудов Э.</i> “Девону луғатит-турк” Маҳмуд Кошғарийнинг илмий-географик тафаккурининг юксак маҳсули сифатида..... | 59 |
| <i>Абдурахманова М.</i> “Девону луғатит-турк” лексикаси таҳлили ҳамда ҳозирги замон ўзбек тилшунослиги олидида турган муҳим вазифалар | 66 |
| <i>Usmanova Sh.</i> Kaşgarlı Mahmud'un “Divanu lugatit türk” eserindeki giysi adları | 72 |
| <i>İsmailzade N.</i> “Divanu lugat-it türk” eserinde adı geçen coğrafi yer isimleri..... | 80 |
| <i>Seferli А.</i> Mahmud Kaşğari və "Divanü lüğat-it-türk" əsəri Azərbaycan tədqiqatlarında..... | 83 |
| <i>Ҳамидов Х.</i> “Девону луғатит-турк”даги мақоллар ва ҳозирги турк тили паремиологияси..... | 88 |
| <i>Altinboyev N.</i> “Devonu lug‘atit-turk”da kelgan “oila” bilan bog‘liq maqollar tahlili | 94 |
| <i>Сатторова З.</i> “Девону луғатит-турк”: таржима ва янги нашрлари хусусида | 100 |

МАҲМУД КОШҒАРИЙНИНГ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ,
“ДЕВОНУ ЛУҒАТИТ ТУРК” ВА УНИНГ ЖАҲОНШУМУЛ
АҲАМИЯТИ

МАҲМУД КОШҒАРИЙ КЕЛТИРГАН УЙҒУР АЛИФБОСИ:
ҲАРФ ВА ТОВУШ МУНОСАБАТЛАРИ

Содиқов Қосимжон,
филология фанлари доктори, профессор
Тошкент давлат шарқшунослик университети

Abstract. Mahmud Kashgari, in his “Devonu lugati-t-turk”, gave information about the old Uyghur script and its alphabet. What the scholar has written about Turkish writing, the alphabet system he cites is very important for the history of Turkic languages and writing culture, especially in the study of the phonetic system, letter and sound relations of the written literary language of the Karakhanid period. Kashgari approached him as a knowledgeable, strong phonetist of the Karakhanid period language.

There are other Uyghur alphabets left over from the past. But none of them can be compared to the Kashgari alphabet and its explanations in its accuracy and completeness.

Keywords and expressions: Uyghur script, Turkish script, alphabet, Uyghur alphabet, letter, sound, transliteration, letter and sound relations.

Özet. Kaşgarlı Mahmud, Divanu Lügat-it Türk eserinde eski Uygur yazısı ile ilgili veriren Uygur alfabesini de sunmuştur. Alimin Türkçe yazı ile ilgili yazdıkları, sunduğu alfabe sistemi, Türk lehçeleri ve yazı medeniyetinin tarihi, özellikle, Karahanlılar dönemi yazı dilinin fonetik sistemi, harf ve ses ilişkilerini inceleme açısından önemlidir. Kaşgarlı Mahmud söz konusu eseryle Karahanlı dönemi dilinin bilgini, büyük ses bilimcisi olarak ortaya çıkmıştır.

Geçmişten günümüze kadar ulaşan diğer Uygur alfabeleri de bulunmaktadır. Fakat onların hiç biri net ve tam olma açısından Kaşgarlı alfabesi ile aynı olamaz.

Anahtar kelimeler: Uygur yazısı, Türkçe yazı, alfabe, Uygur alfabesi, harf, ses, transliterasyon, harf ve ses ilişkileri.

Таянч сўз ва иборалар: уйғур ёзуви, туркча ёзув, алифбо, уйғур алифбоси, ҳарф, товуш, транслитерация, ҳарф ва товуш муносабатлари.

Кириш

Маҳмуд Кошғарий ўзининг «Девону луғати-т-турк» асарида эски уйғур ёзуви ҳақида маълумот бериб, унинг алифбосини ҳам келтирган. Олимнинг туркча ёзув ҳақида ёзганлари, у келтирган алифбо тизими туркий тиллар ва ёзув маданияти тарихи учун ўта қадрлидир. Ўтмишдан қолган бундан бошқа

уйғур алифболари ҳам бор. Лекин уларнинг ҳеч бири ўз аниқлиги ва тўлиқлигига кўра Кошғарий алифбосига ҳамда у келтирган изоҳларга тенглаша олмайди.

Кошғарий ўз луғатида туркий сўзларни ҳамда уларнинг маъносини изоҳлаш учун келтирилган мисолларни араб хатида берган. Лекин, ўша замонда турклар қўллаган алифбо тўғрисида маълумот берар экан, бошқа бир ёзув – ҳозир фанда «уйғур ёзуви», «уйғур хати» деб аталаётган ёзувни келтиради; Махмуд Кошғарий уни «турклар ёзуви» (kitābatu-t-turkiyuа ҳамда хаṭṭu-t-turkiyuа) деган.

Уйғур ёзувини Алишер Навоий ҳам ўшандай атаган эди. У Хусайн Бойқаронинг ўғли Бадиуззамонга ёзган мактубида хатларнинг ўқиш учун қулай ё қийинлиги тўғрисида фикр юрита туриб, уйғур хатини ҳам эслайди; уни türkcä хаṭ дея тилга олади. Навоий ёзади: Yana ul-kim, har türlüg 'arḁadāšt-kim, yuqarı bitilsä, nasxta'liq хаṭṭi bilä andaḁ xvānā bitilsä-kim, oqurda oqur kišigä tašvīš tegmäsä, türkcä хаṭ (ترکجه خط) bilä xūd ašlā bitilmäsä-ki, bu bābda daḁi qavle bar (Mun.398a,23–25).

Ушбу туркий ёзув форсча манбаларда хаṭṭ-i ууўiri, арабча манбаларда арабий изофа билан хаṭṭu-l-ууўiriyuа деб ҳам аталган. Масалан, Ибн Арабшоҳ уни ана шундай атаган (Қоҳира миллий кутубхонасида сақланаётган 3543- кўрсаткичли қўлёзма, 186а–187а- бетлар).

Баъзи асарларда ушбу ёзув «мўғул хати» (хаṭṭu-l-моғūliyuа) деб ҳам айтилган (қаранг: Содиқов 2020,257–258).

Махмуд Кошғарий алифбосининг тизими

Махмуд Кошғарийнинг таъкидлашича, уйғур алифбосида ҳарфлар сони ўн саккизта. Муаллиф алифбода ҳарфларнинг бош шаклини кўрсатиб, тагида араб ҳарфлари билан уларнинг ўқилишини (транслитерациясини) берган. Уйғур ҳарфларининг вазифаси тагидаги ана шу изоҳларга қараб тушунилади.

У ёзади: «Туркий тилларда қўлланадиган асосий ҳарфлар сони ўн саккизта. Туркча ёзув (كتابه التركيه)да шулар қўлланади. Уларнинг ҳаммасини қуйидаги сўзлар қамрайди: اخوك، لف، سمج، نرق، بذر، شتيا

Айириб кўрсатилса, қуйидагича бўлади:

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| ا | ب | پ | ق | ك | و | خ | د | ذ |
| د | ك | ى | ق | ز | و | خ | ف | ا |
| پ | ه | ل | م | ن | و | ف | س | م |
| ل | ت | ش | ر | ج | ب | س | ن | م |

Арабчада бу ҳарфларнинг тенгдош сираси ا ب ت ث сингаридир (МК.3b).

Алифбо таркибидаги ҳарфларнинг кўпвазифалилик хусусияти ҳақида Маҳмуд Кошғарий алоҳида тўхталган эди. Унинг таъкидлашича, туркий тилдаги етти та товуш уйғур ёзувида махсус белгисига эга эмас. Лекин улар ҳам ёзувда бошқа ҳарфлар билан ифодаланаверади; фақат уларга қўшимча белгилар қўйиб борилади. Бу тўғрида у ёзади: «Бу асосий ҳарфлардан бошқа талаффуздагина (ёзувда эмас) ифодаланувчи яна етти та ҳарф [яъни, товуш] борки, туркий сўзлар бу ҳарфларсиз ишлатилмайди. Булар жарангсиз рā (яъни, [r]) ҳарфи, арабча jīm ҳарфи – арабча jīm (бу луғатда, яъни туркчада) кам қўлланади, zā билан žīn оралиғида талаффуз этиладиган zā ҳарфи (яъни, [ž]); арабча fā (яъни, [w]) ҳарфи; нуктали ғауп ҳарфи; qāf билан kāf ҳарфлари оралиғида талаффуз этиладиган жарангли kāf (яъни, [g]), kāfu-l-γunna билан ғауп оралиғида ҳамда qāf билан nūn оралиғида талаффуз этиладиган نى (яъни, [ŋ]) ҳарфларидир.

Бу ҳарфларни талаффуз қилишда турклардан бошқалар қийналадилар. Бу ҳарфлар ўша юқоридаги ҳарфлардек ёзилади, тепасига нукта қўйилиб, бири-биридан фарқланади» (МК.3b–4a).

Кошғарийнинг ушбу маълумотига кўра уйғур ёзувида куйидаги товушлар бир хил ҳарфлар орқали ифода этилганлиги аён бўлади: [k]–[g], [x]–[γ], [č]–[j]–[ž], [w]–[f]. Сонор [ŋ] эса ёзувда икки ҳарф (ن+ک) билан берилган.

Кошғарий уйғур алифбосидаги ҳарфларнинг отини ҳам келтирган: ҳарфларнинг оти, улар ифодалаган товушга fathā қўшиб ҳосил қилинган: a, wa, xa, va, za, qa, ya, kā, ḍa, ma, na, sa, ba, ča, ga, ša, ta, la. Бу кетма-кетликни эса сақлаш учун улар учта-учтадан бирлаштирилиб, awaxa, vazaqa, yakāda, manasa, bačaga, šatala тарзида ўқилган.

Мана уларнинг уйғур хатида берилиши:



Муаллифнинг ёзишига кўра, «Барча хоқонлар ва султонларнинг китоблари, ёзувлари қадимги замонлардан шу кунгача, كاشغۇر Kāšγar дан Юқори Чингача (الصين العليا) – ҳамма турк шаҳарларида шу ёзув билан юритилган» (МК.4b).

Маҳмуд Кошғарий уйғур ёзувида унлиларнинг ишлатилиш принциплари тўғрисида ҳам сўз юритган. Жумладан у kelīn сўзининг маъноси ва ёзилишига тўхтала туриб, ёзувнинг бу хусусияти тўғрисида шундай ёзган эди:

كەلن kelīn – «келин». Ўрта ҳарфи fathā ли бу хил сўзлар аслида alif билан қўшиб ёзилиши керак эди. «Туя товони» маъносида келган تاپان tapan каби сўзларда ҳам икки alif (яъни, [a]) ёзилиши керак эди. Бу ҳолда сўз ўзагида арабча ёзувда бўлмаган икки alif (яъни, [a]) орттирилган бўлади: تاپان سوم;

шунингдек, تُرپۈن türpün каби ўртаси ʒамма ли сўзларда икки vāv (яъни, [u]) шакли орттириб ёзилиши қоидадир: **مصوم تۈپۈن** tۈpۈn каби. Шунингдек, كىلن kelin сўзида бир yā [i] орттириб ёзилади: **كالىن** каби. Биз кўрсатмаган бошқа сўзларда ҳам аҳвол шу. Бу сўзларда орттириб, қисқартириб қўллаш мумкин. ... Чўзиб ва қисқартиб талаффуз қилиш сўзга зарар бермайди. Лекин орттириб ёзиш мумкин бўлганидай, қисқартиш ҳам янглиш эмасдир. Балки қисқартиш мувофиқ (МК.102b).

Ўрта асрлардан қолган бошқа алифболар

Ўтмишдан кунимизгача Маҳмуд Кошғарий алифбосидан бошқа уйғур алифболари ҳам етиб келган. Улар ҳам турли илмий-грамматик асарлар, тарих китоблари, мажмуалар таркибидадир.

Р.Р. Арат ана шундай алифболардан бири ҳақида маълумот келтирган. Унинг ёзишича, Анқарадаги Маориф кутубхонасида (ҳозир уни Анқара Миллий кутубхонаси аталади) сақланаётган китобларнинг бирида уйғур ёзувли бир нечта туркий тўртлик ва байтлар билан бирга уйғур алифбоси ҳам берилган. Олим китобдан ўрин олган ушбу шеъринг узиндилар ва уйғур алифбоси ҳақида ёзиб, ўша бетларининг фотосуратини ҳам келтирган (қаранг: Arat 1992, 34–36; CLXIX).

Р.Р. Арат бу қўлёзма китоб ва унда келтирилган уйғур ёзувли туркий узинди шеърлар ҳақида «Қутадғу билиг» илмий нашрининг кириш қисмида ҳам Ф. Кўпрулу хабарига ишора қилиб, қисқача тўхталиб ўтган (қаранг: Arat 1991, XXXIX–XL).

Саидбек Болтабоевнинг сўзига қараганда (у кутубхонада ўтириб қўлёзмани синчиклаб кўриб чиқибди), бу китоб Ибн Оқил Абдулвафо Абдуллоҳнинг «Китобу-л-фунун» номли асарининг ҳижрий 772 (мелодий 1370) йили кўчирилган нусхасидир. Қўлёзма 06 Нк 324 кўрсаткичи остида сақланаётир. Котиби – Ғозий бин Али бин Қутлуғу-л-Жубатий. Қўлёзма китоб жамаи 157 варақли, уйғур алифбоси ва уйғур ёзувли байтлар унинг сўнгги 154b–157a бетларидадир.

Энди китобда келтирилган уйғур алифбо тизимининг очиқламасига киришамиз (мен китобдаги уйғур ёзувли бетларнинг фотосурати бўйича сўз юритаман).

Алифбодан олдин шундай жумла битилган:

Faṣl: fi xaṭṭi-l-uuyūri alāna yuqālu moʻūli va ḥurūfuhā ʾḥarfān mubniya ʾalal-faṭḥ.

Мазмуни: «Фасл: Ҳозирда мўғулча деб аталадиган уйғур хатида ҳарфлар (сон) 16 та ва фатҳа асосига қурилган».

Шундан сўнг ўн саккизта уйғур ҳарфи келтирилиб (ўн иккитаси бир қаторда, олтитаси кейинги қаторда) ўн олти хил араб ҳарфлари билан изоҳлаб чиқилган. Изоҳларида товушни англатувчи ҳарфларнинг ҳар бирига alif қўшиб кетилган (муаллифнинг «ҳарфлар фатҳа асосига қурилган» деганида ҳам ҳар бир ҳарфга [a] қўшиб ўқилиши кўзда тутилади). Бу шакли,

уйғурча ҳарфларнинг отини ҳам билдиради. Тагидаги ана шу изоҳларига қараб уйғур ҳарфларининг ўқилиши ва вазифасини аниқлаш мумкин.

Ушбу алифбодаги ҳарфларнинг кетма-кетлиги ва отлари шундай: **ا** – <a>, **ا** – <wa>, **ق** – <qa>, **و** – <va>, **س** – <sa>, **ك** – <ka>, **ي** – <ya>, **كك** – <kkä>, **ت** – <ta>, **م** – <ma>, **ن** – <na>, **ز** – <za>, **چ** – <pa>, **چ** – <ča>, **ر** – <ra>, **ش** – <ša>, **ت** – <ta>, **ل** – <la>.

Ушбу алифбонинг тартиби Махмуд Кошғарий алифбосидан бироз фарқли. Унда <sa> билан <za>, шунингдек, <ta> билан <ta> ўрин алмашган. Яна, Махмуд Кошғарий **د** деб изоҳлаган **ا** ҳарфининг оти бу алифбода <ta> деб берилган. Яна, Кошғарий алифбосидаги <ха> ҳарфини ҳам, <qa> ни ҳам бу алифбода <qa> деб изоҳланган. Ҳарқалай, бунинг билан ушбу алифбода уйғур ёзувли матнларда мазкур товушларнинг фарқсиз ифодалангани кўзда тутилган кўринади.

Булардан ташқари, Махмуд Кошғарийдаги **ب** ҳарфи бу алифбода **پ** билан кўрсатилган. Шуларга таянилса, уйғур алифбоси қуйидаги ҳарфлардан тузилгани таъкидланган бўлади: a, w, q, v, s, y, k, t // t, m, n, z, p, č, r, š, l.

Алифбодан сўнг туркий тилдаги сонларнинг даражалари (бирликлар, ўнликлар, юз, минг, туман), ундан кейин туркий байтлар келтирилган. Улар ҳам уйғур хатида бўлиб, тагма-таг араб хатидаги ўқилиши берилган. Байтлар «Қутадғу билиг» ва «Ҳибату-л-ҳақойик»дан олинганига қараганда, ушбу уйғур алифбоси қорахонийлар даври матнларини ўқиш учун очкич сифатида берилган чоғи.

Буни туркий сонлар келтирилиб, тагидаги ўқилишига келганда улар ўғузчалаштирилганидан ҳам билса бўлади: *tört – dörd, yeti – yedi, toquz – doquz* сингари.

Ибн Арабшоҳ ҳам ўзининг «Ажойбу-л-мақдур фи навоиби Таймур» отли асарида уйғур алифбосини келтиради (қаранг: Рустамов 1976,41). У ҳам одатдаги тартиб билан 18 та ҳарфни кўрсатган. Лекин уйғур ҳарфларининг ўқилишини изоҳлар экан, «уйғур хатида 14 та ҳарф бор» деб таъкидлайди ва шу асосда уйғур ҳарфларини 14 та араб ҳарфи билан транслитерация қилади.

Ибн Арабшоҳ алифбо ҳарфлари сони озлигининг сабабини шундай изоҳлайди: « ... Озлигининг ва шу сон билан чекланганининг сабаби бўғиз ҳарфларини бир хил шаклда ёзадилар. ... Махражда [яъни артикуляцияда] бир-бирига яқин бўлган **ب** ва **ف** каби, **ز**, **s** ва **ص** (ص) каби, **t**, **d**, **ط** (ط) каби ҳарфлар ҳам шундай» (Рустамов 1976,39).

Бу ўринда уйғур ҳарфларининг полифоник табиати, шунингдек, ўзлашган сўзлардаги баъзи товушларнинг (жумладан, **ص**, **ط** каби) туркий тилда ўзига яқин товушларга сингиб кетганлиги, улар учун махсус ҳарфлар йўқлиги таъкидланган. Шундан кейин келтирилган алифбода эса юқоридаги фикрлар тизимли тарзда кўрсатиб берилган.

Махмуд Кошғарий алифбосидаги w билан b нинг иккиси ушбу алифбода арабча **و** орқали изоҳланган; x ва q бу ерда **ق**; z билан s бу ерда **س**; δ билан t эса бу ерда **د** орқали изоҳланган. Шунга кўра ҳарфлар сони 14 тадир.

Юқоридаги маълумотларга асосланадиган бўлсак, Ибн Арабшоҳ уйғур алифбосида қуйидаги товушлар бир хил ифода этилганини таъкидлаган бўлади: [q] – [γ] – [x], [b] – [v] – [f], [z] – [s], [t] – [d].

Шуларга кўра, муаллиф таъкидлаган уйғур алифбосидаги 14 та ҳарф қуйидагилар бўлиб чиқади: a, b, q, v, s, y, k, d, m, n, č, r, š, l.

Ибн Арабшоҳ уйғур хатининг тарихи тўғрисида ҳам яхши маълумот берган. Тарихчи ёзади: «Улар [чиғатойликлар – Қ.С.] ўзларининг тилхат, мактуб, фармон, хат, китоб, битим, солнома, шеър, қисса, ҳикоят, ҳисоб, хотира ва девонга тегишли ҳамма ишларини, чингизона тузукларини шу ёзувда ёзадилар. Бу ёзувни яхши билган уларнинг орасида хор бўлмайди, чунки бу (ёзув) уларда ризқ очқичидир» (Рустамов 1976,42).

Демак, тарихчи Ибн Арабшоҳ ҳам, Ибн Оқил Абдулвафо Абдуллоҳ ҳам уйғур хатини жуда яхши билганлар. Улар келтирган алифболарда ҳам ҳарфлар сони Махмуд Кошғарий алифбосидаги сингари 18 та. Бирок бирови уйғур хатидаги ҳарфлар сонини 16 та, бошқа бири 14 та деб кўрсатганининг сабаби, ҳарфларнинг полифоник хусусияти ва бир қанча товушлар ёзувда бир хил ифодаланганини назарда тутганлар.

Уйғурча ҳарфларнинг фонетик вазифалари

Энди Махмуд Кошғарий келтирган уйғур алифбосидаги айрим ҳарфларнинг вазифалари тўғрисида сўз юритамиз.

Уйғур ёзуви оромий алифбоси негизида яратилган. Шундай бўлса ҳам, турклар бу ёзувни ўзлаштириш чоғида уни ўз тилларига мослаштириб юбордилар. Унинг имло принциплари тугал бир шаклда ўйлаб чиқилган эди. Уйғур алифбосидаги ҳарфлардан учтаси, ўрни билан, унлиларни ифодалашга хизмат қилган: **ا** <a> ҳарфи [a]–[ä~e] унлиларини, [y] ундошини ифодаловчи **ي** <ya> ҳарфи [i] – [i~e] ни, **و** <va> ҳарфи эса [u] – [ü] – [o] – [ö] унлиларини англатади.

Мухими шундаки, уйғур ёзувида ингичка унлилар ҳам фарқланган: сўз бошида ингичка [ä] унлиси битта alif билан, йўғон [a] унлисини ифодалаш учун эса alif қўшалок шаклда ёзилган. Шунингдек, сўз боши ва биринчи бўғинда келувчи [ü] ва [ö] унлилари alif uā билан берилган.

Ёзувнинг бу хусусияти оромий алифбосини (ҳарқалай, суғдча алифбони) туркчалаштириш жараёнида вужудга келган эди. Чунончи, суғдча ёзувда чўзиқ [a:] товуши қисқа [a] дан қўшалок alif орқали ёзилиши билан фарқланган. Турклар суғд хатини ўзлаштириш чоғида унинг баъзи принципларини ўз тилларига мослаштириб олганлар. Суғд хатида чўзиқликни англатувчи график белгилар уйғур ёзувида чўзиқ-қисқаликни эмас, туркий тил учун муҳимроқ бўлган ингичка ва йўғон унлилар, яъни олд ва орқа қатор унлиларини фарқлашга хизмат қила бошлади.

Хусусан, Турфондан топилган қадимги будда, моний матнларида сўз бошида қўшалок **ا** <aa-> ҳарфи орқа қатор [a] ни, оддий **ا** <a-> эса олд қатор [ä(~e)] унлисини ифодалаган. Кейинчалик орқа қатор [a] товуши учун ҳам оддий **ا** <a-> ҳарфидан фойдаланиладиган бўлди (қаранг: Содиқов 2020,261–262).

Энди ундошларни англатувчи ҳарфларга ўтаммиз: сирада иккинчи турувчи **و** wa ҳарфининг вазифаси тўғрисида. Бу ҳарф лаб-тиш [w] ҳамда лаб-лаб [v] товушларини ифода этган. Маҳмуд Кошғарий унинг вазифасига ишора қилиб, остига араб алифбосидаги **و** ҳарфини қўйган (МК.3а). Бунинг билан у [w] товушини кўзда туттади. Бу товуш асарда келтирилган туркий мисолларда **و** ва **و** ҳарфлари билан ифодаланган.

Мухими шундаки, Ибн Оқил Абдулвафо Абдуллоҳ ҳам ўзи келтирган алифбода ушбу ҳарфнинг остига **و** ҳарфини қўйиб кетган. Олимларнинг ушбу изоҳларидан туркий сўзларда [w] товушининг [v] га қараганда устун эканлигини англаса бўлади.

XI–XIV юзйилларнинг араб ёзувли туркий матнларида [v] билан [w] бошқа-бошқа ҳарфлар билан берилган: фонеманинг [v] варианты vāv, [w] товуши эса **و** ёки **و** ҳарфлари билан ифода этилган. Масалан, [w] товуши «Девону луғати-т-турк»даги туркий матнларда, «Қутадғу билиг»нинг араб ёзувли қўлёзмаларида **و** // **و**, туркий «Тафсир»да **و**, «Муқаддамату-л-адаб»нинг XIII–XIV юзйилларга мансуб дея чамаланаётган нусхасида **و**//**و** ҳарфлари билан ифода этилган (Содиқов 2020,272).

Мисоллар: **سفت** sew- «сев-» (QBQ.13a,16), **جاف** čaw – «хабар, доврўғ» (QBQ.13a,7).

Кейинги давр матнларида бу товушлар учун ягона ҳарф хизмат қилган: иккови vāv ҳарфи билан ифодаланадиган бўлди.

Маҳмуд Кошғарий [w] ни «bā (яъни, [b] билан fā (яъни, [f]) маҳражлари орасидаги» товуш деб таъкидлайди (ДЛТ,26). Унинг ёзишига қараганда, [v] ёки [w] билан сўзлаш диалектал хусусият бўлган. Масалан, «унинг суви билан тутмочга ранг бериладиган бир хил тиканли ўсимлик»ни баъзи шева-ларда жарангсиз [v] билан уава десалар, бошқалар жарангли [w] билан уава деганлар (ДЛТ,331).

Шунингдек, у, айрим ҳолларда, [v] билан [w] нинг параллел қўлланиши мумкинлигини ҳам таъкидлайди: ualawač – «пайғамбар». Бу сўзнинг ualawač шакли ҳам бор (ДЛТ,340).

Келтирилган далиллар [w] ҳамда [v] диалектал хусусиятларни фарқлаш билан бирга, ҳар иккаласи ўзаро вариант сифатида (w~v) қўлланганидан ҳам далолат беради.

Энди уйғур алифбосидаги тўққизинчи – **ا** <da> ҳарфининг вазифаси тўғрисида. Алифбодаги ушбу ҳарф [d] ҳамда [t] ундошларини ифода этган. Шунингдек, XI–XIV юзйилликларнинг араб ёзувли туркий матнларида

тишора \dot{d} [δ] ундоши билан қўлланган сўзлар ҳам уйғур ёзувли матнларда ана шу ҳарф билан ёзилади.

Маҳмуд Кошғарий ўз алифбосида тўққизинчи ҳарфнинг остига арабча \dot{d} ҳарфини қўйиб, унинг тишора [δ] товушини ифода этганлигига ишора қилади. Қизиғи шундаки, алифбода \dot{d} [d] ни билдирувчи ҳарф кўрсатилмаган. Бироқ, таъкидлаш керак, «Девону луғати-т-турк»да \dot{d} [d] билан келувчи сўзлар ҳам анчагина.

Ҳар қайси ҳолда ҳам алифбода \dot{d} [δ] ни англантишига ишора этилган тўққизинчи ҳарф ўша даврнинг уйғур ёзувли матнларида [d~δ] вазифасини бажарганлиги аниқ. Маҳмуд Кошғарийнинг ушбу ҳарф \dot{d} [δ] товушини англатган деб изоҳлагани бежиз эмас. У алифбода \dot{d} [d] ни эмас, фақат \dot{d} [δ] ни кўрсатганлигининг сабаби ҳар икки товушни ўзаро вариант сифатида қараганлигидан бўлса керак.

Уйғур алифбосидаги <da> ҳарфининг вазифасини аниқлашда «Ҳибату-л-хақойик» уйғур ёзувли А нусхасининг ёзув хусусиятлари қўл келади. Эътиборлиси, уйғур ёзувли ушбу қўлёзмада «шундай ўқилсин» деган ишора остида араб алифбосидаги ҳарфлардан фойдаланилган. Масалан: матнда كەدۈم kedim сўзидаги <d> ҳарфининг остига \dot{d} белгисини қўйиб, ушбу сўзни тишора [δ] ундоши билан kedim шаклида ўқишга ишора этилган (YugA.43,6). Бошқа мисоллар ҳам шундай: قۇدۈ qudī (quḍī) – «қуйи» (66.1), ەدگۈ edgü (edgü) – «яхши» (91.2), ادۈن adīn (adīn) – «бегона» (113.1).

Баъзи ўринда уйғур ёзувли матндаги <z> ҳарфининг остига ҳам \dot{d} белгисини қўйиб кетилган. Шундай ишора бўлган экан, энди бу ҳарфни ҳам [δ] деб ўқиш лозим бўлади: بوزۇن bozun (boḍun) – «халқ» (YugA.102,2), قازۇ qazū (qaḍū) – «қайғу, алам» (YugA.103,2) сингари.

«Ҳибату-л-хақойик»нинг В нусхасида [δ] товуши ҳатто <t> ҳарфи билан ҳам берилган; бу сўздаги <t> ни ҳам [δ] деб ўқиса бўлади: كەت ket (ked) – «жуда» (YugB.39,5).

«Ҳибату-л-хақойик»нинг араб ёзувли В ва С қўлёзмаларида \dot{d} ҳарфи йўқ, ўрнида dāl ёки yā ҳарфлари ишлатилган. Мухими шундаки, В ва С қўлёзмаларида [d] ёки [y] билан ишлатилган сўзлар асарнинг араб ёзувли Н қўлёзмасида [δ] билан келади; бу товуш матнда \dot{d} ҳарфи билан ифодаланган: ەدگۈ edgü – «эзгу» (YugH.24b,6); ەدۈ eḍī – «эга; худо» (YugH.15a,8); ئۈدۈ üḍ – «юбор-» (YugH.11a,3); قۇدۈ quḍī – «қуйи» (YugH.14a,5) ва б.

Мухим бир далилга эътибор қаратайлик. «Қутадғу билиг»нинг араб ёзувли Наманган (В) нусхасида [δ] товуши махсус ҳарф билан берилган: ەدگۈ edgü – «эзгу, яхши» (15b,2), بوزۇن boḍun – «халқ» (14a,14), اۈد öḍ – «вақт» (20b,5), اۈد üḍ – «хўқиз» (42a,4). Асарнинг уйғур ёзувли Хирот нусхасида бу сўзлар <d> ҳарфи билан ёзилган. Шу ўринда Наманган нусхасининг ёзув хусусиятларини эътиборда тутадиган бўлсак, уйғур ёзувли матндаги <d>

харфи тишора [δ] товушини ифода этгани аён бўлади: edgu (edgü) – «эзгу» (9b,21), kedin (keđin) – «кейин» (29a,19), quđi (quđi) – «қуйи» (8a,32), adaγ (adaγ) – «оёк» (12a,5), Ud (Uδ) – юлдузнинг оти (8b,9).

Шунинг сингари, «Хибату-л-хақойик»нинг уйғур ёзувли А нусхасида kedgülik (яъни, «кийгулик») сўзининг остига ҳам **د** харфи қўйиб кетилган: kedgülik (ўқилиши: keđgülik) (YugA.44.4). Мисоллардан англашиладики, уйғур алифбосидаги <d> харфи [d] ва [t] товушларидан ташқари, тишора [δ] товушини ҳам ифода этган.

Туркий ёзма ёдгорликларда сирғалувчи **ژ**[ž] товуши ҳам қўлланган. Махмуд Кошғарий бун мураккаб артикуляцияга эга бўлган («икки махраж орасида талаффуз қилинадиган») товуш деб таърифлайди (ДЛТ,160).

Уйғур ёзувли қадимги Турфон матнларида сирғалувчи [ž] товуши <z> харфининг остига икки нукта қўйиб ифода этилган (!). Масалан, «Сюань-цзан кечмиши» асарида: **دۈنۈ** ažun – «дунё» (СЦ.V.71,4), **ۈزۈك** üžik – «харф, ёзув» (СЦ.V.17,23).

Сирғалувчи [ž] товуши араб хатида **ژ**харфи билан ифода этилган. Масалан, QBQ да: **دۈنۈ** ažun – «дунё» (16.7), **رەز** eräž – «роҳат, фароғат» (285.2).

Махмуд Кошғарий ўз асарида қуйидаги сўзларни сирғалувчи **ژ**[ž] билан келтирган (ДЛТ бўйича): **دۈنۈ** ažun – «дунё» (43), **اۈزۈ** aγüž – «оғиз, оғиз сути» (36), **ارژو** aržu – «шокол, чиябўри дейилган йиртқич бир хайвон» (64), **اۈزما** užma – «тут дарахти» (65), **تۈزۈك** täžik – «тожик; форс» (156); **بۈزۈن** bužün – бир хил ўт, ўсимлик (160).

«Кутадғу билиг»нинг араб ёзувли қўлёмаларида **ژ**харфи билан ифода этилган [ž] товуши асарнинг уйғур ёзувли Хирот қўлёмасида <č> харфи билан ифода этилган. Асарнинг араб ёзувидаги нусхаларини назарда тутилса, бу сўздаги <č> харфи сирғалувчи [ž] ни англаганлиги аён бўлади: ačun (ažun) (QBN.7a,17) [асарнинг араб ёзувли қўлёмаларида: **دۈنۈ**(QBN.9b,10)].

Қадимги турфон битигларида икки нуктали <z> билан ёзилган ažun сўзи «Хибату-л-хақойик»нинг уйғур ёзувли нусхаларида <č> харфи билан **دۈنۈ** ačun шаклида ёзилган (YugA.14,6; 15,4).

«Хибату-л-хақойик»нинг уйғур хатида ёзилиб, остида араб харфлари билан изохлаб чиқилган В нусхасида муҳим бир ёзув хусусиятини кузатамиз. Унда уйғур ёзувли матндаги ačun сўзи остма-ост берилган араб ёзувли матнда бир ўринда **دۈنۈ** ažun (19,2; 22,4), бошқа бир ерда эса **دۈنۈ** ačun деб изоҳланган (23,4; 47,7).

Асарнинг араб ёзувли С нусхасида ҳам мазкур сўз бир ерда **ژ**билан ažun ёзилса (18,2; 21,4), бошқа бир ерда **ج**билан ačun ёзилган (8,1). Демак, бу сўз асарда ažun~ačun шаклларида қўлланган. Шунга биноан, асарнинг уйғур ёзувли нусхаларида **ژ** <č> харфи сирғалувчи [ž], ўрни билан жарангсиз [č] товушини ифода этганлиги аён бўлади.

Юкоридагилардан келиб чиққан ҳолда Маҳмуд Кошғарий келтирган ўн саккиз ҳарфли алифбо (МК.3b) асосида тизимлаштирилса, ҳарфларнинг вазибалари қуйидагича эканлиги аён бўлади:

- ▲ <a> ҳарфи – [a], [ä~e]; арабчадан ўзлашган сўзлардаги [h], [ħ] ларни;
- <w> ҳарфи – [v~w], арабчадан ва форсчадан ўзлашган сўзлардаги [f] ни;
- ◐ <x> ҳарфи – [x], [χ], ўзлашган сўзлардаги [h], [ħ] ларни;
- ◑ <v> ҳарфи – [o], [ö], [u], [ü] ларни;
- ▲ <z> ҳарфи – [z], [s], [ž] ларни;
- ◐ <q> ҳарфи – [q], [γ], арабчадан ўзлашган сўзлардаги [h], [ħ] ларни;
- ▲ <y> ҳарфи – [y]; [i], [i], [~e] ларни;
- ◐ <k> ҳарфи – [k], [g] ларни;
- ▲ <d> ҳарфи – [d~δ], [t] ларни;
- ◐ <m> ҳарфи – [m] ни;
- ◑ <n> ҳарфи – [n] ни;
- ◐ <s> ҳарфи – [s], [z], Турфон матнларида баъзан [ž] ни;
- ◐ ҳарфи – [b], [p] ларни;
- ◐ <ç> ҳарфи – [ç], [j], [ž] ларни;
- × <r> ҳарфи – [r] ни;
- ◐ <š> ҳарфи – [š] ни;
- ◑ <t> ҳарфи – [t], [d~δ] ларни;
- ◐ <l> ҳарфи – [l] фонемасини ифода этади.

Хулоса

Маҳмуд Кошғарий келтирган уйғур алифбоси ва ёзув ҳақидаги маълумотлари ёзув тарихи, унинг ўзига хос хусусиятлари, эски туркий тилнинг, хусусан, қорахонийлар даври ёзма адабий тилининг фонетик тизими, ҳарф ва товуш муносабатларини ўрганишда ўта аҳамиятлидир. Кошғарий алифбоси ўтмишдан қолган грамматикалар ва тарих китобларидаги уйғур алифболарининг энг мукаммали бўлиб, олим унга қарахонийлар даври тилининг билимдани, кучли фонетисти сифатида ёндашган.

Уйғур алифбоси ихчам бир шаклда тузилган бўлиб, ундаги ҳарфларнинг айтарли бари полифоник хусусиятга эга эди. Туркий халқлар ўтмишда фойдаланган алифболарнинг энг ихчами ҳам айни алифбодир. Унинг имло принциплари жуда ўйлаб ишлаб чиқилган. Ўтмиш ёзув амалиётининг тажрибаси шуни кўрсатадики, ёзувнинг қулай ё ўнғайсизлиги, тилнинг фонетик-фонологик тизимига қай даража жавоб берганлиги алифбодаги ҳарфларнинг оз-кўплигида эмас, балки имло қоидаларининг қандай тузилганлигига боғлиқ экан.

Уйғур хати ўзининг ихчам алифбо тизими, имло принципларининг мукамал ишлангани, палеографик имкониятлари билан юзйилликлар оша туркий тилнинг фонетик хусусияти, китобат санъати талабларига тўла жавоб бериб, юзйилликлар оша ишлатилиб келди.

Фойдаланилган адабиётлар:

- Arat 1991 – Kutadgu Bilig. I. Metin. R.R. Arat. – Ankara, 1991.
- Arat 1992 – Edib Ahmed b. Mahmud Yükneki. Atebetü'l-Hakâyık. R.R. Arat. – Ankara, 1992.
- ДЛТ – Махмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк [Туркий сўзлар девони]. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Тошкент, 2017.
- МК – Kaşgarlı Mahmud. Dīvānū Lūgati't-Türk. Tıpkıbasım / Facsimile. – Ankara, 1990.
- Мун. – «Муншаот»: Франция Миллий кутубхонасида сақланаётган Suppl. Turc. 317 / 1513 кўрсаткичли Навоий куллиётида (387b–406a).
- Рустамов 1976 – Рустамов А. Ибн Арабшоҳ туркий ёзувлар ҳақида. // «Адабий мерос» (5). 1976. 39–42- б.
- Содиқов 2020 – Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Тошкент, 2020.
- СЦ – «Сюань-цзан кечмиши» асари: Тугушева Л.Ю. Уйгурская версия биографии Сюань-цзана. – Москва, 1991.
- Yug – Адиб Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибату-л-хақойиқ» асари: А – асарнинг 1444 йили Самарқандда кўчирилган уйғур ёзувли нусхаси: Arat 1992: S. I–LXII; В – асарнинг 1480 йили Истанбулда уйғур ёзувида ёзилиб, тагма-таг араб хатида изоҳлаб чиқилган нусхаси: Arat 1992: S. LXIII–CXVII; С – асарнинг XVI юзйилликда араб хатида кўчирилган нусхаси: Arat 1992: S. CXVIII–CLXVI; Н – асарнинг Голландияда сақланаётган араб ёзувли нусхаси: Edib Ahmed Yükneki. Atebetü'l-Hakâyık. İnceleme - Tenkitli Metin - Tıpkıbasım. Hazırlayan: S. Çakmak. – İstanbul, 2019. S. 420–468.
- QB – Юсуф Хос Ҳожибнинг «Кутадғу билиг» асари: Н – Вена (Ҳирот) нусхаси: Wien, ÖNB, Cod. A.F.13: Радлов В.В. Кутадғу-Билик. Факсимиле уйғурской рукописи. – СПб., 1890; Yusuf Has Hacıb. Kutadgu Bilig. A. Viyana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015; N – Наманган (Фарғона) нусхаси: ЎзР ФА Шарқшунослик институти, 1809 кўрсаткичли кўлёзма. Yusuf Has Hacıb. Kutadgu Bilig. B. Fergana Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015; Q – Қоҳира нусхаси: Миср Миллий кутубхонаси, 168- кўрсаткичли кўлёзма: Yusuf Has Hacıb. Kutadgu Bilig. C. Kahire Nüshası (Tıpkıbasım). – Ankara, 2015.

**ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK NUQTAI NAZARIDAN
DEVONU LUG'ATIT-TURK**

Prof. Dr. Temur Xo'jao'g'li (Timur Kocaoğlu)
Michigan davlat universiteti, AQSh

Divonu Lug'ati't-Turk Abdurauf Fitrat (1886-1938) Özbek tilshunosligi tarixida Divonu Lug'ati't-Turk ustida yirik ilmiy ish olib borgan birinchi turkshunos olimdur. Abdurauf Fitrat 1927 yilda *Eng eski turk adabiyoti namunalari* nomli asarida Mahmud Qashg'ariyning *Divonu lugati't-turk* asaridagi qadimiy turkiy adabiy parchalarni ilmiy transkripsiya bilan nashr qildi (Qarang Rasm 1). Abdurauf Fitrat 1928 yilda *O'zbek adabiyoti Namunalari* asarida esa qadimiy turk dostonlari va Orxun yozuvidan Boburnoma asarigacha ko'p sonda turkiy adabiyoti qatorida Qutadg'u bilig asaridan 80 baytlik bir parchani ilmiy transkripsiya bilan nashr qildi (Qarang Rasm 2).

Men 1983 yilda Istanbul universitetida o'tkazilgan "Xalqora Turkologiya Konferentsiyasi"da «Turkistonli olim Abdurauf Fitratning Turkologiya sahosisidagi unitilgan asarlari» nomli ma'ruzamni taqdim qildim. Bu ma'ruzam keyin 1986 yilda *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı Belleten (1982-1983)*, Ankara: Türk Dil Kurumu, 1986; s. 101-112.

Abdurauf Fitrat 1938 yilda otib o'ldirilganidan keyingi sovet davrida uning nomi va asarlari uzoq yillar men' qilingani tufayli, SSSR-da va chet ellardagi turkshunos olimlar, Fitratning ham shu Divonu lugat-it-turk hamda Qutadg'u Bilig va boshqa tilshunoslik va adabiyotshunoslik asarlaridan xabarsiz qoldilar. O'zbekistonda xabarlar bo'lganlar da bu haqda ma'lumot berishdan tortindilar. O'zbek olimasi Arzigul Hamroeva Fitratning *Eng eski turk adabiyoti namunalari* va *O'zbek adabiyoti namunalari* asarlarini o'zbek kiril alifbosida nashr qildi (Toshkent: Mumtoz, 2013).

Xulosa Fitratning DLT ustidagi mazkur asari mundan 94 yil oldin nashr etilgan edi. Zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan Divonu Lug'ati't-Turk Bu haqdagi dastlabgi maqolam 1999 yil 7-8-mayda o'tkazilgan "Divanu lugati't-Türk Bilgi Şöleni" nomli anjumandagi ma'ruzamning maqolasi bo'lib yana o'sha yil nashr etilgan. Mendan 10 yil keyin bu haqda ikkinchi maqolani 2009-yilda nashr qilgan turk olimi Ferhat Karabulut maqolasida shunday yozadi:

«DLT-ni tilshunoslik mezonlarga ko'ra dastlab baholagan kishi Timur Kocaoğlu bo'ladi. Timur Kocaoğlu DLT-ni turli tilsunoslik nazariyalariga ko'ra baholaganidan keyin, DLT-dagi amaliy tilshunoslik va semantika xususiyatlari ustida toxtaladi».

Ferhat Karabulut, «Dünya Dilbilimi Tarihi İçinde Divan-u Lugati't-Turk'üm Yeri ve Önemi», *Turkish Studies*, Vol. 4/3 (Spring 2009), s. 1326-1342.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, zamonaviy tilshunoslik turli fanlar bilan birlashib, turli tarmoqlarga bo'lingan va bugungi kunda alohida tilshunoslik tarmoqlari sifatida rivojlanmoqda. Turli tilshunoslik tarmoqlari orasida Divanu Lug'ati't-

Turkni, ayniqsa, antropologik tilshunoslik, sotsiologik tilshunoslik, amaliy tilshunoslik va semantika nuqtai nazaridan o'rganib baholash mumkin, hamda bu haqda ilmiy tekshirishlar olib borish zarurdir.

Qashgarli Mahmudning bu asari arab tilida yozilganligi sababli, turk tiliga qiziquvchi arablarni yodda tutgan holda, u birinchi navbatda amaliy tilshunoslik sohasiga kiradi. Bugungi kunda Kashgarli Mahmudning DLT-da qo'llagan usulini "til o'rganish va o'rgatish tajribasi va ayniqsa chet tillarini o'rgatish bilan bog'liq yangi usullar bilan shug'illanadigan» amaliy tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish kerak.

Shunisi e'tiborliki, so'nggi o'n yil ichida AQSh va Evropada nashr etilgan ingliz, nemis, fransuz, italyan va rus tillari kabi tillarini o'rgatuvchi darsliklarda grammatik ma'lumotlar imkon bo'lganicha qisqartirilib, o'ganilayotgan tilni gapirayotgan millatning kundalik hayoti va madaniy xususiyatlari haqidagi ma'lumotga ko'proq joy ajratilmoqda.

Biz Qashgarli Mahmudning asarini Divonu Lug'ati't-Turk ni diqqat bilan o'rgansak, uning o'z asridan keyingi asrlardagi yangiliklarni ko'ra oladigan ilg'or fikrli bir olim sifatida, u turklarning madaniy qadriyatlarini ko'proq tanishtirish orqali, turk tilini arablarga yaxshiroq o'rgatish usulini kashf etganini payqab qolamiz.

Divonu Lug'ati't-Turk -da Turkcha so'zlar arabcha izohlanayotganda, u so'z bilan bog'lik maqollar, iboralar, xalq adabiyoti namunalari she'r va nasr parchalari, turklarning turli qabilalari haqidagi madaniy ma'lumotlar ham qoshib berilgan. O'zbekiston'da tilshunos olim Qosimjon Sodiqov nashr qilgan *Divonu lugati't-turk* (Toshkent, 2017) dunyadagi eng mukammal ilmiy nashr hisoblanadi.

Divonu Lug'ati't-Turk Sotsiologik tilshunoslik nuqtai nazaridan judayam qiziqarli asardir. DLT-da turli turkiy qabilalar boshqa xalqlar bilan yaqin aloqada bo'lganmi yoki yo'qmi va bu madaniy aloqalar ularning turkchasiga qanchalik ta'sir qilganligi haqida ham ma'lumot berilgan:

"Eng aniq va to'g'ri til faqat bitta tilni biladigan, forslar bilan aralashmagan va umuman chet ellarga bormagan kishilarda bor. Ikki tilli va shaharliklar bilan aralashganlarning tilida ma'lum o'zgarishlar bo'ladi".

Qashgarli Mahmud Divonu Lug'ati't-Turk asarida dastlab arab tilshunoslarining lug'atlaridagi usullarga tayangan, lekin u arab lug'atlarida ko'rilmagan yangiliklar ham kiritgan. Chet tilni ikkinchi til sifatida o'rgatishda ishlab chiqilgan amaliy tilshunoslikning so'nggi usullariga ko'ra, O'rganilayotgan chet tilda, u tilni gapirayotgan millatning «madaniy qadriyatlarini batafsil o'rganish» muhim ahamiyat kasb etadi.

Divonu Lug'ati't-Turk asarida Qashgarli Mahmud "ikki tillilik" va "ko'p tillilik" kabi muhim tilshunoslik hodisalari ustida ham to'xtaladi. Divanu Lug'ati't-Turkni, tilshunoslikning turki tarmoqlari, ayniqsa, antropologik tilshunoslik, sotsiologik tilshunoslik, amaliy tilshunoslik va semantika nuqtai nazaridan yanada chuqurroq o'rganib chiqilishi kerak. Umid qilaman, hozirgi yosh olimlar bu mavzularga ko'proq e'tibor beradilar.


Turk olimi Ferhat Karabulut 2009-yildagi maqolasida DLT-ning ahamiyati haqida shularni yozadi: «Kashgarli Mahmudning yana bir diqqatga sazovor tomoni:

mavzuni taqdim etish uslubidir. U, ayniqsa, asarning sharh qismlarida ob'ektiv bo'lishga harakat qiladi va faqat lingvistik faktlar haqida gapiradi. Kashgarli undan olti yuz yil keyin tizimlashtiriladigan «muqoyasa» (solishtirish) usulidan foydalangan. Kashgarli kirish qismida o'zining milliy maqsadni aniqlagan bo'lsa, u til materialini baholagan qismida ilmiy qolishga muvaffaq bo'ldi.

Ferhat Karabulut maqolasini quyidagicha yakunlaydi: «Natijada, bu tadqiqot bilan jahon tilshunosligi tarixida Kashgarlining mutlaq o'rni borligini ko'rgan va ko'rsatgan boldik. Kashgariyning tarixiy o'lchovining ilmiy jihati, zamonaviy usullari bilan qayta ishlash zarurati va kelajakdagi tilshunoslik kitoblarida Kashgariyning kengroq o'rin egallashi kerakligini ko'rsatdik. » Men hambu turk olimining shu ezgu tilaklarini qo'llab-quvvatlash bilan so'zimni yakunlayman!



Rasm 1: Abdurauf Fitrat 1927 yilda Eng eski turk adabiyoti namunalari



Rasm 2: Abdurauf Fitrat 1928 yilda *O'zbek adabiyoti Namunalari*

TÜRKİSTANLI BİLGİN ABDURRAUF FITRAT'IN TÖRKOLOJİ SAHASINDAKİ UNUTULMUŞ ESERLERİ

TİMUR KOCAOĞLU

Abdurrauf Fıtrat (1886 Buhara – 1937 Taşkent) Türkistan'ın en buhranlı devrinde yaşamış çok yönlü bir kişiydi. Fıtrat 51 yıllık hayatında hem siyasî sahnede, hem de edebiyat ve ilim sahalarda verimli çalışmalar yaptı. Fıtrat'ı tam olarak tarif edebilmek için bir çok sıfat kullanmak gerekiyor. O sıfatlardan bir kaçını şöyle sıralayabiliriz: Yenilik öncüsü, politikacı, devlet adamı, eğitimci, gazeteci, fıkra yazarı, hikâyeci, şair, piyes yazarı, edebiyat tenkitçisi, edebiyat tarihçisi, dilci, müzik tarihçisi, folklor araştırmacısı, vesaire. Abdurrauf Fıtrat'ın bu birbirinden değişik sahalardaki bütün çalışmaları ve eserlerinde iki özellik hemen kendini belli eder : Modernleşme ve milliyetçilik. Türkistan'daki Ceditçilik, yani Yenilikçilik hareketinin bütün önderleri gibi, Fıtrat da kendi cemiyetini yenileştirirken, kendi millî benliklerinin yok olmaması için çaba gösterdi.

Abdurrauf Fıtrat, Buhara'da Mir Arap Medresesini bitirdikten sonra, 1910 yılında İstanbul'a geldi ve bir süre Darülfünûn'da okudu. Fıtrat İstanbul'dayken 1910 ve 1911 yıllarında Farsca vazdızı ilk üç eserini burada

Timur Kocaoğlu, Türk Dili Araştırmaları Yıllığı Belleten (1982-1983),
Ankara: Türk Dil Kurumu, 1986; s. 101-112.

BENİM DİVAN-I LUĞAT-İT TÜRK TEN FARŞÇA ÇEVİRİM

Prof D.H. Hüseyin Düzgün
(Hossein Mohammadeh Sadigh)

Tahran üniversitelerinin eski Türk Dili ve Edebiyatı okutmanı

Özet. Divan-ı Luğat-it Türk Türkçe sözcüklen, hazinesi ile birge Türk mitoloji, folklor, şiirler, dilbilgisi, sözcükbilim gelenekler, görenekler vs den örnekler vermektir.

İşbu ansiklopedik yapıt 12- ci yüzyılda Mahmud Kaşğari tarafından yazılmıştır. İşbu satırları yazan şu önemli yaptın. 2001 yılında Farsça çevirisini Tahranda yayımlamış bulunmaktadır. Başka tespitler ile farklı olarak özgün sesyazımı kullanmış ve ə/x/q harflarını da harflar listesine eklemiş ve bazı çevirmenlerin yanlışlıklarını düzeltmişim. İşbu makalede Doç. Dr. İsrail Bacanın "DLT'ün Farsça Tercümesine bir değerlendirme" makalesinden yararlanarak, kendi çevirimi anlatmaktayım.

Anahtar kelimeler: Mahmud kaşğari_ Divan-ı Luğat-it Türk_ Farsça çeviri _ sesyazımı değişimi_ yanlışlıklarım düze lişi_ Dr. Babacan.

Abstract. Divan Lugat-it Turk is a treasure trove of Turkish words. Examples of myths, folklore, poems, grammar, lexicography, etc., which were written by Sheikh Mahmud Kashgari in the fifth century AH to teach Arabic to the Arabic language. I have translated it into Persian from Arabic texts and carefully completed it in the translation of the late Basim Atalay. In transliterating Turkish words, I inserted the letters ə, x, q into the transcription system, corrected some mistakes of previous translators, and made some innovations in the world of lexicography. In the present article, this translation is briefly introduced using the speech of Dr. Israil Babajan in its evaluation.

Keywords and expressions: Turkish Dictionary - Persian translation - Phonetic system change - Translators' mistakes - Dr. Babajan.

چکیده

دیوان لغات التړک، گنجینه ای از واژه های ترکی است. نمونه هایی از اساطیر، فولکلور، اشعار، دستور زبان، لغت شناسی و غیره را دربردارد که جهت آموزش به عرب زبانان در قرن پنجم هجری از سوی شیخ محمود کاشغری تألیف شده است این جانب این اثر را مستقیماً از متن اصلی عربی در سال 1380 به زبان فارسی ترجمه کرده ام و با دقت در ترجمه ی مرحوم بسیم اتالای آن را تکمیل کردم. در آوانویسی لغات ترکی حرف **ə, x, q** را به سیستم ترانسکریپسیون داخل ساختم و بعضی اشتباهات مترجمان پیشین را اصلاح کردم و برخی نوآوری ها در جهان دیوان لغات شناسی ایجاد کردم. در مقاله ی حاضر این ترجمه با استفاده از گفتار آقای دکتر اسرافیل باباجان در ارزیابی آن به کوتاهی معرفی شده است.

کلمات کلیدی: دیوان لغات التړک- ترجمه ی فارسی - تغییر سیستم آوایی - اصلاح اشتباهات مترجمان - دکتر باباجان.

ÖNSÖZ

Divanu lugat-it – Türk, genel Türk Dillerinin toplu sözlüğü olarak 1072- 1074 yılları arasında Şeyh Mahmud Kaşğari tarafından, İslam dünyasınd Arapça okuya bilenler için Türkçeyi öğretme maksadı ile yazılmıştır.

İslam dininin küresel mahiyeti olduğu için bu kitap Türkçeye aslında küresel önem vermiştir.

Divan sözü burada “toplulu mecmua” anlamındadır. Bu toplulu sözlük Türk yazı dili, lehceleri, diyalektleri ve ağızlarının dil özellikleri ve luğat varlıkları, halk bilimi, folkloru, mitolojisini, deyimler ve atasözlerini, düzyazı ve şiir örnekleri, özel adlar tarihi bilgiler vs. hakkında genel malumat vermektetir. Kitap türk kültürünün en eski ve önemli hazinelerinden ve küresel bakımından yegane hazinesi sayılmaktadır. O şu kitapla bütün İslam alemine Türkçenin Arapça kadar zengin bir dil olmasını kanıtlamaktadır.

Luğat sözcüğü burada “diller” anlamındadır. Kaşğarlı aslında Türk dilleri ve lehcelerinin sözlüğünü yazmıştır, ve döneminde yaşayan Türk dillerini bir bütün olarak ele almış ve müslümanlara öğretmeğe çaba göstermiştir.

İşbu kitabın evrensel öneminden birisi dünyanın verdiği ilk haritasıdır.

Dünya dilbilim tarihi içindeki yeri bakımından da küresel ölçekteki ehemiyet ve önemli olan şu yapıtın özelliği göz önündedir.

eserde yerleşen şiirler ve menzumeler romantik ve lirizm mahiyeti, epik ve kahramanlık içerikli hece ölçülerile yanaşı aruz ölçüleri ile de yazılan şiirler arasında toplanmıştır. aruz ölçüsü ile yazılan şiirlerden örnek:

*Bəgim özin oğurladı
Yaraq bilip uğurladı
Uluğ tangri ağırladı
Anın kül qıv toz tağdı*

Veya:

*Məndə bunlar sewinç ot, kadğu atar
Karşı körüp sağdıçan uçmaq atar.*

Hence ölçüsüne örnekler:

*Bunlar mini öles köz,
Kara mengiz kızıl yüz,
Andın tamar tükel tüz,*

Bulnap yana ol kaçar.

Veya:

*Tünle bile bastımız,
Təmgmə yanaq bustımız.
Kəsmələrin kəstimiz.*

Mingləqərin bıçtımız.

Türkçe ve Arabçanın önemi

Karahanlılar döneminde Türkler evrenin en öncül kültürü olan İslam kültürüne sahip çıktılar. Karahanlılar İslam medeni eserlerini icad eden ilk büyük Türk sülalelerinden sayılmaktadırlar.

Onlar şairler, bilgiler ve alimleri kendilerine sarı çekir ve Arapçaya önem veriyorlardır. İslam alimlerini kendi himayelerine alıyorlardır. İşbu nedenlere göre

Arapça hemde kutsal dil olarak önem buldu. Örneğin: Tarhan oğlu Farabi, Türk olduğuna rağmen evrensel yapıtlarını Arapça yazdı. Mukaddimet- ul Adab ve Tefisül Keşşaf sahibi Carollah Zamahşeri ve Elmillel ven - Nihal kitabını yazan şehri tanilde Türk olmuşlar.

Türklerin, ordusal sayıqlıkları ve anti İslam çıkış ve kıyımları darmadğın etmede gösterdikleri yetkiler İslam aleminde Türkçe öğrenme önemi buldu.

Kaşğari İslam aleminde ve müslümanların işbu ihtiyacına yanıt olarak Divanı Arapça yazmaya gayret gösterdi. O, bir nebevi hadise de işare ediyor:

تَعَلَّمُوا لِسَانَ التُّرْكِ فَإِنَّ لَهُمْ

Ve Türklerin ölkeleride güneşin butmaması ve oğuz Türklerinin bulaunmalarının mübarekliğine işaret edir. (DLT (2021) 74)

Ben Divan ile üniversite yıllarında, 1960larda merhum *Abdüssamed Emir-i Şakaki* vasıtasıyla tanıştım. Hatta bu zatın Divan'a dayanan büyük bir lügat de yazdığını ancak bu eserin basılmadan varisleri elinde kaybolduğunu biliyorum. Yıllar sonra ise kendim Farsçaya çevirmeye başladım.

Doç. Dr. İ. Babacan tercümem ile ilgili diyor:

Mütercim Farsça çeviride ilk dikkat ettiği noktanın Farsça cümlelerin yapısı olduğunu söyler. Buna göre çevirinin akıcı ve sade olmasına çok gayret etmiştir.

Ayrıca çalışmasının karışık, şüpheli, intihale dayanan ve kullanımı zor olmamasına çalışmıştır. Sadik, şifahi ya da yazılı kaynaklardan yararlandığı her noktayı dipnotlarda göstermiştir. Eserinin Farsça bilenler için kolayca okunan, akıcı ve kullanıma uygun olması da Sadik'in dikkat ettiği noktalardan biridir. Mütercime göre hemen her dilde yapılan Divan çevirilerinde, seslerin yazımında eksiklik ya da yanlışlıklar vardır. Kendisi bu hatalara düşmemeye çalışarak Arap harfleriyle yazılan Türkçe kelimelerin, Latin harfleriyle okunuşunu ayrıntılı bir şekilde göstermiştir. (Hüseyin M. Sadik (2001) 64)

Mütercim her madde başında bulunan *يُقَالُ* "yukalu" tabirini çıkarmıştır. Böylece Arapça anlamı verilen Türkçe kelimeler doğrudan madde başı olmuştur. Kelimelerin yanına okunuşları Latin harfleriyle yazılmıştır. Yazar Arapça açıklamaları aynen çevirdiğini söylemektedir. Varsa verilen örnekler de çevrilmiştir. Fiiller bölümünde, ele alınan her filin, muzi ve mastar şekillerinin okunuşu da Latin harfleriyle parantez içinde gösterilmiştir. (H. M.Saddik (2001) 65) Sadik, atasözleri. Deyimler ve şiirleri, geniş ve edebî bir şekilde çevirmeden önce, birebir çevirilerini verdiğini, varsa kaşgarlı'nın Arapça açıklamalarına. "onun açıklaması (tavzih- i an ki) başlığıyla işaret ettiğini söylemektedir. Mütercim ayrıca, kaşgarlı'nın çevirilerini şerh şeklinde de olsa birebir de olsa aynen aktarmıştır. Sadik, pek çok mütercimlerin şüpheli yerlerde Atalay'ın çevirisini esas aldıklarını söyler. Kendisi ise, daha iyi çevirdiğini düşündüğü yerlerde kendi tercümesini tercih etmiştir. Tartışmalı noktalarıysa II. Cilde bırakmıştır. Ona göre aslında madde başlarına kolayca ulaşmak için ayrıntılı bir dizine ihtiyaç vardır. Ancak O, şüpheli bütün okunuşları ve çalışmasına yazılacak eleştirileri göz önüne aldıktan sonra bir dizin oluşturma düşüncesindedir.

Kitap için hazırlanan dizin ise bir yıl sonra ve 2022 yılında Tabrizde yayımlandı. Dizinin önsözünde yazdım:

Biz burada Farsça çevirimizden yararlanan araştırmacıları sözcükleri kolayca bulmalarına yardım olsun diye, şu dizini yayımlıyoruz. Dizde, yalnız maddebaşı sözcükler, çevirimizdeki sayfa numarası ve gittiği gibi verilmiştir. Şu dizinde kaç anlamlı sözcükleri, anlamlarına göre tekrara ettik. Örneğin *təkə* sözcüğü çevirimizin 536. sayfasında iki kere açıklanmıştır. Buna göre de dizinde iki kere verilir.

Bazı sözcükler ise kaç yerde tekrar olunmuştur. Örneğin *Ökünç* sözcüğü bir defa 137. ve ikinci kere 622. Sayfada getirilmiştir. Şu dizinde de iki defa ve ayrı – ayrı verilir.

Dizinin son hazırlanma zamanı, bilgisayarımız çevirimizde 6813 maddebaşı sayı bilmiştir.

Çevriyazıda, kitabımızın 64. sayfasında açıkladığımız ses yazım sistemini kullandık. Kitaba ata sözleri, şiirler, özel adlar, terminler vs. dizinler de gerekiyor. Bunların da hazırlanmasını umuyoruz.

Şu dizinin tekniği işlerini öğrencin Behnam *SELİMİ HİZRİ* ve oğlum Settar *MUHAMMEDZADE SADİK* boyunlarına almışlar ve başarı kazanmışlardır.(Settar *MUHAMMEDZADESADIK*, 2005)

O, bir daha yazır: Sadık, bir şekilde haberdar olduğu ancak görmediği kaynakları mutlaka belirtir. Mesela 1997 – 1998 yıllarında, Divan’ın Kazak Türkçesi’ne çevrildiğini duyduğunu ancak kendisinin bu çeviriyi görmediğini söyler. (H.M.Sadik (2001, 19) Tespit ve yargılarını çok sağlam akademik kaynaklara dayandıran Sadik, yer yer güvenilir şifahi kaynaklardan faydalanmayı da ihmal etmemiştir. Ancak bu bilgileri kendine mal etmeyecek kadar da dürüstür. Mesela rahmetli Muharrem Ergin’in Hakaniye Türkçesi’nin o devirdeke seçkin tabakanın şivesi olduğunu söylediği ve bunun Ergin tarafından kendilerine 1359/1980 yılında şifahen aktarıldığını belirtir. (H.M.SADIK 2001, 45) Sadik çalışmasında, yer yer İran’ın sosyo- kültürel ve tarihi yapısı hakkında ilginç değerlendirmelerde bulunur. Sadık’in bu değerlendirmelerine örnek vermek gerekirse: “... *günümüzde de, bu doğrultuda, Fars dili ilerlemekte olup çok az sayıda Tat (Acem) köyleri ve kasabaları ile Afgan kökenliler dışında özellikle büyük şehirlerde Farsça konuşan insanların büyük çoğunluğunun, aslında Oğuz Türkleri’nin teşkil ettiği iddia edilebilir. Bunlar Farsça’yı kendilerine has hoş bir lehçeyle konuşarak ilerletirler. İşte Divan, Farsça ve Türkçe’nin asırlar süren karşılıklı alışverişi konusunda da oldukça büyük bir öneme sahiptir. Özellikle Türkçe’den Farsça’ya geçen kelimeleri takip hususunda zengin bir kaynaktır. Örneğin”* (H.M.SADIK 2000, 54)

Son olarak mütercim, Hakaniye Türkçesi, Buhara Arapçesi ve çağdaş Farsça bilgisine sahip her araştırmacıdan eleştiri beklediğini söyleyerek adeta böyle bir çalışmayı hakkıyla değerlendirmenin asgarı şartlarını ortaya koymuştur.¹

¹ Hüseyin M. Sadik, a.g.e., s. 67. Bizim bu asgarı şartlardan yalnızca ikisine sahip olmakla bir değerlendirme yazısı kaleme almamız elbette biraz cahil cesarettir (İ. B.).

Beim Kaşgarlı ve eseri hakkındaki tespit ve değerlendirmelerimi genel olarak iki grupta toplayabiliriz. 1. Dıvan ve onun kültürel arka planı üzerine tespit ve değerlendirmeler, 2. Dıvan üzerine yapılan çalışmalarla ilgili tespit ve değerlendirmeler. İlk önce “dıvan” kelimesini anlatmalıyım, Kaşgarlı, eserinin tasnifi, telifi, tercümesi ve hazırlanmasında, kamustan öte bir yol tuttuğundan, onu “Dıvan” olarak adlandırmış olmalıdır. Sadik’e göre divan kelimesi Türkçe kökenlidir. Arapça’da ve Farsça’nın farklı lehçelerinde Türkçe’den alınarak değişik söyleyişlerle telaffuz edilir. Bu kelimenin kökeni “tipmək” mastarından gelir. Bu mastar “bir araya gelmek, bir araya getirmek “anlamındadır” (H.M.SADIK, 2001, 35) O, eserin yazılış nedenlerine de geniş bir perspektiften bakar. Ona göre kaşgarlı’nın döneminde yani Abbasi hilafeti devrinde Dıvanü Lügat-it – Türk gibi bir eserin yazılmasını, Türklerin İslam dünyasındaki kültürel ve askeri hizmetleri sağlamıştır. Örneğin İran’da Acemler tarafından çıkarılan *Hasan Sabbah* ve *El-Muhanna* isyanlarının bastırılmasında Türkler büyük bir rol oynamışlar. Böylece Bağdat ve İslam dünyasının diğer siyasi merkezlerinin Türklere ihtiyacı kat kat artmıştır. Bundan sonra Sadik şöyle devam eder: “*kaşgarlı, söz konusu sebeplerden Arap dilli toplumlara, Arapça’nın gramer ve kelime yapısına dayanarak Türkçe’yi daha kolay öğretmek için eserini kaleme almıştır. Yani o dönemde asır artık Türk asırdır. Türkçe’yi öğrenmek İslam dünyasının zaruretleri arasına girmiştir. Kaşgarlı eserinde, okuyucuya Türkçe öğretmenin de ötesinde onu, Türklerin tarihi, kültürü ve edebiyatıyla aşına kılmaya çalışır*” (H.M.SADIK 2001, 33).

Bence O, Dıvan’ı, ansiklopedi karakterine bürünmüş özel kelimeleri bir araya getiren bir lügat kitabıdır. Bu kitap, lügat kitapları ve kelime araştırmaları yapan eserler arasında, “bilgi aktarımı yönü ön plana çıkan” bir eserdir. Dolayısıyla ansiklopediye daha yakındır. Yani o, araştırmacı ve eleştirel bir eserdir. Dıvan, genişletilmiş lügat kitabı olmanın yanında, edebiyat araştırmalarına dayanan dilbilim, edebî türler, folklor, tatbiki edebiyat, mitoloji, coğrafya ve tarih kitabı da sayılır. (H.M.SADIK, 2001, 34)

Bence Dıvanü Lügat-it Türk’ün yazıldığı dönemde, Türkçe’nin kelime hazinesinin Farsça’dan fazla olduğudur. Kaşgarlı eserine terkedilmiş, başka dillerden gelmiş veya yeni kullanılan kelimeleri dahil etmediğini söylediğine göre, o dönemde Türkçe resmi, ilmi ve edebi bir dil olarak on bine yakın kelime hazinesine sahipti. Eğer İslam dini sebebiyle Arapça ve Farsça’dan Türkçe’ye giren tabirleri de buna eklersek, bu hazine daha da artacaktır. Bu öyle bir durumdur ki o dönemde Soğd, Pehlevi ve Deri gibi daha sonra Farsça’ya dönüşen Türkçe’ye komşu diller ve lehçeler, üç bine yakın bir kelime hazinesine sahipti. Örneğin Esed-i Tusi’nin Lügat-i Furs’ünde ve Hinduşah-ı Nahçevanı’nin lügatinde ya da benzeri eserlerde¹ yer alan kelimelerin sayısı üç bini geçmeyip ve çok azı Farsça kökenlidir (H.M.SADIK. 2001. 47). Bazı araştırmacılar, Dıvan içinde “ajun”

¹ Söz konusu lügatler hakkında geniş bilgi için bakınız: Yusuf Öz, “*Tarih Boyunca Farsça – Türkçe Sözlükler*”, Yayınlanmamış Kodtora Tezi, AÜSBE, Ankara 1996.

(dünya) gibi Soğdca'dan ve "Körküm" (safran) gibi Hintçe'den gelerek Türkçeleşmiş kelimeler de olduğunu iddia ediyorsada (Nihad sami, 1987, 253) bu ispatlanmış bir durum değildir. Ayrıca başka dillerden Divana geçen kelime sayısının dikkate alınmayacak kadar istisnai bir durum olduğu bütün ciddi araştırmacılarca vurgulanmıştır. (Ercilasun 2001, 778).

Bütün insanlara eşit gözle bakan Kaşgarlı'ya karşın Firdevsî, soyluluğu ve kavmiyetçiliği ön planda tutar. Bu konuda şöyle der:

"Kaşgarlı, "tat" kelimesini Türk'lerin dışındakiler için kullanıyor. Ancak manası sadece Acem ve Fars değildir. Tat tabirinin onun nazarında yabancı ve bigane gibi anlamlara geldiğini vurgulamam gerekir. Bu yüzden Uygurlar bazen gayr-ı Müslimleri de tat olarak adlandırıyorlar ki inanç ve düşüncede müslümanın zıttı demektir. Kaşgarlı'nın farklı kavimlere ve milletlere bakışta, hiçbir kavmi ya da milleti dil ve ırk farklılığından dolayı kötülemediğini söylemeliyim. O, her ne kadar soyu ve atalarıyla övünüyorsa da, bütün insanları eşit derecede severek hepsine hizmet arzusunda olduğunu belirtiyordu. Gerçekte eserini yazmaktaki amacı, Müslümanlara mukaddes Arapça yardımıyla yine mukaddes bir İslam dili olan Türkçe'yi öğretmekti. Kendisi bunu eserinin önsözünde belirtmiştir.

Millet anlayışına bu tür bir bakış, insanlık tarihi için oldukça önemlidir. Bazı kavimlerin ve milletlerin kültürel kahramanları, böyle ulvi bir bakış açısına sahip değildir. Örneğin Firdevsî'yi göz önüne alırsak, çok dar bir bakış açısıyla devrin padişahını soylu almadığı için yermektedir. Buna dayanarak onu kötülemek suretiyle şöyle de:

*Eger şahra şah budı peder
Be-ser mı-nihadi mera tac-ı ser
Eger madereş şah banu budı
Mera sım ü zer ta be-zanu budı¹
Arapları da küçümseyerek şöyle der:
Ez-şır-i şütrü horden u susmar
Arabra be-cayı reside-est kar
Ki tac-ı Keyanı koned arzu
Tafü ber-tu ey çarh-ı gerdan tofu²*

Ancak Kaşgarlı müsbet milli şuru yanında, yüne bir dini gurura sahiptir. Milletine İslam'a hizmet ölçüsünde değer vermektedir. Fazilet, takva ve mertliği ırkla değişmemektedir. Hatta kitabını kendi milletinin dili dışında bir dille kaleme almıştır. Eserini yazarken efsanevi kahramanları söz konusu ederek caize almaktansa, incelediği ülkeleri adım - adım dolaşarak gerçekçi tespitlerde bulunmayı tercih etmiştir. O, karşılaştığı indanlardan şifahi irfan toplamak peşindedir, birileri (!) gibi para peşinde değil..."³ (H.M.SADIK. 2001,61)

¹ Eğer şahın babası şah olsaydı, başıma tac koyardı. Annesi de şah karısı olsaydı, dizlerime kadar beni altın ve gümüşe batırırdı.

² Deve sütü içip sürüngen yemekle Arap'ın talihi bir yere ulaştı ki o şimdi saltanat sahibi olmak istiyor. Tüküreyim sana dönem felek tüküreyim sana!

³ Hüseyin M. Sadık, a.g.e., s. 61.

İ. Babacan diyor: Sanırız Sadik'i, bu tercümeyi hazırlarken en fazla üzen konu, İranlı araştırmacı Debır-i Siyaki'nin 1996 yılında Dıvvan hakkında yaptığı eksik ve gayr-ı ilmi çalışmadır. Buna göre mezkur akademisyenin tercümesi, Arapça metnin kaidelerine uyulmaksızın karışık ve akıcılıktan uzaktır. Kelimelerin ses özelliklerine riayetsizlik, bazı maddelerin atlanması, örneklerin yazılmaması ve Farsça karşılıklarda uyumsuzluk gibi nedenlerle çalışma, Farsça bilenler için dahi kullanılmaz bir haldedir. Sadik söz konusu çalışmanın bunun da ötesinde tutarsızlıklar taşıdığına dikkat çekerek şöyle der: *“Bunun da ötesinde bilimsel araştırma metotlarına uyulmamış, güya kavmiyetçilik adına “çocukça inatlar” peşinde koşulmuştur. Örneğin bugün İran halkının önemli bir bölümünün dili olan Azerbaycan Türkçesi'nin “zorla benimsetildiği” iftirasında bulunmuştur”* (H.M.SADIK (2001) s.22). Başka bir örnek vermek gerekirse, Kaşgarl'nın kabri üzerindeki Arap harfli Uygur Türkçesi metinlerine *“Uygur Farsçası”* diyen Siyaki'nin bu ifadelerini Sadik şöyle değerlendirir: *“Şiirler, Uygur Türkçesi hattı ve diliyledir, Uygur Farsçasıyla değil. İnsanlık tarihi Uygur Farsçası adıyla, bir dil ya da yazı türü vücuda getirmiş değildir. Türkçe yerine Farsça lafzının getirilmesi eğer matbaa hatası değilse, avamı kandırıcı köylü kurnazlığı ve çocukça huyla otraya konan bir düşmanlık olmalıdır”* (H.M.SADIK. 2001, s. 29)

Кайнакча

1. A. B. Ercilasun (2002) İlk Müslüman devletlerinde Dil ve Edebiyat, Türkler, c.v. , Ankara.
2. HMS. (2001). Hüseyin M. Sadik. Divanü Luğat-it Türkün Farsca çevirisi: Tabriz
3. Nihad Sami Banarlı, “Resimli Türk Edebiyatı Tarihi”, C. İstanbul 1987, s. 253.
4. Settar Muhammedzade Sadik, “Dizin”. Tabriz, 2005.

«ДЕВОНУ ЛУГАТИТ-ТУРК»КА ОИД АЙРИМ МУЛОҶАЗАЛАР

Тўхлиев Боқижон,

филология фанлари доктори, профессор
Тошкент давлат шарқишунослик университети

Аннотация. Мақолада Маҳмуд Кошгарий ва унинг “Девону луғот ит-турк” асари ҳақида сўз боради. Унда машҳур асарнинг янги нашрлари ҳақида ҳам қайдлар мавжуд. Ўн биринчи аср ёдгорлигининг ҳозирги тилишга таъсири, ундаги сўз бойлигининг ўрни ва аҳамияти, айрим сўзларнинг маъноси ва этимологиясини аниқлашдаги имконлари борасида мулоҳазалар билдирилган. Асар матни, уларнинг ўрғайлиши ва ҳозирги ҳолати, бундан кейинги қилиниши лойм бўлган ишлар ҳақидаги мулоҳазалар билдирилган.

Таянч сўз ва иборалар: Маҳмуд Кошгарий, «Девону луғот ит-турк», сўз, матн, мақол, таржима, табдил, нашр.

Özet. Makale Kaşgarlı Mahmud ve onun "Devonu lug'at it-turk" adlı eserini ele almaktadır. Aynı zamanda ünlü eserin yeni baskıları hakkında notlar içerir. On birinci yüzyıl anıtının modern dil üzerindeki etkisi, kelime hazinesinin rolü ve önemi, bazı kelimelerin anlam ve etimolojisini belirleme olasılığı tartışılmaktadır. Eserin metni, etüdü ve mevcut durumu, bundan sonra yapılması gereken işler hakkında yorumlar.

Anahtar kelimeler: Kaşgarlı Mahmud, "Devonu lug'ot it-turk", kelime, metin, atasözü, tercüme, tefsir, yayın.

Abstract. The article deals with Mahmud Kashgari and his work "Divan lugat at-turk". Some considerations are presented about the influence of the eleventh century monument on the modern literary language, about its richness and meaning, as well as its role in clarifying and etymology of some words of the modern literary language. It also contains some comments on the new editions of this famous work. Expressed reasoning regarding the problems of the text, their current situation and further studies

Keywords and expressions: Mahmud Kashgari, "Divan lugat at-Turk", word, text, proverb, translation, arrangement, publication.

Кириш ўрнида

“Маҳмуд Кошғарий Ўрта Осиё ҳақида араб тилида ижод қилган муаллифлар орасида китобий манбаларга қараб эмас, балки ўзининг шахсий танишуви асосида асар ёзган деярли яккаю ягона муаллифдир”

Академик В.В.Бартольд

Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғот ит-турк” асари туркийшунослик тарихидаги энг муҳташам ва нодир манба сифатида жуда катта назарий ва амалий аҳамиятга эга. У туркий халқларнинг тарихи, маданияти, фани ва адабий-эстетик қарашларининг ўзига хос бебаҳо обидасидир. Унда кўплаб фанлар учун асқотадиган нодир факт ва материаллар жамланган. Жумладан, минералогия, кимё, ботаника, география, биология, зоология, тарих, адабиёт, санъат, этнографияга доир тушунча ва атамалар тизимини эсга олиш мумкин. Шунинг учун ҳам ундаги илмий ёки адабий матнларни, уларнинг ҳар бир товушини аниқ тасаввур қилиш, ҳар бир ҳарфини, сўзини, жумласини тўғри ўқиш ва талқин қилиш жуда катта назарий ва амалий аҳамиятга эгадир. Мазкур мақолада шу борадаги айрим мулоҳазалар билдирилади.

Биз “Девону луғот ит-турк”нинг топилиш ва ўрганилиш тарихи ҳақида тўхтаб ўтирмаймиз. Бу алоҳида мавзу. Мақоланинг мақсад ва вазифасини, шунингдек, ҳажмнинг нисбий чегарасини сақлаш учун энг муҳим нукталарга тўхташга ҳаракат қиламиз. Албатта, зарур ҳолатларда тарихий экскурслар ҳам истисно тариқасида ишимиздан ўрин олади. Шунга кўра, биз кўпроқ аналитик ҳамда тарихий-қиёсий методларга таянишга уринамиз.

Мақоланинг ёзилиш сабаблари

“Девону луғот ит-турк”нинг ўзбек олимлари томонидан илк нашри амалга ошган пайтда биз эндигина биринчи синфга қатнай бошлаган эканмиз. Табиийки, ўша нашр билан биз анча кейин, талабалик пайтимизда танишдик. Бу ўтган асрнинг етмишинчи йилларига тўғри келади. Ушбу китоб

билан қизиқишимизни ўша пайтда устозларимиз: Ҳамиджон Мамадов, Аҳмаджон Каримов, Ваҳоб Раҳмоновлар уйғотишган эди.

Кейинроқ, тақдир тақазоси ва устоз Ёқубжон Исҳоқов тавсияси билан Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг» асари поэтикаси муаммоси устида шуғуллана бошладим. Шунда Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғот ит-турк” асарининг нечоғли муҳим ва зарурий манба эканини чуқурроқ ҳис этдим. Ушбу китобни ўзбек китобхони учун деярли бир умрлик меҳнати самараси сифатида ҳозирлаган Солиҳ Муталлибов домланинг заҳматларини кўз олимга келтиришга ҳаракат қилдим. Бу бежиз эмас, ахир, мазкур китоб саҳифаларига қайта-қайта мурожаат этишга тўғри келарди. Улар билан боғлиқ ҳолда кўплаб савол ва мулоҳазалар ҳам ана ўша пайтдан бошлаб пайдо бўла бошлади.

Турк олимларининг тадқиқотлари билан танишганимдан кейин унинг тарихи ва нашрлари ҳақидаги тасаввурларимиз бойиб борди.

Сўнгги йилларда бу асарни ўрганишга жаҳон ҳамжамиятида янада катта қизиқиш сезила бошлади. Ушбу жараёндан Ўзбекистон ҳам четда қолгани йўқ. Академик Алибек Рустамов, профессорлар Қосимжон Содиков, Ҳамидулла Болтабоевларнинг сайъи ҳаракатлари билан мазкур нодир манбанинг бирданига бир неча янги нашрлари юзага келди. Дастлаб, Алибек Рустамов китобнинг рус тилидаги нашрини амалга оширди. Китоб Москвада дунё юзини кўрди. Эътироф этиш керак, бу чинакам илмий жасорат бўлди. Ушбу тадқиқот нашрга тайёрланаётган пайтда академик А.Н.Кононов матннинг араб тилидан қилинган таржимаси аслият билан нечоғли адекватлигини ўрганиш заруратини қайд этар экан, ушбу муаммони ҳал қилиш вазифасини икки йирик олим: таниқли шарқшунос И.В.Кормушин ва Е.А.Поцелуевскийларга топширади. Улар “А.Р.Рустамовнинг таржималари Р.Данков ва Дж.Келлилар(нинг инглиз тилига – Б.Т.) таржимасидан паст эмас, ҳатто мувофиқ равишда Босим Аталай ҳамда Солиҳ Муталлибовлар таржимасига, шунингдек, уларга таянадиган қадимги туркий тил (“Древнетюрский словарь”)га қараганда аниқроқ” бўлганини қайд этишади” [2.17-18].

2016 йилда академик Алибек Рустамов, у кишининг ёнида профессор Ҳамидулла Болтабоев бир нашрни, қадимги обидаларимизнинг забардаст тадқиқотчиларидан бири Қосимжон Содиковнинг ўзи эса яна бир ажойиб ишни амалга оширишди. Тўғри, бу китобларнинг иккиси ҳам тўлалигича Солиҳ Муталлибов домла тайёрлаган нашрга таянган. Алоҳида таъкидлаш жоизки, китоб шундайгина олиб, олдин қандай бўлса, шундайлигича қайта чоп этиб қўя қолинган эмас. Матн устида анча узоқ ва жиддий ишлар олиб борилган. Кўплаб тузатишлар, тўлдиришлар, қиёс, изоҳ ва шарҳлар юзага келган. Ана шундай оғир ва заҳматли меҳнат натижасида “Девону луғот ит-турк”нинг анчайин такомиллашган вариантлари юзага келган.

“Девону луғот ит-турк” қадимият билан алоқадор бўлган кўплаб тушунча ва сўзларнинг комусий луғати. Маълумки, олам ва одамга алоқадор

бўлган истиоравий ифодаларнинг аксарияти қадимият билан бевосита алоқадор. Уларнинг анча катта қисми мазкур асарда жамланган. Албатта, кўпчилик инсон, одам, киши сингари сўзларнинг ўзини ҳам, уларнинг маъноларини ҳам яхши билишади. Буларнинг ёнида “йалнгуқ” деган сўз ҳам бор. Ўн биринчи асрда мавжуд бўлган ушбу сўз юқорида келтирилган синонимик қаторни тўлдириб туради. “Киши” номининг бу шакли анча қадимда шаклланган. Биз уни Ўрхун-Энасой обидаларига алоқадор бўлган матнлардаёқ учрата бошлаймиз. Бундай мисолларнинг кўплиги Маҳмуд Кошғарий асарининг қадру қимматини ниҳоятда оширади.

Асосий қисм:

Биологияда тур ва жинсларни фарқлаш учун икки сўзнинг ўзаро кўшилиши, яъни сўз бирикмасидан фойдаланиш аънанаси мавжуд. Мана шу қонуниятнинг ҳам туркий филологияда Маҳмуд Қошғарий томонидан ўн биринчи аср шароитида қайд этилиши (аниқроғи, кашф қилиниши) характерлидир. Бу ҳақда ДЛТда ўқиймиз: “эруқ” – “шафтоли, ўрик, олхўри меваларининг умумий номи; улар бирор сифат билан бир-бирларидан фарқ қиладилар.

“тўлўт эруқ – шафтоли.

сарїғ эруқ – ўрик.

қара эруқ – олхўри”. (1, 99)

Ушбу ҳодиса қуш номларини белгилашда ҳам амал қилади:

“қ у ш – қуш. Жамликни билдирадиган турдош от. Кейин буларни бири-бирдан фарқлашда айрим сўзлар кўшилади:

Оруң қуш – оқ лочин,

Қара қуш – бургут,

Тэwэј қуш – туя қуш,

Јун қуш – товус

эј қуш – ил қуш, қирғий.

Сўнгра Муштарий юлдузига ҳам “қара қуш” дейилади. [6.319]”.

Айни пайтда ушбу туркумдаги сўзларнинг кўпчилиги рамз даражасига кўтарилган қадимий мифологик образларнинг ўзига хос ифодаси ҳамдир.

Сўз бирикмаси англандан маъно остида муайян тушунча, нарса ва ҳодисалар турганини назарга олсак, мазкур шаклларнинг ўша ҳодисаларнинг истиоравий ифодаси сифатида қабул қилиш мумкин. Биз яна “одам” тушунчасига оид бир истиорани келтириш билан кифояланамиз: *اذرى* аэри – айри; буғдой совуриш учун қўлландиган асбоб. Икки шохлик ҳар бир нарсани ҳам аэри дейилади. Бу сўз одамларга ҳам қўлланади. Аэри бутлуғ – айри бутли [одам]. [6.146].

Сўзларнинг кўчма маънода қўлланиши боболаримиз тилида анча кенг ва фаол истеъмолда бўлган. Бу ҳодиса моҳияти ҳам “Девон” материаллари воситасида осон илғаб олинади: Тіріг эсән болса таң өкүш көрүр. – Одам эсон (соғ) бўлса, қизик нарсаларни кўп кўради. Назаримизда матннинг ўзбек тилидағни табдили “Тирик [Одам] эсон (соғ) бўлса, қизик [ёки ҳайратли

нарсаларни] кўп кўради” тарзида берилганида асосий матндаги шакл ҳам сақланган, ўзгариш эса жуда аниқ ва очик кўзга ташланган бўлар эди. Бу ерда айнан катта қавсга олинган сўзлар матнда ифодаланган эмас. Улар ўзидан олин турган сўзнинг кўчма маънода кўлланиши туфайли англашилади, холос. Қолаверса, мақолдаги қисқалик, ихчамлик ва кўчма маънони ифодалаш имкони ҳам шуни тақазо этади.

Маҳмуд Қошғарий том маъноси билан йирик тилшунос ва адабиётшунос ҳам бўлган. Бу нарса луғат мақолаларининг тузилишидан бошлаб, унинг таркибини шакллантиришгача, мисол ва материалларни тўплашдан бошлаб, улардан фойдаланишгача бўлган жараёнда ўз аксини топган. У туркий халқлар яшайдиган деярли барча ўлкаларни кезиб чиққан, улар ҳақидаги мавжуд материаллар билан танишиб чиққан, уларнинг тили, шева ва лаҳжаларига оид энг нодир факт ва материалларни сабот ва матонат билан тўплаган ва нозик билимдондик билан таҳлил қилган. Шу тарзда асарда ўша давр фольклорига оид бебаҳо дурдоналар ҳам тўпланган. Мақол ва маталлар, топишмоқ, афсона ва ривоятлар, лирик кўшиқлар йирик эпик асарлар ва дoston намуналари жамланган.

ДЛТ материаллари кўплаб қадимий сўзларимизнинг келиб чиқиш тарихини – этимологиясини аниқлаш учун ҳам муеосиб манба ва очқич вазифасини адо этади. Биргина мисол: аёллар бисотида кўпроқ истеъмолда бўлган “упа-элик” жуфт сўзи мавжуд. ЎТИЛда у “пардоз учун ишлатиладиган упа, ёғупа, сурма ва ш.к.”нинг номи сифатида қайд этилган [7.292-бет].

Мазкур жуфт сўз таркибидаги иккинчи қисм ДЛТда ўз аксини топган. У “юз” маъносини англададиган “энг” сўздан ясалган “энглик” сўзи билан боғлиқ экан. Асарда бу ҳақда шундай қайд мавжуд: “эңлик – хотинлар юзларига суртадиган пушти қизил ранг, упа-элик. Демак, элик – энглик сўзининг товуш ўзгаришларига учраган шаклидир. Ундаги ўзгаришларни “энглик” (юзга, юз учун мўлжалланган) сўзидаги сонор товуш – (нг)нинг тушиб қолиши ёки ассимиляцияга учраши натижасида ҳосил бўлганини тасаввур этиш мумкин.

Жамият ҳар доим ўғриларга нисбатан жуда кескин ва адолатли муносабатларни билдириб келган. Туркий халқларда ҳам ўғрилик инсон шаънини ерга урадиган ҳолат ва ҳодиса сифатида баҳоланган ва ҳақли равишда ўғрига нисбатан салбий қараш шаклланган. Уларнинг ажратиб кўрсатилиши бежиз эмас. Жумладан, боқағу – бўқағу [6.417]. сўзи ҳам мана шу вазифани адо этган. Бу сўз билан ўғриларнинг бўйнига солинадиган сиртмоқ назарда тутилган. Демак, у мана шу тарзда сазойи қилинган, одамлар олдида шармандаси чиқарилган. Ҳар бир ҳодисанинг мустақил номга эга бўлиши эса тилнинг ўзига хос бойлиги саналиши турган гап.

Маҳмуд Қошғарий “Девону луғот ит-турк”да “алп” сўзининг изоҳи учун қадимий бир мақолни келтиради. Алп йағида, алчақ жағида (6.77). Мақолдаги охирги сўз араб ёзувида бошқачароқ кўрсатилган, унинг транскрипциясида эса бошқа шакл берилган.

Ушбу сўз “Қутадғу билиг” матнида ҳам бир неча ўринда учрайди. Улар “мунозара”, “баҳс”, “тортишув”, “ихтилофга бормоқ” маъноларини англатиб келган (11. ҚБ Индекс, 132-бет) ДЛТдани араб ёзувида келтирилган вариантыда эса (ج) “жим”, (غ) “ғайн”, (ي) “йой” ҳарфлари мавжуд. Битта ҳарф (“жим” – ج)нинг устига (ج) диакретик белгиси қўйилган. Шунга қарамай, (С.Муталлибов транскрипциясида “жағида”). Ваҳоланки, диакретик белги кўрсатмасига кўра у “жўғида” тарзида ўқилиши лозим бўлади.

Мана шу айирма кейинги ноширлар томонидан эътиборга олинган. Улар аслиятдаги шаклга диққат қаратиб, унинг “čogʻida” шаклини тиклашган (6.77; 5.31). Натижада мақолнинг тарихий шакли билан боғлиқ ҳақиқат (“Алп йағида, алчак жўғида” [билинади, маълум бўлади]) қарор топган.

Матндаги яна бир сўз эътиборга молик. Биз “алчак” сўзини назарда тумоқдамиз. Ушбу сўз “Қутадғу билиг” матнида ҳам бир неча ўринда учрайди. Улар “юмшоқ кўнгил”, “кенг феъл”, “хушфеъл”, “камтар” маъноларини англатиб келган (11.132-бет). Шунинг учун у Пайғамбар (с.а.с.) (10.21), мамлакат ҳукмдори Буғраҳон, (10.27), асардаги асосий қаҳрамонлардан бири – Ўгдулмиш, укув-идрок, (10.204), бек (10.228), донишманд киши (10.238), лашкарбоши (10.244), улуғ ҳожиб (10.261) ва бошқаларга нисбатан қўлланади.

(Ҳозирги ўзбек адабий тилида бу сўз маъносига кўра тамомила тескари қутбога ўтиб кетган: у ўзидаги ижобий маънони тўлиқ йўқотиб, фақат салбий (“ўтакетган разил, паст; ёвуз номард; хоин”) маъно англатадиган бўлиб қолган (7.120). Аммо “жўғи” сўзининг маъноси нимани англатади? Нима учун айнан “алчак” “жўғида” билиниши керак?

Солиҳ Муталлибов уни араб тилидан “Ботир душман билан тўқнашганда, ювош тиришишда синалади” деб ўтиради. Энди уни бошқа нашрлар билан қиёслаб кўрайлик:

| | | |
|---|--|--|
| Солиҳ Муталлибовда | Алибек Рустамов ва Ҳ.Болтабоевда | Қ.Содиқовда |
| Ботир душман билан тўқнашганда, ювош тиришишда синалади | Ботир душман билан тўқнашганда, олим баҳсда синалади | Ботир ёв билан тўқнашганда (олишганда), ювош тиришишда синалади |

Эътибор берилса, мақолнинг биринчи қисми учала нашрда ҳам бир-бирига яқин. Фақат Қ.Содиқовда форсча-тожикча “душман” ўрнига соф туркий бўлган “ёв” сўзи қўлланган ҳамда бир сўз – сифатдошнинг синоними ҳам эслаб ўтилган. Кейинги қисмдаги асосий тафовут А.Рустамовлар нашрида кўзга ташланади. У ерда “алчак” сўзи “олим” сўзи билан табдил қилинган. Ваҳоланки, у луғатларда, жумладан, ДЛТнинг ўзида ҳам “юмшоқ табиатли, ювош, нозик, заиф” [Индекс, 18; 1-126] тарзида берилган. Мазкур сўз “Қутадғу билиг”да ҳам асосан шу маънода фаол қўлланган. Муҳими, у бир ўринда “укуш”, яъни укув-идрок, зехннинг белгиси сифатида ҳам келади:

Қылынчы қары оғлан өзлүг уқуш
 Уқуш қайда болса аңар бар, йапуш.
 Кичиги сәвүглүг, қарысы амул,
 Өзи түзүн, алчак, көр, асғы өкүш.
 Заковат қарилардек иш тутувчи навқирон йигит кабидир,
 Заковат қаерда бўлса, (сен) унга бориб ёпиш. (Қа.к, 320-321)
 [Унинг] кичиги ёқимли, улуғи эса мулойим бўлади,
 Ўзи ростгўй, мард, кўргин, фойдаси кўп ” [тегадиган бўлади].

Солиҳ Муталлибов нашрида араб ёзувидаги матнларнинг тўғри берилгани ҳолда, унинг транскрипциясида жузъий айирмалар кўзга ташланади. Кейинги ҳар икки нашрда бундай ҳолатлар эътиборга олинган. Масалан, **اگر** – э г и р сўзи луғат мақоласининг бошида араб ёзувларидан кейин шу кўринишда берилган. Аммо келтирилган мисолда унинг “игир” кўриниши қайд этилган: “игир // ийир, қорин оғриғини даволаш учун қўлланадиган ўсимлик; бу сўз шу мақолда келган: “ёқир болса эр ёлмас – игир бўлса одам ўлмайд...” [6.87-88]. Ҳозирги нашрларнинг ҳар иккисиде ҳам бу хилма-хилликка барҳам берилган [4.36].

Буни бошқа бир мисол воситасида ҳам кузатиш мумкин. 1960 йил нашрида **اتغ** сўзи бир ўринда техник хато туфайли “отғ” шаклида ёзилган. С.Муталлибовнинг бу сўзни “ўтиғ” эмас, балки “атиғ” деб ўқигани матннинг табиблидан кўришиб турибди. У мазкур сўзнинг “миниладиган ҳайвон – “от” билан алоқадорлигини муносиб тарзда қайд этган [6.413], демак у техник хато оқибати, холос. Янги нашрларнинг ҳар иккисиде ҳам бу қусур бартараф этилган [4.294, 5.76].

Айрим матнларнинг ўзбек тилидаги табибли ишончли кўринмайди. Масалан, қуйидаги матнда «эзгу тутмоқ» ибораси қўлланган. Аммо унинг табибли нима учундир “яхшилиқ қилмоқ” тарзида берилган. Унинг “хурматламоқ”, “хурмат қилмоқ” маънолари ҳам бор эди:

Билгә эриг эзгү тутиб сөзін эшит,
 Эрдәмині өгрәнібән ішқа сура.

Илмли, ақлли одамларга яхшилиқ қилиб, сўзларини тингла.

Илмларини, хунарларини ўрганиб, амалга ошир [6. 403].

Шу маънони А.Рустамов ва Ҳ.Болтабоев нашрида алоҳида таъкидланган: “Илмли, ақлли одамларни хурмат қилиб, сўзларини тингла. Илмларини, хунарларини ўрганиб, амалга ошир” [4.287].

Халқнинг оғзида “Ўзингники узангини узади” деган мақол бор. эшитдим) У “Ўзингники ўзагига тепсанг кетмайди”, деган мақолни эслатди. Мақоллар китобида “Ўз боланг ўзагига тепсанг ҳам кетмас, Киши боласи майиз берсанг ҳам турмас” тарзидаги мақол мавжуд [8.277]. Хуллас, мақолнинг мазмуни ҳар ҳолда тушунарли бўлса-да, “ўзак” деган сўзнинг маъноси билан қизиқдим. ЎТИЛДа бу сўзга олти хил маъно берилган . Охирги маъно сифатида шундай изоҳни ўқиймиз: “Бирор нарсанинг энг муҳим, асосий

қисми; асос, моҳият” [9]. Яна “Девону луғот ит-турк”ка мурожаат қиламиз. Унда “өзак” деган сўзга оид “белнинг ички қисмидаги томир” деган маъно қайд этилган. [б.101]. Бу кўчма маънода кишининг яқинлари, қариндош-уруғларини англатади. Ҳозирги ўзбек тилида шу маънони нисбат ан тўлароқ сақлаб қолган бошқа бир мақол (“Ўзим” деган – ўзаксиз кетади”) ҳам мавжуд. “Бу билан фақат ўзинигина ўйлайдиган, ўз манфаатинигина кўзлайдиган, бошқалар тўғрисида ўлақолса қайғурмайдиган, худбин одам ўзаксиз – яъни томирсиз, ёр-дўст, таниш-билиш ортгирмай, “якка махов” бўлиб яшаб, шундайлигича оламдан ўтиб кетади”, дейилмоқчи” [9.397].

Мана шу охирги факт “Ўзингники узангини узади” мақолидаги “узангини” сўзи устида жиддийроқ ўйлаб кўришга ундаб туради. “Узангини” – “ўзагингни” вариантларида уларнинг бирортасини инкор этмаган ҳолда, устунликни кейингисига бериш маъқул туюлади. Зеро, энг камида “узанги”ни узишдан кўра, “ўзак”, яъни “томир”ни узишдаги мантиқ кучлироқ эканлиги жуда ёрқин тарзда кўриниб турибди. “Девону луғот ит-турк”да ушбу отдан ясалган феъл ҳам қайд этилган: “ө з ä к л ä д і – томирини кесди. Ол қојуғ ө з ä к л ä д і. – У кўйнинг асосий томирини кесди. Бу сўз бош томирга уриш маъносида ҳам кўлланади” [б.298]. Демак, ўз маъносидаги мазкур сўз шу тарзда “кучли зарба бериш” асосида кўчма маъно касб этиб боргани аёнлашади.

Энди бошқа бир мисолга эътибор қаратмоқчимиз.

Ўзбекча киши номларининг ранг-баранглиги ҳаммага яхши маълум. Уларнинг бир қисми ўзлашма сўзлар ҳисобига омалашганини ҳам эътироф этиш жоиз. Ушбу силсилада араб ва форс тилидан ўзлашган сўзларнинг салмоғи нисбатан каттароқ: Али, Баҳром, Вали, Дилоро, Жамила, Муҳаммад, Сулаймон, Ғани, Ҳабиба, Ҳотам... Ушбу силсилада Хумора деган ном ҳам мавжуд. Халқ дostonларида унинг турли бирикмалар ичида (Гулхумор, Зулхумор...) кўлланиши ҳам кенг тарқалган.

Шарқ оиласининг ўзига хос анъаналари ичида туғилган фарзандга ном кўйишга оид талаб ва тавсиялар ҳам жой олган. Улардан биттаси номнинг мақсадга муносиб ва мувофиқ бўлиши билан боғлиқ. Шу нуқтаи назардан ёндашиладиган бўлса, “Хумора” исми дабдурустдан ғалати тасаввур уйғотади. Зеро, унинг ўзаги – “хумор”нинг маъноси жуда ўзига хос. Ўзбек тилининг изоҳли луғатини варақлаб бунга ишонч ҳосил қилиш мумкин. Унда ўқиймиз: “Хумор ... (ичкиликдан) қарахтлик, бош оғриғи. 1. Одатланиш туфайли бирор нарсага бўлган чанқоқлик,; муштоқлик, зўр истак... 2. Бирор нарса учун эришувга, етишувга иштиёқи баланд, орзуманд, муштоқ”.

Энди бир ўйлаб кўрайлик. Сўзнинг шу маъносини билганларида “Хумор” ёки “Хумора” деган номлар кўйилармиди? Албатта, кўйилмас эди. Унда нега кўйилган ва ҳалигача бу исмларни кўйиш давом этиб келяпти. Назаримизда бунинг сабаби бошқачароқ бўлиши керак.

Бизга “халқ хотираси” деган тушунча ёрдам беради. Халқ, миллат тарихий ҳодисаларни, қадимий тасаввурларни ўз бисотида жуда авайлаб асраб

келади. Айрим урф-одатлар, расм-русумлар, анъаналар айнан мана шу вазифани адо этади. Номларда ҳам шундай хислат мавжуд. Шу нуқтаи назардан қараладиган бўлса, “хумора”нинг ҳам бошқачароқ маъно нозиклиги бўлиши керакка ўхшайди. Буни қарангки, мана шу тахмин ва фаразларимизни қадимий обидаларимиздан бир эмас, иккитаси тасдиқлаб турибди. Уларнинг бири Юсуф хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” (Қутлантирувчи, яъни саодатга етказувчи билим) достони, иккинчиси эса Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғот ит-турк” (“Туркий сўзлар девони”) асаридир. Уларнинг ҳар иккиси ҳам XI асрда яратилган.

Гап шундаки, Юсуф Хос Ҳожибда бу сўз “кумару” шаклида учрайди. У от сўз туркумига мансуб. Асарда бу сўз анча фаол (йигирма мартадан ориқроқ) қўлланган. Қизиқарлиси шундаки, асарда у персонажлардан бирининг номи сифатида ҳам намоён бўлади. У ёш йигит бўлиб, асардаги асосий қаҳрамонлардан бири – зоҳид Ўзгурмишнинг ходими образи ўрнида намоён бўлган. Туркиялик машҳур олим Р.Р.Арат бу сўзнинг изоҳида унинг маъносини “армуғон”, “мерос”, “васият”, “ўғит” деб кўрсатади (11.291).

Маҳмуд Кошғарийнинг “Девон”ида эса янада аниқроқ ва ишончлироқ кўрсатмага дуч келамиз. Мутафаккир мазкур сўзнинг XI асрда “хумару” шаклида мавжуд бўлганини кўрсатади ва унинг маъносини “эсдалик” сифатида белгилайди. Энди изоҳнинг давомини кузатамиз: “Катталардан бирор киши ўлса, унинг молидан бир нафис нарсани шоҳга тақдим этилади, ана шу нарса “хумару” дейилади. Ундан эсдалик демакдир. Сафарга кетаётган киши қариндош ва танишларига қолдираётган нарсаси ҳам хумару дейилади”. Изоҳнинг мана бу гап билан якунланиши ҳам бизнинг тахминларимизни яна бир марта тасдиқлайди: “Бу ном эркак ва аёлларнинг номи сифатида ҳам ишлатилади” (6.417-бет).

Мана “халқ хоираси”нинг бизнинг давримизгача етиб келган яна бир мўжизаси!

Демак, “Хумор”, “Хумора” деган исм эгаларига ном бўлган ушбу сўз, биринчидан, келиб чиқишига кўра арабий ёки форсий эмас, балки соф туркий сўз экан. Иккинчидан, унинг маъноси ичкилик ва унинг асорати билан алоқадор эмас, балки ота-оналар, бобо ва бувиларнинг, катта авлоднинг янги туғилган чақалоққа боғлаган орзу-уммидлари, шу авлод наслининг давомчиси, эзгу ва муқаддас тилакларга эш бўлишига оид умидларининг ўзига хос рамзи сифатида билдирган эзгу ниятлари билан боғлиқ бўлади.

Маҳмуд Кошғарий ва Юсуф Хос Ҳожибларнинг шарофати билан яна битта туркий сўзнинг ўз буржиги қайтгани ҳаммамизга муборак бўлсин! Кўриниб турибдики, бу хулосага келиш учун ҳам яна “Девону луғот ит-турк” асос бўлаётир.

Хулоса

Акад. И.Ю. Крачковский таъкидлаганидек, китобга кирган ҳар бир факт ва материал Маҳмуд Кошғарийнинг буюк ватанпарварлиги ҳақида далолат бериб туради. Мана шундай ҳолатлардан бири унинг ўзи туғилиб ўсган юрт

– туркийлар диёрини оламнинг маркази сифатида тақдим этгани билан изоҳланади: акад. И.Ю.Крачковскийнинг кўрсатишича, “жуғрофия мутахассисларининг классик мактаблари томонидан тузилган “Жаҳон атласлари”да Макка белгилангани ҳолда, Маҳмуд Кошғарий унинг ўрнига Кошғар ва Еттисувни Боласоғун шаҳри билан биргаликда дунёнинг маркази сифатида қайд этади. Айни мана шу жойлар туркий қабилаларнинг тарқалиш худудларини ҳам акс эттирган” (1. 269).

Маҳмуд Қошғарий буюк қомусий олим сифатида туркий халқлар тарихи, маданияти ва маънавияти учун буюк хизматларни қилиб кетган улуғ бобокалонимиздир. Унинг илмий фаолияти қомусий қамрови билан асрларни қаритиб келаётгани бежиз эмас. Олимнинг, айниқса, филология, хусусан туркий халқларнинг тили, адабиёти соҳасидаги хизматларининг баҳоси йўқ. Улар бугунги тилшунослигимиз, адабиётшунослигимизда ҳал этилиши лозим бўлган кўплаб илмий муаммоларнинг ечилиши учун ҳам муносиб калит вазифасини адо этмоқда. Шунинг учун ҳам бу асарни бундан буён ҳам янада теранроқ ва кенгроқ қамровларда ўрганиш ҳаммамизнинг муҳим бурчимиз бўлиб турибди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Академик И. Ю. Крачковский. Арабская географическая литература. – // Избранные сочинения. Том четвертый. Редактор IV тома Г. В. Церетели – Москва-Ленинград, изд-во АН, 1957.
2. Маҳмуд ал-Кашғари. Диван лугат ат-турк (Свод тюркских слов). В 3-х томах. Перевод с арабского А.Р.Рустамова под редакцией И.В.Кормушина. Предисловие и введение И.В.Кормушина, примечание И.В.Кормушина, Е.А.Поцелуевского, А.Рустамова. том, 1. – Москва, изд-ва Восточная литература, 2010. – 461 с.
3. Маънолар махзани. Нашрга тайёрловчилар: Д.Шораҳмедов, М.Аминов. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001, 448 б.
4. Маҳмуд ибн Хусайн ибн Муҳаммад Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғоти-т-турк), I жилд. Тўлдирилган ва ислоҳ қилинган иккинчи нашр. Таржимон С.Муталлибов. Нашрга тайёрловчилар А.Рустамов, Ҳ.Болтабоев. – Тошкент, “Mumtoz so‘z”, 2016. – Б. 388.
5. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк [Туркий сўзлар девони]. С.Муталлибов таржимаси асоида қайта ишланган, тўлдирилган, ўзгартиришлар киритилган мукамал нашри. Нашрга тайёрловчи Қ.Содиқов. – Тошкент, 2017, – Б. 488.
6. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони. (Девону луғотит турк). Уч томлик. I том, Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. – Тошкент, ФАН, 1960, – Б. 500.

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли, учинчи жилд. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2007. – 688 б.
8. Ўзбек халқ мақоллари. Тузувчилар: Т. Мирзаев, А. Мусақулов, Б. Саримсоқов. Масъул муҳаррир Ш.Турдимов. – Тошкент, “Шарк” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2003, – Б.277.
9. Юсуф Хос Ҳожибю Кутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. – Тошкент, ФАН, 1972. – Б. 964.
10. Arat R.R. Kutadgu bilig. I. Metin. 3. Baski, – Istanbul, 1991. – 656 s.
11. Arat R.R. Kutadgu bilig. III. Indeks. Indeksi neşre hazirlayanlar: Kemal Eraslan, Osman F. Sertkaya, Nuri Yuce., – Istanbul, 1979. – 565 s.

“HISTORY OF THE STUDY OF "DIVAN-I LUGAT AT-TURK" IN RUSSIA”

*Prof.Dr. Apollinaria Avrutina,
St. Petersburg State University*

*Director of the Center for the Study of Contemporary Turkey
and Russian-Turkish Relations*

The fundamental work of Mahmud Kashgar "Divan-i Lugat at-Türk" ("Collection of Turkic dialects") is a great monument of Turkic artistic and scientific literature, which, moreover, continues to be an important reference book on the history and culture of the Turkic peoples of the 11th century. ... This is the first Türkic lexicographic dictionary in history, and its fate has evolved in an amazing way.

It is important to note that this monument appeared at a time when the Turkic world was experiencing an incredible upsurge. An unprecedented military triumph of the Turks was observed on the vast expanse of the Muslim civilization of the 11th century. The Dictionary of Turkic Dialects was created in the era of the grandiose military-political triumph of the Turkic tribes in the Muslim world. The author, himself from a family of rulers and noble military leaders, created his own encyclopedic dictionary, seeing in the language of the Turks a power equal to the power of the language of the Muslim Holy Scripture - Arabic. The author's goal was to acquaint Muslims with the language and culture of the Turkic conquerors.

«It is important to note that at the time when Mahmud Kashgarsky was working on compiling his dictionary, another outstanding representative of the culture of the Turkic-speaking world - Yusuf Balasaguni - wrote his famous didactic poem "Kutadgu bilig". This fact also indicates the high development of sciences and arts in those territories», - writes A.N. Kononov (Махмуд Кашгарский и его «Дивану лугат-ат-тюрк» // Советская тюркология. 1972. № 1. С. 5).

The Turkic world according to Mahmud Kashgari is the first map of the settlement of the Turkic tribes known to science, and in addition, it is an encyclopedia in which extensive historical, cultural, ethnographic and linguistic material about the life of the contemporary Turkic peoples is collected and summarized.

In general, al-Kashgari's work is both philological and cultural and, of course, historical. In general, the dictionary captures the everyday language of the peoples of Central Asia, contemporary to the author.

Dictionary material is an article in which linguistic material is given along with ethnographic information about a particular people. In addition, the dictionary undertook the first systematization of the languages and ethnonyms of the contemporary Turkic peoples.

An important merit of al-Kashgari is that he introduced a comparative method and a historical approach to the study of languages, laying the foundations of what we now call Türkology.

In al-Kashgari's work, the image of the Turks is the image of the powerful "Rulers of the Century" who, in addition to military valor, also have a rich culture, little known to Muslims. According to al-Kashgari, the Turks are a people that embodies the best human qualities.

A monument of this level is of particular importance for Soviet and Russian Turkic studies; its study began at the beginning of the 20th century. The Turkic population, both during the Soviet era and at the present time, makes up a large percentage of the total population of Russia, therefore, the study of large national monuments has always been a priority in educational, scientific and national policy.

Almost the first to write about Mahmud Kashgar was Panteleimon Krestovich Zhuze (1870 - 1942), a Russian historian, orientalist, Islamic scholar, and translator. He studied Islamic law and the history of Islam. He penned a landmark work called "Taurus Linguarum Turcorum", in which he, in particular, sought to establish the identity of the ancestors of Mahmud of Kashgar.

Vasily Vladimirovich Bartold (1869 - 1930) - Russian and Soviet orientalist, Turkologist, Arabist, Islamic scholar, historian, archivist, philologist; one of the founders of the Russian school of oriental studies, wrote that Mahmud Kashgari could receive primary, and maybe higher education in his native Kashgar, which has become a major political and cultural center (В.В. Бартольд, Сочинения. Т. III, С. 456). V.V. Bartold wrote that Kashgari was "the only Arab author who wrote about Central Asia not from a book, but from what he himself saw and knew."

One of the earliest publications on M. Kashgari belongs to the researcher Validov, who in his article published in the Bulletin devoted to the issues of Tatar studies in 1927. The article is of a general, descriptive nature (Валидов Дж. О словаре турецких языков Махмуда Кашгарского // Вестник научного общества татароведения. 1927. № 7)

Mahmud of Kashgar is mentioned in the fundamental work of Sergei Efimovich Malov, dedicated to the monuments of the runic writing of the Turks of the valleys of the Orkhon and Yenisei rivers; this edition also includes monuments of the Uyghur script and Arabic (Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. М.; Л., 1951).

Leading Soviet Turkologist, member of the USSR Academy of Sciences Andrei Nikolaevich Kononov wrote a lot and in detail about Mahmud Kashgar. Here are just a few of his works on the Dictionary and the personality of the author: Махмуд Кашгарский и его «Дивану лугат-ат-тюрк» // Советская тюркология. 1972. № 1; К 900-летию «Дивану лугат-ит-тюрк» М. Кашгари // Там же; Советская тюркология. 1972. № 1.

It is noteworthy that in 1972 a separate issue of the most authoritative Soviet Turkological journal "Soviet Turkology" was devoted to the personality of Mahmud Kashgarsky, this was the first issue in 1972. The issue published the materials of the All-Union Turkic Conference convened in the city of Fergana on October 7-9, 1971 by the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Uzbek SSR, the Academy of Sciences of the Uzbek SSR and the Leningrad Branch of the Institute of Oriental Studies of the USSR Academy of Sciences, in connection with the 900th anniversary of Divan Lugat -it-Turk "Mahmud Kashgari.

Instead of the title page of this issue, the famous map of Mahmud of Kashgar was placed, and the journal included the works of many famous researchers, for example, an article by S.G. Klyashtorny, I. Kuchkartaev, A. Rustamov and others. One should pay attention to the article by A. Rustamov «О переводе «Дивану лугат-ит-тюрк» Махмуда Кашгарского», since in 2010 a complete translation of the Collection into Russian was published in Moscow by a team of authors headed by A. Rustamov. (Махмуд ал-Кашгари. Диван лугат ат-турк (Свод тюркских слов) / пер. с араб. А.Р. Рустамова, под ред. И.В. Кормушина, прим. И.В. Кормушина, Е.А. Поцелуевского, А.Р. Рустамова. Москва: Восточная литература, 2010).

At the same time, one cannot fail to mention one more Russian-language translation of the dictionary, published in 2005 in Almaty, translated by Z.-A. M. Auezova. (Махмуд ал-Кашгари. Диван Лугат ат-Турк/ Перевод, предисловие и комментарии З.-А. М. Ауэзовой, Индексы составлены Р. Эрмерсом, Алматы: Дайк – Пресс, 2005. – 1288 с.), whose editorial board included the world famous St. Petersburg Turkologist Sergei Grigorievich Klyashtorny, a specialist in the Turkic world of Central Asia.

It should be noted a few more articles dedicated to the personality of M. Kashgarsky and published either in the mentioned issue of the journal "Soviet Türkology" (напр., Гарипов Т. М. Махмуд Кашгари и кыпчакские языки Урало-Поволжья // «Советская тюркология»), or in issue No. 4 for 1985 (Муты И., Османов М. О родине, жизни и гробнице М. Кашгарского // «Советская тюркология». 1985. № 4).

They studied the map separately, and many authors more than once noted the clear drawing by Mahmud of Kashgar relative to the center of the map of the territories inhabited by Turkic tribes and border lands. In particular, Academician I.Yu. Krachkovsky wrote that the linguistic work of Mahmud Kashgari "Divan lugat at-Turk" is of particular importance from the point of view of geography (Крачковский И.Ю. Ал-Бируни и географы в XI в. на Востоке // Избранные произведения. Т. IV. М.—Л.: Наука, 1957. С. 267—270.)

About M. Kashgarsky's "Divan" wrote A.M. Shcherbak, who noted that "The Divan of Mahmud of Kashgar (XI century) has no equal ... it includes extensive linguistic data on Turkic grammar, uniquely interpreted (in comparison with Arabic), vocabulary, phonetics, details about the placement of tribes, geographical and other information" (*Щербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X—XIII вв. из Восточного Туркестана. М.—Л.: АН СССР, 1961, с. 29).*

It is worth mentioning a few more works that were devoted to the study of the map, placed by M. Kashgari at the beginning of his "Dictionary", and which was mentioned above: first of all, the article by I. Umnyakov devoted to the geographical analysis of "the oldest Turkic map of the world." In particular, scientists tried to prove that the first mention of Japan in historical documents was made not by Marco Polo, as it is commonly believed, but by Mahmud of Kashgar in the 11th century. in his "Dictionary" (*Умняков И.И. Самая старая турецкая карта мира // Труды Самаркандского госпединститута. Вып. 1. Самарканд, 1940. С. 103—132; докторская диссертация Хасанова: Хасанов Х. Географическое наследие ученых Средней Азии: автореф. ... док. дис. Ташкент: Фан, 1967; Мусабаев Г.Г. Некоторые сведения о жизни М. Кашгарского // Исследования по тюркологии. Алматы: Наука, 1969. С. 48—62. Исабекова У.К. Махмуд Кашгари — основоположник ареальной лингвистики // Вестник РУДН. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2017. Т. 8. № 2. С. 301—308).*

In the current review, two more names should be mentioned - these are the works of Tatyana Aleksandrovna Borovkova (1941 - 1968) dedicated to the work of M. Kashgarsky, and above all, the outstanding dissertation "A grammatical sketch of the language "Divanu lugat-it-turk "Mahmud Kashgari" and a series of articles on the same topic (Т.А. Боровкова. Относительно первого издания Словаря Махмуда Кашгарского – «Народы Азии и Африки», 1964, № 5, С. 133 – 135; Боровкова Т. А. О губных согласных в «Дивану лугат-ит-турк» Махмуда Кашгари // Тюркологический сборник: К 60-летию академика А. Н. Кононова. — М.: Наука (ГРВЛ), 1966. — С. 24-27. — 276 с.; Боровкова Т. А. О фонетической терминологии в словаре Махмуда Кашгарского «Дивану лугат-ит-турк» // Известия АН СССР. Серия литературы и языка. Т. 25. Вып. 6. М., 1966. С. 528—531.; Боровкова Т. А. К вопросу о долготе гласных в языке «Дивану лугат ит-тюрк» Махмуда Кашгари // Тюркологическая конференция в Ленинграде 7-10 июня 1967 г. Тезисы докладов. Л., 1967. с. 12-13.)

In conclusion, let us mention the name of Vyacheslav Ivanovich Shapovalov, a poet, translator of Turkic and European poetry. He was born in 1947 in Frunze (now Bishkek, Kyrgyzstan). Graduated from the Kyrgyz State University, where he was later a graduate student, professor, director of a number of centers and institutes, vice-rector for scientific activities. Doctor of Philology, Professor, Vice President of the Central Asian PEN Center. The author of 12 books of poetry, almost all were published in Kyrgyzstan. In 2014, a book of poems "Euroasis" was published in Moscow. People's poet of Kyrgyzstan, laureate of the State Prize of the Kyrgyz Republic, the Russian Prize, the Prize named after I. Fazil Iskander and others. Lives in Kyrgyzstan. He penned the experiments of translating the "Dictionary" of Mahmud Kashgar in poetic form (<https://ia-centr.ru/han-tengri/culture/tyurkskoe-slovo-makhmud-khusseyn-al-kashgari-v-perevodakh-v-shapovalova/>). These experiments were published in 2019 by the magazine "Prosody" <https://magazines.gorky.media/prosodia/2019/10>).

**МАХМУД АЛ-ҚОШҒАРИЙНИНГ “ДЕВОНИ ЛУҒАТИТ-ТУРК”
АСАРИ ИЛҚ АРАБ ГРАФИКАСИДАГИ ТУРК ТИЛИ
ЁДГОРЛИКЛАРДАН БИРИ СИФАТИДА**

Пилипчук Ярослав Валентинович,

*Тарих фанлари доктори, М. П. Драгоманова номидаги Миллий педагогика университетининг Тарих факультети, Марказий-Шарқ Европаси Маданиятли тарихи кафедраси катта ўқитувчиси
Киев ш, Украина*

Аннотация. Бу мақола Маҳмуд ал-Қошғарийнинг шахсиятига бағишланган. Маҳмуд ал-Қошғари Қорахонийлар ҳукмдорлари сулоласи вакили бўлган. У Барсхонда туғилган. Маҳмуд ал-Қошғари Қорахонийлар давлатидан чиқиб кетишига XI асрнинг 50-йилларидаги тахт учун кураш сабаб бўлган. «Девону луғати турк» рисоласининг ёзилиши вақтини XI асрнинг 70-йиллари деб ҳисоблаш мумкин.

Таянч сўз ва иборалар: Маҳмуд ал-Қошғари, «Девону луғати турк», Барсхон.

Abstract. This article is dedicated to the personality of Makhmud al-Kashgari. Makhmud al-Kashgari was a representative of the ruling dynasty of the Karakhanids. He was born in Barskhan. Makhmud al-Kashgari was forced to emigrate from the Karakhanid state by the struggle for power in the 50-ies of XI century. Regarding the time of writing the "Dictionary of Turkic dialects" can be considered the 70-ies of XI century.

Keywords and expressions: Makhmud al-Kashgari, "Dictionary of Turkic dialects", Karakhanids, Barskhan.

Özet. Bu makale Kaşgarlı Mahmud'un kişiliğine adanmıştır. Mahmud al-Kashgari, Karahanlıların yönetici hanedanının bir temsilcisiydi. Barskhan'da doğdu. Kaşgarlı Mahmud, 50'li yıllardaki iktidar mücadelesi sonucu Karahanlı devletinden göç etmek

zorunda kaldı. "Türk lehçeleri sözlüğü"nin yazıldıkları dönemle ilgili olarak 70'li yıllar sayılabilir XI yüzyıl

Anahtar kelimeler: Kaşgarlı Mahmud, "Türk lehçeleri sözlüğü", Karahanlılar, Barskhan.

Турк дунёси тарихининг қизиқарли жиҳатларидан бири маънавий тарихидир. Турк тилидаги илк рисоалардан бири Юсуф хос Хожиб (Боласоғуний)нинг "Қутадғу билиг" ва Маҳмуд ал-Қошғарийнинг "Девони луғатит турк" асарларидир. Айнан кейинги рисола бизда алоҳида қизиқиш уйғотади. Маҳмуд ал-Қошғарий турк халқларининг тарихи ва филологияси ҳақида муҳим маълумотлар беради. Маҳмуд ал-Қошғарий асарининг историографияси етарли даражада кенг қамровлидир. "Девони луғатит турк"нинг ўзи XX-XXI асрда бир қатор дунё халқлари тилига таржима қилинди. Асар турк тилига К.Рифат томонидан 1915-1917 йилларда ва Б. Аталай томонидан 1928 йида таржима қилинган. 1963 йилда асарни С. Муталлибов ўзбек тилига ўгирган. 1972 йилда Буюк Британияда Ж. Клозен уни инглиз тилига таржима қилган. 1982-1985 йилларда янги инглиз тилиданги таржима Р.Данкофф томонидан АҚШда нашр этилган.

"Девони луғатит турк"нинг уйғур тилига таржимаси 1981-1984 йилларда И. Мути ва И. Турсун ҳамкорлигида нашр этилган. 1997 йилда А. Егеубаев асарни қозок тилига ўгириб нашр эттирди. 2005 йилда асарнинг рус тилига таржимаси Қозоғистонда З.А.Ауэзова томонидан чоп этилди. "Девони луғатит турк"нинг рус тилидаги янги наشري 2010 йилда А. Рустамова ва И. Кормушина ҳамкорлигида чоп этилди. 2011-2013 йилларда бу асар қирғиз тилига Т. Токоев ва К. Кошмоков томонидан таржима қилинган [13; 14; 15; 4; 36; 37; 40].

Мазкур тадқиқотнинг мақсади Маҳмуд ал-Қошғарийнинг ижодий фаолияти ва ҳаёт йўлини ўрганишдан иборат. Рисоланинг ўзи бизнинг давримизга ягона нусхада етиб келган бўлиб, бу нусха Истамбулдаги Миллет Генель кутубхонасида сақланади. Маҳмуд ал-Қошғари бу асарини Боғдод ҳалифаси ал-Муқтадига бағишлаган. Бу ҳақда "Девони луғатит турк"нинг кириш қисмида қайд этилади. Асар Боғдод ҳалифасининг кутубхонасида сақланган. Боғдод 1258 йилда мўғуллар томонидан истило этилган вақтда йўқ қилиб юборилган жуда кўп қўлёзмалардан фарқли тарзда Маҳмуд ал-Қошғарийнинг рисоласи мамлуклар қўлига тушади ва ҳатотлар – ас-Сави ва ад-Димашқи томонидан 1266 йилда нусхаланади. Кейинчалик ал-Айни ва Хожи Халифа Маҳмуд ал-Қошғарийга мурожаат қиладилар. Маҳмуд ал-Қошғарийнинг асарни ёзишдан мақсади дунёни турклар ва унинг тиллари билан таништириш эди. Шунингдек, у рисолада ўзининг олий насаби, катта билими ва жаридни чала олиши ҳақида қайд этади.

Маҳмуд ал-Қошғари 1029 ва 1038 йиллар оралиғида Иссиқ-кўл қирғоғидаги Барсхон шаҳрида дунёга келади. Барсхонлик бўлгани тўғрисидаги тахминни Р. Данкофф, О. Прицак, Г. Хазаи ҳам тилга оладилар. А.Кононов Барсхонда Маҳмуднинг отаси туғилган, Маҳмуд эса Барсхонда туғилган деб

ҳисоблайди. М.-А. Ауэзова эса нисбаси гувоҳлик беришига кўра, унинг келиб чиқиши Қошғардан деб ҳисоблайди.

И. Кормушин И. Мути ва И. Турсуннинг Маҳмуд ал-Қошғари Қошғарга яқин жойдаги Опал қишлоғида туғилган, деган фикрини маъқуллайди. Болалигида Маҳмуд ал-Қошғари бошланғич таълимни онаси Биби Робиядан олади. Кейинчалик у Ҳомидия ва Сожи мадрасаларида таҳсил кўради. Шайх Жалолиддин ал-Боғдоди ва Имом аз-Зоҳид Ҳусейн б. Ҳалиф ал-Қошғари унинг устозлари бўлишган.

У. Исабекованинг фикрича, Маҳмуд Қошғарда туғилмаган. Лекин Қошғарда таълим олгани учун ва шахс сифатида шакллангани учун, миннатдорлик сифатида ал-Қошғари нисбасини олган. Олиманинг тахминича, у ўз асарини Қошғарда бошлаган, Боғдодда эса уни яқунлаган. 1056-1057 йилларда ҳокимиятга Маҳмуд ал-Қошғарийнинг бобоси Муҳаммад Буғрохон келади. У 15 кун ўтиб, тахтни ўғли Ҳусайнга топширади. Ҳусайн Муҳаммад б.Юсуфнинг иккинчи хотини томонидан заҳарланади. Бу аёл аввал ҳам ўз эрини заҳарлаган эди. Маҳмуд Бухоро ва Самарқандга қочишига тўғри келади. У ерда Салжукийлар ҳукмронлигидаги Нишопурга қочади. Маҳмуд ал-Қошғари узоқ вақт турклар яшайдиган жойларга саёҳат қилади. 1080 йилда у Қошғарга қайтади.

И. Кормушиннинг фикрича “Девону луғотит турк” XI асрнинг 70-йилларида тугалланган. Р. Данкофф луғатнинг ёзилиш даврини 1077 йил, деб ҳисоблайди. Л. Базен бу вақтни 1074 йил, деб кўрсатса, Б. Халидов унинг нашр этилиш вақтини 1082 йил, деб кўрсатади. А. Кононовнинг фикрича бу 1083 йилга тўғри келади.

Бу рисола филология фани ва турк дунёси тарихи бўйича ноёб манбадир. Маҳмуд ал-Қошғари турклар маконини икки қисмга бўлади – Рум атрофлари (Марказий Осиё) ва Син атрофи (Ички Осиё). Турк нутқининг намунаси сифатида у ҳоқон тилини белгилайди. У оғузлар, йемеклар ва қипчоқлар тилидаги ўхшашликларни кўрсатиб ўтади. Айтишларича, энг осон тил оғузлар тилидир, энг тўғри тил эса яғмо, тўхси ва Иль, Иртиш, Волга ва Обь дарёлари бўйида яшовчиларнинг тилларидир.

Маҳмуд ал-Қошғари турли турк халқлари тилидан намуналар келтиради. Шунингдек, Маҳмуд ал-Қошғари XI асрдаги дунё харитасининг муаллифи ҳамдир.

П. Жузе ва О. Прицакнинг фикрича Маҳмуд ал-Қошғарининг келиб чиқиши Қорахонийлар ҳоқонлиги сулоласи ҳукмдорларидан Боғра-хон оиласига бориб тақалади. П.Жузенинг келтиришича Насл ал б.Али унинг аждодларидандир. О.Прицак Хорун (ал-Ҳасан) б.Сулаймонни унинг авлодлари, деб ҳисоблайди. Маҳмуд ал-Қошғарийнинг отаси асли Болосоғунлик бўлган, Барсхон амири Ҳусейн б. Муҳаммаддир. У Қошғардаги Сожиа мадрасасида таҳсил олган бўлиб, устози имом Зоҳид Ҳусайн бўлган.

Турклар сиймоси Маҳмуд ал-Қошғари учун улуғвордир ва у туркларни нафақат жангчи сифатида ифодалайди, балки юксак маданиятли инсонлар

сифатида кўрсатади. Қорахонийлик муаллиф туркларни худо томонидан танланган халқ деб билади. Улар учун она тили шарқий турк лаҳжасидир. Бир сўз билан у туркларни қорахоний турклари деб белгилаган (яғмо, қарлуқлар, чигили). Салжукий туркларини у оғузлар деб атайди ва уларни форслар таъсирига берилганини қайд этади, шунинг учун ҳам улар турклар намунаси бўла олмаслигини айтади.

Маҳмуд ал-Қошғарийнинг ўзи художўй мусулмон бўлгани учун ҳам рисолада исломга алоҳида ўрин берилган. У ҳадисларга кўп мурожаат қилади. Бироқ, муаллиф Тангрини Оллоҳ билан тенглаштиришга уринади. Туркларда Аллоҳнинг мувофиқи Тангри ҳисобланган. Маҳмуд ал-Қошғарийнинг кўрсатишича, туркларнинг исломга қадар бўлган диний эътиқоди исломга қарши бўлмаган. У турк мусулмон авлиёси Қулбакени тилга олади. Қорахоний туркларининг кенг оммаси учун Қуръонни эъзозлаш хос бўлмаган ва араб тилини ҳам фақат юқори табақа вакиллари билишган.

“Девони луғатит турк” араблар учунгина ёзилганида ғайриоддий ҳол бўлган бўларди, асар туркларнинг ўзи учун ҳам мўлжалланган. Шунинг учун ҳам муаллиф араб тили қоидаларига тўхталиб ўтади. Шунингдек, Қорахонийлар шажарасига оид афсона мерос қолганки, унга кўра қорахонийлар ўз келиб чиқишларини Шох-номада тилга олинган Туроннинг афсонавий ҳукмдори Афросиёб билан боғлашади. Маълумотли инсон сифатида Маҳмуд ал-Қошғари Дақиқи ва Фирдавсийларнинг асарлари билан таниш бўлган ҳамда араб тилидан ташқари форсийни ҳам билган. Шунингдек у ўз келиб чиқишини тузган ва Афросиёбнинг Барсхон деган ўғли бўлганини қайд этган. Афросиёбнинг ўзини эса муаллиф туркчасига Алп Эр Тўнга деб атаган. Луғатни тайёрлашда намуна сифатида Маҳмуд ал-Қошғари келиб чиқиши турк (оғуз) бўлган Форобийнинг рисоласидан фойдаланади. «Девону луғати турк» муаллиф даврига хос бўлган араб луғатлари жанрида тузилган. Маҳмуд ал-Қошғари ўз рисоласига кўплаб туркча мақолларни киритган. У бу мақолларнинг тўғридан тўғри таржимасига қониқмай, уларнинг араб тилидаги кенг маъносини ҳам келтиради. Улар доно маслаҳатлар, огоҳлантириш ва амалий йўл йўриқномалардир. «Девону луғати турк»да Афросиёбнинг ўлимига аталган қасида, Қорахонийларнинг танғитлар, уйғурлар ва йабакуларга (ал Марвази ва Ауфида кунлар сифатида келтирилган қабилалар) қарши курашидаги қаҳрамонлик байтлари, зиёфатлар ва овчилик ҳақидаги байтлар, муҳаббат байтлари, табиат лирикаси, ҳикматли сўзлар ва насихатлар мавжуд.

И. Стеблева ва М.-А. Ауэзовнинг фикрича байтлар турлича аруз қофияларида ёзилган. И. Кормушин Маҳмуд ал-Қошғари ёзган байтлар силлабик тарзда ёзилгандир, деб ҳисоблайди. Қарахонийлик муаллифнинг ўзи турк ислом қорахонийлар томонидан қабул қилингунига қадар ижод қилган шоирларидан бири – Чучудан иқтибос келтиради. Қорахоний тили ҳоконидан кўра кўпроқ ривожланган ёзув тили сифатида машхурдир [13, с.

6-47; 14, с. 21-54; 7, с. 423-430; 6, с. 301-308; 12, с. 102-106; 5, с. 90-92; 2, с. 107-112; 8, с. 18-23; 9, с. 3-9; 41, с. 243-246; 24, с. 86-94; 23, с. 429-434; 27, с. 105-108; 28, с. 108-112; 25, с. 57-61; 29, с. 167-171; 30, с. 383-387; 16, с. 33-36; 3, с. 37-40; 21, с. 422-424; 17, с. 48-62; 1; 39, с. 68-80; 38, с. 23-43; 22, с. 42-48; 20, с. 109-114; 19, с. 22-24; 34, с. 113-121; 31, с. 123-128; 35; 42; 43; 33, с. 85-90; 32; 10, с. 108-115; 11, с. 83-90; 18, с. 32-45].

Шундай қилиб биз куйидаги хулосаларга келдик. Махмуд ал-Қошғари Қорахонийлар ҳукмдорлари сулоласи вакили бўлган. У Барсхонда туғилган. Махмуд ал-Қошғари Қорахонийлар давлатидан чиқиб кетишига XI асрнинг 50-йилларидаги тахт учун кураш сабаб бўлган. «Девону лугати турк» рисоласининг ёзилиши вақтини XI асрнинг 70-йиллари деб ҳисоблаш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Эбдикәрімұлы Б., Сарбасова Қ.А. М.Қашқари педагогикасы: Оқу құралы. Қарағанды: ҚарМУ баспасы, 2008. 96 б.
2. Велидов Дж. О "Словаре тюркских языков" Махмуда Кашгарского // Вестник научного общества татароведения. Т. 7. Казань, 1928. С. 107-112.
3. Гейдарова Х. И. Построение словаря "Диван Лугат ат-Турк" (Сравнительный анализ словарей ал-Фараби "Диван ал-Адаб фи Баян Лүгатил-л-араб" и Махмуда ал-Кашгари "Диван Лугат-ат-Тюрк") // International Academy Journal Web of Scholar. Vol. 2 (44). Warsaw, 2020. P. 37-40.
4. Егеубай А. Махмұт Қашқари «Диуани лүғат-ит-түрік» (XI ғ.). Алматы: Хант, 1997. 592 б.
5. Ибрахимова Ш. М. Вопросы азербайджанского языкознания и произведение Махмуда Кашгари "Дивани лугат – ит тюрк" в журнале «Туркология» // Филологические науки. Вопросы теории и практики. № 6-2 (24). Ч. 1. Тамбов, Грамота, 2013. С. 90-92.
6. Исабекова У. К. Махмуд Кашгари – основоположник ареальной лингвистики // Вестник РУДН. Серия Вопросы образования: языки и специальность. Т. 8. №. 2. М., Российский университет дружбы народов, 2017. С. 301-308.
7. Исабекова У. К. Языковая личность Махмуда Кашгари в диалоге культур средневековья // Вестник РУДН. Серия Вопросы образования: языки и специальность. Т. 14. №. 3. М., Российский университет дружбы народов, 2017. С. 423-430.
8. Кононов А. Н. Махмуд Кашгарский и его труд "Дивану лугат ат турк" // Советская Тюркология. №1. Баку: Коммунист, 1972. С. 18-23.
9. Кононов А. Н. Изучение "Дивану Лугат ит-Турк" в Советском Союзе // Советская Тюркология. №. 1. Баку: Коммунист, 1973. С. 3-9.
10. Короглы Х. Алп Эр Тонга и Афрасияб по Юсуфу Баласагуни, Махмуду Кашгари и другим авторам: К вопросу о взаимосвязях иранского и

тюркского фольклора // Советская тюркология. № 4. Баку: Коммунист, 1970. С. 108-115.

11. Кучкартаев И. Лексика "Дивану лугат-ит-тюрк" Махмуда Кашгари и современный узбекский литературный язык // Советская тюркология. № 1. Баку: Коммунист, 1972. С. 83-90.

12. Кучкоров Б. А. Трудолюбие в концептуальном пространстве "Девон-у Лугат ит-тюрк" Махмуда ал-Кашгари (к истокам узбекской народной педагогики) // Культура. Духовность. Общество. Вып. 27. Новосибирск, Центр развития научного сотрудничества, 2014. С. 102-106.

13. Махмуд ал-Кашгари. Диван лугат ат-турк. Алматы: Дайк-Пресс, 2005. 1288 с. + 2 л.

14. Махмуд ал-Кашгари. Диван лугат ат-турк (Свод тюркских слов). В 3-х томах. Т. 1. М., Восточная литература, 2010. 461 с.

15. Махмуд Кошгарий. Туркий сузлар девоний. Ред. С. Муталлибов. Т. 1-3. Тошкент: Академия наук Узбекской ССР, 1960-1963.

16. Мирза-заде Ч. Х. Паремии в словаре Махмуда Кашгари "Диван Лугатит-Тюрк". Интерактивная наука. № 10 (44). Чебоксары: Интерактив-плюс, 2019. С. 33-36.

17. Мусабаев Г.Г. Некоторые сведения о жизни М. Кашгарского // Исследования по тюркологии. Алм-Ата: Наука КазССР, 1969. С. 48-62.

18. Наджип Э. Н. Махмуд Кашгари и его словарь «Диван-у лугат ит-турк» // Исследования по истории тюркских языков XI-XIV вв. М.: Наука, 1989. С. 32-45.

19. Насилов Д. Н. Диван Махмуда Кашгарского и сравнительно - историческая грамматика тюркских языков // Кашкарлык Махмуд жана түрк дүйнөсүнүн тили, адабияты жана тарыхы. Бишкек, 2007. б. 22-24

20. Пылев А. И. Древнейшие образцы мусульманской мистической поэзии в "Диван Лугат ат-Турк" Махмуда Кашгарского // Вестник Санкт-Петербургского университета. Востоковедение и африканистика. Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный университет, 2015. С. 109-114.

21. Самситова Л. Х., Куланчин А. Ю. Отражение личных и указательных местоимений в словаре "Диван Лугат ат-Турк" // Мир науки, культуры и образования. № 6 (61). Горноалтайск: Мир науки, культуры и образования, 2016. С. 422-424.

22. Султаналиев И.Ш. Фонетико-лексические особенности перевода и чтения на тюркских и русском языках словаря Махмуда Кашгари «Дивану лугати-т тюрк» // Научный результат. Вопросы теоретической и прикладной лингвистики. Т.3. №2. Белгород: Белгородский государственный национальный исследовательский университет, 2017. С. 42-48.

23. Токошева Д. А. Сходство значений слов связанных с сингармонизмом в кыргызском языке и в труде Махмуда Кашгари "Диван Лугат ат-Турк" // Бюллетень науки и практики. Т. 6. №9. Нижневартовск, Наука и практика, 2020. С. 429-434.

24. Тугушева Л. Ю. "Диван лугат ит-тюрк" Махмуда Кашгари и его связи с раннесредневековой тюркоязычной литературой // Советская Тюркология. № 1. Баку: Коммунист, 1988. С. 86-94.

25. Усмамбетов Б. Ж. Лексико-семантические особенности слов, относящиеся к бытовой лексике в словаре Махмуда Кашгарского "Диван Лугат ат-Турк" // European journal of literature and linguistics. № 3. Praha: Premier Publishing s.r.o., 2016. S. 57-61.

26. Усмамбетов Б. Ж. Некоторые словообразующие аффиксы в словаре Махмуда Кашгарского "Диван Лугат ат-Турк" // Символ науки. № 2. Уфа, Омега сайнс, 2016. С. 108-112.

27. Усмамбетов Б. Ж. Семантические особенности глаголов в словаре Махмуда Кашгарского "Диван Лугат ат-Турк" и их соотношение с глаголами современного кыргызского языка // Символ науки. № 2. Уфа, Омега сайнс, 2016. С. 105-108.

28. Усмамбетов Б. Ж. Словарь Махмуда Кашгари "Диван Лугат ат-Турк" и кыргызский язык (этнолингвистический анализ) // Филологические науки. Вопросы теории и практики. № 5 (59). Ч. 1. Тамбов, Грамота, 2016. С. 154-156.

29. Хайзиева А. А. Религиозно-мифологическая лексика словаря М. Кашгарского "Дивану Лугат ит-Тюрк" // Филологические науки. Вопросы теории и практики. № 2(56). Ч. 1. Тамбов: Грамота, 2016. С. 167-171.

30. Хайзиева А. А. Название космических объектов М. Кашгарского "Дивану Лугат ит-Тюрк" // Филологические науки. Вопросы теории и практики № 2(80). Ч. 2. Тамбов: Грамота, 2018. С. 383-387.

31. Хайитметов А. О древней поэзии тюрков: (По материалам "Дивану лугат-ит-тюрк" Махмуда Кашгари // Советская тюркология. № 1. Баку: Коммунист, 1972. С. 123-128.

32. Халидов А.Б. Словари Исхака ал-Фараби и Махмуда ал-Кашгари: (Из истории лексикографии в Средней Азии X—XI вв.). Л.: Ленинград. отд. ИВ АН СССР, 1987. 68 с.

33. Халидов А. Д. "Диван Лугат ит-Тюрк" в сравнительном освещении с его арабским прототипом // Советская Тюркология. № 4. Баку: Коммунист, 1984. С. 85-90.

34. Чороев Т.К. Этноним «кыргыз» по данным Махмуда Кашгари // Вопросы этнической истории киргизского народа. Фрунзе: Илим, 1989. С. 113-121.

35. Чоротегин Т.К. Махмуд Кашгари (Барскани) жана анын "Дивану лугати т-түрк" сөз жыйнагы (1072—1077). Бишкек: «Кыргызстан» Басма үйү, 1997. 160 б.

36. Atalay B. Divan Lugatit-Turk tercümesi. Ankara, 1939-1941.

37. Brockelmann C. Mitteltürkischer Wortschatz nach Mahmud al-Kasgaris. Budapest: Korosi Csoma, 1962. VI, 252 S.

38. Dankoff R. Kasghari on the Tribal and Kinship Organization of the Turks // Archivum Ottomanicum. Vol. IV. Wiesbaden: Otto Harrassowitz Verlag, 1972. P. 23-43.

39. Dankoff R. Kasghari on the Beliefs and Superstitions of the Turks // Journal of the American Oriental Society. Vol. 95. № 1. Ann arbor: University of Michigan, 1975. P. 68-80.

40. Mahmud al-Kaşğari. Compendium of the Turkic dialects (Diwan lu\$at at-Turk). Ed. and transl. with Introduction and Indices by Robert Dankoff in collaboration with James Kelly. Part I—III. Printed at the Harvard University Printing Office. Cambridge Mass.: Harvard University, 1982— 1984.

41. Pritsak O. Mahmud Kaşğari kimdir // Türkiyat mecmuasi. C. X. İstanbul : İstanbul Üniversitesi, 1953. S. 243-246.

42. Tryjarski Edward. Kultura ludów tureckich w świetle przekazu Mahmuda z Kaszgaru (XI w.). Warszawa: Polska Akademia nauk, 1993. 364 S.

43. Ülkütaşır M.Ş. Büyük Türk Dilcisi Kâşgarlı Mahmut. 2. Baskı. Ankara: Türk Dil Kurumu, 1972. 222 S.

MAHMUT KÂŞGARLI'NIN DÎVÂNU LUGÂTİ'T-TÜRK ANSİKLOPEDİSİNDE TANRI / TENGRİ VE TANRICILIK

Mehammed Mammadsaid oğlu Memmedov

Bakü Devlet Universitesi, Azerbaycan sözlü halk edebiyatının doçenti

Özet. *Kâşgarlı Mahmut XI yüzyılda kaleme aldığı Dîvânu Lugâti't-Türk Ansiklopedisinde Türklerin eski inançları, dini ve mitolojik görüşleri hakkında çok değerli bilgiler vermiştir. Dini inançların tüm yönleri anıtta tam olarak yansıtılmasa da Mahmut Kâşgarlı, bu örneklerle Türk milletinin dini ve mitolojik dünyasının İslam öncesi İlk ve Orta Çağ manzarasını canlandırmayı başarmıştır. M. Kâşgarlı, anıtta katı bir müslüman, mükemmel bir Kur'an-ı Kerim ve hadislerin kâmil uzmanı olarak görünse de Türklerin eski gelenekleri ve dini görüşleri hakkında yeterli bilgi vermiştir. M. Kâşgarlı, bu muhteşem eserle Türkoloji, halk edebiyatı, tarih ve diğer bilimlerin temellerini atan ilk Türk âlimidir.*

Türk düşüncesinde yüksek tapınma kültü olan Tanrı'nın //Tengri'nin Kâşgarlı Mahmut'un Dîvânu Lugâti't-Türk Ansiklopedisinde özel bir yeri vardır. Ansiklopedide 64 defa adı geçen Tanrı //Tengri terimini Kâşgarlı, Allah anlamının karşılığı olarak kullanmıştır.

Türk teolojisi, Gök Tanrı kavramına dayanan tek tanrılı bir dindir. Türk dini ve mitolojik düşüncesinde Tanrıçılık kanonik kitabı, peygamberi olmayan bir dindir. Tanrıçılık, ilâhî kanunları ile âlemleri yöneten Yaradan, Yüce Tanrı'ya karşı ruhu temiz duygularla dolu bir toplumun dini inanç sistemidir. Türklerin ilahi dünyagörüşünde Tanrı hiçbir zaman antropomorfik özellikler taşımamıştır.

M. Kâşgarlı, "Tengri" kelimesini doğal olarak "Büyük (Yüce) Tanrı" olarak yorumluyor ve müslüman olmayan Türklerin din adamının Tanrı'ya ibadet etse bile, onun bu işinden Yüce Tanrı'nın // Tengri'nin memnun olmadığını anlatıyor. Ansiklopedide "Ugan" ve "Bayat" gibi isimlerin Yüce Tanrı'nın tasvirleri olduğunu belirtir.

Türklerin Tanrı'ya yakın olduğu ve sevildiği, Kâşgarlı'nın deyimiyle desek Allah'ın ordusu olduklarını anıttan açıkça görebiliriz. Ansiklopedide Tanrı ve Tanrıçılık inanç

sistemi ile ilgili alkışlar, beddualar, atasözleri gibi ifadelere rastlıyoruz. Ansiklopedide "Tanrı" kelimesinin tekrar tekrar kullanılması, M. Kâşgarlı'nın Göklerin Tanrısı'nın dinini tam olarak bildiğini ve bu dinin sözleri ile İslam inançları arasındaki yakınlığı gördüğünü teyit etmektedir.

Anahtar kelimeler: Tanrı, Allah, Türk, tanrıcılık, inanç, Kâşgarlı, Bayat, evren, övgü, anlatım.

Abstract. M.Kashgarli gave a special place to the religious-mythological themes in his encyclopedia "Divanü lugat-it-türk" written in the XI century; he gave valuable knowledge about the Turks' ancient beliefs, mythological thinking. Though not all aspects of the Turks' religious beliefs were reflected in this monument, M.Kashgarli managed to enliven the ancient and medieval panoramas of the Turkic nation's religious-mythological world during the pre-Islamic period by these samples. Though M.Kashgarli seems to be ardent muslim, a perfect connoisseur of "Gurani-Kerim" and Hadiths in this monument, he gave enough knowledge about the Turks' ancient customs, traditions, religious views. M.Kashgarli is the first Turkic scholar who laid the foundation of Turkology, folk literature, history and other sciences with his fundamental work.

Tanrı // Tengri who was the highest worship cult in the Turkic thinking takes a special place in M.Kashgarli's encyclopedia "Divanü lugat-it-türk". The term Tanrı//Tengri mentioned in the encyclopedia 64 times is used by M.Kashgarli as the equivalent of Allah in the Islamic religion. The Turkic Tengrism is an original monotheistic religion formed around the notion of Goy Tanrı-monotheism. Tengrism determining the structure of the Turkic religious-mythological thinking is religion without the canonical book sent down from heaven and without Prophet. Tengrism is a system of beliefs of the society which is full of pure spiritual thoughts regarding Creator Great Tengri who regulates the worlds by His divine laws. Tanrı had no anthropomorphic feature in Turks' Tanrı world view who perceived the universe as a whole.

M.Kashgarli naturally denotes the word "Tengri" as "the highest God" and explains that though a clergyman of non-muslims Turks worships Tanrı, the highest God is displeased with that. Such laudatory names of the Almighty God as "Ugan", "Bayat" are noted in the encyclopedia.

It is obvious from the monument that Turks are close to Tanrı, they are loved by Tanrı, in M.Kashgarli's words, they are Tanrı's army, and it is evident from the monument. There are expressions including verses, praises, damnations, proverbs, sayings related to Tanrı and Tengrism in the encyclopedia. The scholar used the word "Tanrı" many times, and this confirms the fact that M.Kashgarli possessed the perfect knowledge about religion of Goy Tanrı who formed the basis of the Turkic religious-mythological system, and he showed closeness between Goy Tanrı's expressions and Islamic beliefs.

Keywords and expressions: Tanrı, Allah, Turkic, Tengrism, belief, Kashgarli, Bayat, praise, expression.

XI yüzyılda kaleme alınan *Divânü Lugâti't-Türk* Ansiklopedisinde Kâşgarlı Mahmut Türklerin eski inançları, dini ve mitolojik görüşleri hakkında çok değerli bilgiler vermiştir. Dini inançların tüm yönleri anıtta tam olarak yansıtılmasa da Mahmut Kâşgarlı, bu örneklerle Türk milletinin dini ve mitolojik dünyasının

İslam öncesi manzarasını canlandırmayı başarmıştı. M. Kâşgarlı, anıtta katı bir Müslüman, mükemmel bir Kur'an-ı Kerim ve hadislerin kâmil uzmanı olarak görünse de, Türklerin eski gelenekleri ve dini görüşleri hakkında yeterli bilgi vermiştir. M. Kâşgarlı, bu muhteşem eserle Türkoloji, halk edebiyatı, tarih ve diğer bilimlerin temellerini atan ilk Türk âlimidir. Anıttaki bilgilerden, atalarımızın İslam öncesi geleneklerini, dünya algısının özelliklerini, Tanrı // Tengri, Türk inanç sisteminin merkezi kavramı ve bu ilahi güçle ilgili sözler hakkında bilgi sahibi oluyoruz.

Türk düşüncesinde yüksek tapınma kültü olan Tanrı'nın //Tengri'nin Kâşgarlı Mahmut'un *Dîvânü Lugâti't-Türk* Ansiklopedisinde özel bir yeri vardır. Ansiklopedide 64 defa adı geçen Tanrı //Tengri terimini Kâşgarlı, Allah anlamının karşılığı olarak kullanmıştır.

Nitekim İslam'a kabul eden Türkler, eski Tanrı'nın adını ve O'nun sıfatlarını yeni dinlerinin tanrısı anlamında kullanmışlardır. Türk dini ve mitolojik düşüncesinin özü olan Tanrıçılık, "yazılıp düzülüp gökten inen Tanrı bilimi" -kanonik bir metinli gökden inen kitabı, peygamberi olmayan bir dindir (Beydili, 2003: 349). Gök Tanrı dini-mitolojik sistemi, monoteizme çok yakındır. Ancak monoteizm, semavi kitapları, peygamberi, ayin ve törenleri olan dini bir sistem gibi Tanrıçılıktan farklıdır. Türk etnografik mitlerinin önde gelen şahsiyeti olan Oğuz Han'ın kabul ettiği gibi gösterilen Tektanrıçılığın kendisi de gerçek İslam değildir ve burada monoteist sistem olarak kastedilen aslında Türk Tanrıçılığıdır (Beydili, 2007: 104).

Türk teolojisi, tek Tanrı inancı–Gök Tanrı kavramına dayanan eşsiz monoteistik (tektanrı) dindir. Tanrı Türklerde manevi gücün tek kaynağıdır (Kafesoğlu, 1998: 310). Tanrıçılık, ilâhî kanunları ile âlemleri yöneten Yaraticı olan Yüce Tanrı'ya karşı ruhu saf duygularla dolu bir toplumda bir inanç sistemidir. Türk ilahiyatının özü, bir dizi diriliş şeklinde ifade edilen sonsuz yaşam fikridir. Dini bir inanç sistemi olarak ilahiyat toplumun ayrılmaz bir parçasıydı, dolayısıyla ayrı bir dini varlık haline gelmesine gerek yoktu. Evreni bir bütün olarak algılayan Türklerin ilahi dünya görüşünde Tanrı'nın antropomorfik özellikleri yoktu. Hiçbir zaman kişileştirilmemiş şanlı Türk Tanrısı'nın tek bir sureti vardır. M. Eliade'nin işaret ettiği gibi, Türk Tanrı kavramının temelinde “Kutsal evliliye” (hierogamie) rastlanmamaktadır. Yani Türk Gök Tanrısı Assur, Babil, Yunan ve Roma tanrıları gibi tanrıçalarla evlenmez (Günay; Güngör, 2015: 44).

Kaynaklarda Türkler, kanonik bir kitabı olmayan fakat tek Tanrı'ya inanan bir millet gibi tanımlanır. 568. yılında Göytürk Hanlığına elçi olarak gönderilen Zemarkhos'un anılarında Türklerin toprağa, suya ve ateşe inandıkları gibi evrenin tek yaratıcısı olan Tanrı'ya taptıkları belirtilmektedir (Bayat, 2007: 214). VI. yüzyıl yazarı Menander yazıyor ki Türkler toprağa, suya ve ateşe ne kadar saygı duysalar da, yine de evrenin yaratıcısı olan tek bir Tanrı'ya inanıyor, ona tapınıyor, Onun için kurban kesiyorlardı. Bizanslı tarihçi Theophylact Simocattes, Türklerin göklerin ve yerin gerçek sahibi olan tek gerçek Tanrı'ya inandıklarını,

tapındıklarını ve kurban kestiklerini söyler. 13. yüzyılın Moğol hanı Monke'nin elçilere verdiği yanıtı hatırlayabiliriz: “Fakat Allah birdir. O'nun iradesine göre yaşar ve ölürüz” (Rasonyi, 1993: 30). Onuncu yüzyılın ünlü Arap seyyahlarından İbn Fadlan, Oğuzlardan birinin zulme uğradığı ya da zorluklarla karşılaştığı zaman başını kaldırıp "Tek Tanrı" diye dua ettiğini gösteriyor (Dede Korkut, 2004: 317).

Evrenin yaratıcısı olarak bilinen Tanrı, Türk toplumunun manevi gücünün tek kaynağı olarak kabul ediliyordu. Böylece, Hun kağanı Mo-tin MÖ 176'da Çin imparatoruna yazdığı bir mektupta Tanrı tarafından tahta çıktığını ve savaşları "Gök Tanrısı'nın lütfuyla" kazandığını belirtmiş, bir başka Türk kağanıysa düşman üzerinde zafer çaldıktan sonra kollarını göğe kaldırarak kendi sevincini "Ey Gök Tanrısı, sana hamd olsun" kelimelerle ifade etmiştir. Başka bir Türk Hakanı Çin imparatoru ile barış antlaşması yaparken, “Yeminini bozanın Tanrı belasını versin! deye yemin etmiştir. Çin kaynaklarına göre, Gök Türkler düşmanla savaşmadan önce zafer için Cennetteki Tanrı'ya dua ediyorlardı. Mesela, Kağan Tardu 590 yılında savaştan önce atından inmiş, başarı için Tanrı'ya elini açmış, yüzünü ona çevirmiş ve yalvarmıştır (Kafesoğlu, 1998: 309-310).

M. Kâşgarlı, "Tengri" kelimesini doğal olarak "Büyük Tanrı" olarak yorumluyor ve gayrimüslim bir Türk din adamının Tanrı'ya ibadet etmesine rağmen, büyük Tanrı'nın // Tengri'nin çalışmasından memnun olmadığını gösteren bir örnek aktararak şöyle yazıyor: “Yere batası kafirler göğe “Tengri” derler. Yine bu adamlar büyük bir dağ, büyük bir ağaç gibi gözlerine ulu görünen her şeye “Tengri” derler. Bu yüzden bu gibi şeylere yükünürler (secde ederler). Yine bunlar bilgin kimseye “Tengri” derler. Bunların sapıklıklarından Tanrıya sığınırız” (Kâşgarlı, C. III, 1998: 377-378). Prof. Fuzulu Bayat M. Kâşgarlı'ya ithafen yaptığı araştırmasında belirtiyor ki, bilginlere Tengri denilmesi ile eski Türk toplumunda Gök Tanrı dini icracılarının bu adla adlanmalarını göstermiş olur. Demeli, Gök Tanrı dininin kahini, din adamı olmasa da Türk toplumunda bu kültü iyi bilenlere Tengri denildiğini M. Kâşgarlıdan öğrenmiş oluruz (Bayat, 2008: 170).

Ansiklopedide Tanrı'nın Ugan ve Bayat gibi niteliklerine ve isimlerine rast geliniyor. M. Kâşgarlı, Türk etnik geleneğinde Tanrı'yı simgeleyen kavramlardan biri olan "Ugan"ı *Dîvânü Lugâti't-Türk* sözlüğünde "Kadir, güçlü, kudretli" anlamlarında kullanılıyor ki, bu da Türk Tanrı kavramının kendi ölçüleri olduğunu beraber, "Ugan"ı Büyük bir varlık olarak, yalnızca güclülük, her şeye gücü yeten, kadir kuvvet açısından nitelendiriyor. M. Kâşgarlı'nın "Ugan"la ilgili olarak bahsettiği "kudretli, güçlü, kudretli" anlamları Kadir Tanrını nitelendiren vasflardandır (Beydili, 2007: 106).

M. Kâşgarlı, "Bayat" kelimesi hakkında şöyle yazıyor: "Büyük Tanrı'nın adı. Arguca. Oğuzlardan bir gravürün adı” (Kâşgarlı, C.III, 1998: 171). M. Kâşgarlı, ansiklopedide "Bayat" kelimesinin Oğuz boylarından birinin adı olduğunu belirtiyor ve Argu dilinde "Büyük Tanrı'nın adı" anlamına geldiğini yazıyor. Dolayısıyla "Bayat" çok eskiden birçok Türk halkının tapınıp inandıkları Büyük Tanrı'nın tanımlarından biri olmuştur.

Türklerin Tanrı'ya yakın, Tanrı tarafından sevilen ve Kâşgarlı'nın deyiimiyle belirtsek Tanrı ordusu olduğunu yazarın "Divan"ından açıkça görebiliyoruz: "Yücü Tanrı, benim Türk adlı ordum vardır, onları Doğuda oturttum. Kızdığım ulusun üzerine onları saldırtırım" (Kâşgarlı, C. I, 1998: XVII). Ansiklopedide Allah ve ilahi inanç sistemi hakkında şiir, alkış, beddua, atasözü gibi ifadelere rastlamaktayız. Yazarın ansiklopedide 64 defa "Tanrı" kelimesini kullanması, M. Kâşgarlı'nın Türk dini-mitolojik sisteminin temeli olan Gök Tanrı dini hakkında yeterli bilgiye sahip olduğunu teyit etmektedir. Türkler, İslam'da Tanrı kavramı anlamında Tanrı // Tengri kavramını kullanmışlardır. "Tengri" kelimesi, ansiklopedinin çeşitli ciltlerinde bulunuyor:

"Tengri meni ağırladı" // "Tanrı bana kerem etdi" (Kâşgarlı, C. I, 1998: 53; 300); "Tengri mening işim etti" // "Tanrı benim işimi iyiliğe koydu" (Kâşgarlı, C. I, 1998: 171); "Tengri meni uluğladı" // " Tanrı beni yüceltti" (Kâşgarlı, C. I, 1998: 304); "Tengrige yükün" // "Allaha secde et"(Kâşgarlı, C. II, 1998: 167); "Tengri meni kutgardı" // "Tanrı beni kurtardı"(Kâşgarlı, C. II, 1998: 192; 201); "Tengri ol yerig yaratgan" // "Yeri yaratan Tanrıdır" (Kâşgarlı, C. III, 1998: 52); "Bolsa kiming altun kümüş ırle iter, Anda bolup tengrigerü tapgın öter" // Kimin altını, gümüşü olsa yurtluk yapar, orada oturarak Tanrıya karşı tapkısını (şükranlarımı) öder (Kâşgarlı, C. III, 1998: 251);

Mahmut Kâşgarlı'nın "Divanü lüğat-it-türk" ansiklopedisinde Tanrı'ya övgüler, Tanrı adı ile ilgili beddualar ve alkışlara, atasözleri ve deyimlere rastlıyoruz:

Tanrıya övgüler: "Uluglug Tengrige" // "Ululuk Tanrınıdır" (Kâşgarlı, C. I, 1998: 150); "Kudruk katıgtügdümüz, Tengriğöküş ögdümüz, Kemşip atıg tegdimiz, Aldap yana kaçtımız" // "Kuyruğu sıkı düğdük, Tanrıyı çok öğdük, gemi çekerek atı özengiledik, aldatarak yine kaçtık" (Kâşgarlı, C. I, 1998: 472).

Tanrı adıyla ilgili kargış ve alkışlar: "Tengri kargışı anıñ üze" // "Tanrının laneti onun üzerine" (Kâşgarlı, C. I, 1998: 461); "Tengri kargagınğa ılınma" // "Tanrının lanetine, kargışına uğrama" (Kâşgarlı, C. II, 1998: 288).

Tanrı adıyla ilgili atasözleri ve deyimleri: "Tavar uçun Tengri odhlamadhıp, Uya kadaş oğlınıçınla boğar" // " Mal için, Tanrıyı aklına getirmeyip kardeş oğlunu gerçekten boğar" (Kâşgarlı, C. I, 1998: 86); "Süsegen udhka Tengri münğüz bermes" // " Süsegen, çok süsen öküze Allah boynuz vermez" (Kâşgarlı, C. III, 1998: 364).

Ansiklopedide Tanrı'nın bir dizi işlevine atıfta bulunuyor:

Dünyanın ve insanın yaratıcısı olarak Tanrı. Örneğin, "Tengri ajun türütti, çıgrı udhu tezgenür, Yıldızları çerşeşip tün tün üze yörgeñür" // "Tanrı açını, alemi yarattı, felek durmadan döner, yıldızlar sıra sıra dizilip gece, gündüz üzerine sarılır" (Kâşgarlı, C. II, 1998: 303); " Tengri ol yerig yaratgan" // "Yeri yaratan Tanrıdır" (Kâşgarlı, C. III, 1998: 52); "Tengri yalnğuk türütti" // Tanrı ademi yarattı" (Kâşgarlı, C. III, 1998: 303).

Tanrının üreme işlevi – "Tengri ogul togturdi" // "Tanrı çocuk doğurttu"(Kâşgarlı, C. II, 1998: 173).

Tanrının ölüleri diriltme işlevi– “Tenğri ölüg turgürdi” // “Tanrı ölüyü diriltti” (II C.. 179); “Ölüg tirildi. Tenğri turgürdi” // “Ölü dirildi. Tanrı diriltti” (Kâşgarlı, C. II, 1998: 324)

Tanrı'nın doğa güçlerini yargılama işlevi - “Tenğri kar karlattı” // “Tanrı kar yağdırdı” (Kâşgarlı, C. II, 1998: 347); “Tenğri yaşın yaşnattı” // “Tanrı şımşek çaktırdı” (Kâşgarlı, C. II, 1998: 356); “Tenğri ol yağmur yağıtgan” // “Yağmur yağdıran Tanrıdır” (Kâşgarlı, C. II, 1998: 53);

Tanrının var-devlet bağışlama işlevi– “Tenğri beni bayuttı” // “Tanrı beni zenginletti” (Kâşgarlı, C. II, 1998: 356) ve s.

Mahmut Kaşgarlı sözlüğünde insanın Tanrı karşısındaki yükümlülüklerinden de bahs ediyor: “Umunç Tenğrige tut” // “Umudu Tanrıya tut” (Kâşgarlı, C. I, 1998: 133); “Tenğride sığındım” // “Tanrıya sığındım” (Kâşgarlı, C. II, 1998: 160); “Tenğrige yükin” // “Allaha secde et” ve ya “Tenğrige tapın” // “Allaha tapın” (Kâşgarlı, C. II, 1998: 167); “Tün kün tapun, Tenğrige boynamağıl. Korkup anğar eymenü oynamagıl // Gece gündüz Tanrıya tapın, boyun çekme, ondan korkup çekinerek oynama” (Kâşgarlı, C. III, 1998: 377) ve s.

Kanaatimizce M. Kâşgarlı'nın Gök Tanrı'nın ifadelerini yazarken onlarca İslam inancının yakınlığını hissetmesi, Türk inanç sisteminin temeli olan Gök Tanrı dini hakkında tam bir bilgiye sahip olduğunu göstermektedir.

Kaynaklar:

1. Bayat, F.(2008). Büyük Türk Bilgini ve Ansiklopedisti Kâşgarlı Mahmut. İstanbul: Ötüken Neşriyyat A. Ş.
2. Bayat, F. (2007). Türk Mitolojik Sistemi (Ontolojik ve Epistemolojik Bağlamda Türk Mitolojisi). Cilt: 1. Ankara: Ötüken Neşriyat A.Ş.
3. Beydili (Memmedov), C. (2003). Türk mitoloji sözlüyü. Bakı: Elm
4. Beydili (Memmedov), C. (2007) Türk mitoloji obrazlar sistemi: struktur ve funksiya. Bakı: Mütercim
5. Dede Korkut kitabı. (2004). Ansiklopedik lugat. Bakı: Önder
6. Kafesoğlu, İ. (1998). Türk Milli Kültürü. İstanbul: Ötüken,
7. Kâşgarlı, M. (1998). Divanü Lügat-it-Türk Tercümesi / Çeviren Besim Atalay. Cilt I. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları
8. Kâşgarlı, M. (1998). Divanü Lügat-it-Türk Tercümesi / Çeviren Besim Atalay. Cilt II. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları
9. Kâşgarlı, M. (1998). Divanü Lügat-it-Türk Tercümesi / Çeviren Besim Atalay. Cilt III. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları
10. Günay, Ü., Güngör, H. (2015). Başlangıçlardan Günümüze Türklerin Dini Tarihi. Ankara: Berikan Yayınevi
11. Rasonyi, L. (1993). Tarihte Türklük. Ankara: Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü, Ankara Üniversitesi basımevi

МАҲМУД КОШҒАРИЙНИНГ ҚИЁСИЙ-ТАРИХИЙ ТИЛШУНОСЛИК,
ЛИНГВОГЕОГРАФИЯ, ЭТНОГРАФИЯ, СОЦИОЛИНГВИСТИКА
СОҲАЛАРДАГИ ХИЗМАТЛАРИ

МАҲМУД КОШҒАРИЙ ФЕЪЛЛАРДА ҚЎШИМЧА МАЪНО
ИФОДАЛОВЧИ АЙРИМ АФФИКСЛАР ҲАҚИДА

Рихсиева Гулчехра,

*Тошкент давлат шарқишунослик университети ректори,
филология фанлари номзоди, доцент*

Аннотация. *Феъл ва унинг турли шакллари туркий тилларда кўп тадқиқотлар учун асос бўлган. Феълнинг нутқда, айниқса, поэтик матндаги семантик маъно қирралари ниҳоятда кенг. Қадимги ёзма ёдгорлик “Девону лугати-т-турк” асарида қўлланган феъл шакллариининг семантикасини тадқиқ этиши лингвопоэтик тадқиқотлар учун ҳам аҳамият касб этади. Ушбу мақола феъл шаклларида қўлланган айрим аффиксларнинг семантик ва поэтик функцияларини очишига қаратилган.*

Таянч сўз ва иборалар: *феъл, диахрон аспект, аффикс, семантика, лингвопоэтика, қўшимча маъно.*

Özet. *Türkçede fiil ve onun çeşitli biçimleri birçok bilimsel araştırmaya temel oluşturmuştur. Fiillerin konuşmada, özellikle şiir metinlerinde anlamsal yönleri son derece geniştir. Kaşgarlı Mahmud’un “Divanu Lugatit Türk” (Türkçe Kelimeler Divanı) adlı eserinde kullandığı fiil biçimlerinin anlambilimi açısından incelenmesi, dilbilimsel ve sanatsal açıdan yapılacak araştırmalar için de önemlidir. Bu makalede fiile özgü gramer şekillerinin oluşturulmasında kullanılan bazı eklerin anlamsal ve sanatsal işlevleri ele alınmaktadır.*

Anahtar kelimeler: *“Divanu Lugatit Türk”, Türkoloji, Sözlükbilimi, fiil, artzamanlı görünüş, ek, Anlambilim, Sanatsal dilbilim, ek anlam.*

Туркий тилларда феъл энг қизиқарли ва кўп қиррали тадқиқотларга асос бўлиб келган, унинг синхрон аспектдаги хусусиятларини ўрганиш замонавий тилшунослик учун янги хулосаларни берса, диахрон аспектдаги изланишлар самарасида феълнинг тарихий тараққиёти, шаклларидаги ўзгаришлар ва бугунги кундаги турли талкинларнинг асосини топишда аҳамият касб этади. Шу нуқтаи назардан ўзбек тилида феъл шакллариининг нафақат тузилиши, балки маъноси ва поэтик вазифа бажариши бўйича ҳам қиёслаб ўрганиш тилимизнинг ҳозирги ҳолати бўйича тадқиқотлар учун ўзига хос фикрлар бера олади деб ўйлаймиз. Чунки “Муайян давр тили ҳолатини таҳлил қилиш жараёнида тилшунослик нуқтаи назаридан ҳам, поэтика нуқтаи

назаридан ҳам тарихий ёндашувда нафақат даврий ўзгаришларни, балки барқарор шаклларни ҳам ўрганиш тақозо этилади”. (Якобсон, 1975, 96)

Маълумки, Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғати-т-турк” асари энг қадимги ёзма ёдгорлик сифатида кўп соҳалар қатори лингвистик тадқиқотлар учун манба ҳисобланади. Шу сабабли ҳам феъл шаклларини ўрганишда тил материал, тўпланган луғат бирликлари илк ёзма манба сифатида, шунингдек, халқ оғзаки ижодини намуналари асосида тил ва нутқ бирликларининг чуқур таҳлили учун алоҳида асос бўла олади.

Маҳмуд Кошғарий ўзининг “Девону луғати-т-турк” асарида феълларнинг ясашиши, замони, нисбатлари, вазифадош шаклларида ташқари феълларда истак, хоҳиш, бажарилмаган ишни бажарилгандай қилиб кўрсатиш сингари қўшимча маънолар ҳосил қилувчи аффикслар ҳақида ҳам кенг маълумот берган. Олим бундай қўшимчаларнинг вазифалари, ясашиш усуллари, ўзак ва қўшимча муносабатлари, фонетик, морфонологик хусусияти ва, энг муҳими, қўшимчаларнинг поэтик маъно ифодалашга хизмат қилиши ҳақида ҳам тўхталиб ўтган.

Шу ўринда биз феълларда қўшимча маъно ифодаловчи ана шундай аффиксларнинг бир қанчасига тўхталамиз.

“Девону луғати-т-турк”да келган қўшимчалардан бири *-sa*, *-sä* қўшимчасидир. Кошғарий уни *-sadi*, *-sädi* шаклида келтирган. Бунинг сабаби бу қўшимча билан истак, хоҳиш маъносидаги феъллар ясаиб, иш ва ҳолатнинг ўтган замонда бўлгани, яъни шу ҳолат юз берганини англатади.

Бу ўринда феъл ясовчи *-sa*, *-sä* қўшимчаси билан истак, хоҳиш маъноларини ифодаловчи *-sa*, *-sä* ни қориштирамаслик керак.

Масалан, *-sa*, *-sä* қўшимчаси эски туркий тилда феъл ясовчи қўшимча бўлиб ҳам келади (қаранг: Содиқов 2020,315). Муҳими шундаки, бу қўшимча билан ясалган феълларда ҳам, охир-оқибат истак, хоҳиш маънолари ифодаланган бўлади. Масалан:

er suwsadi – “киши ва бошқалар чанқади, сувсади”. Кошғарийнинг ёзишича, бу сўзда ҳам истак, ҳам хоҳиш маъноси бор (ДЛТ,420)

Ушбу жумлада кечган *suwsadi* феълидаги *-sa*, *-sä* қўшимчаси феъл ясовчидир.

Бу сўз айни маънода ҳозирги ўзбек тилида ҳам сақланган: *сувсади* деймиз; бу “чанқади, чўллади” дегани. Лекин ҳозирги ўзбек тилида *-sa*, *-sä* қўшимчаси ясовчи сифатида унутилгани учун *сувса-* сўзини яхлит лексема сифатида ишлатамиз.

Ёки яна Маҳмуд Кошғарийда:

er qurutsadi – “киши қурт егиси келди” (ДЛТ,435).

er bağirsadi – “кишининг кўнгли жигар истади” (ДЛТ,435).

Буларнинг ўрнида ҳозирги ўзбек тилида *тусади* сўзини ишлатамиз: *кўнгли тусади* сингари; бу “кўнгли шу овқатни тусади; истаб қолди” деганидир.

Ёки яна:
er atin satiḡsadi – “киши отини сотмоқчи бўлди”. Бунинг ўрнида ҳозирги ўзбек тилида “сотгиси келди”; “егиси келди”; “боргиси келди” сингари бирикмалар истак маъносида ишлатилади.

Маҳмуд Кошғарий *satiḡsadi* феълининг маъноси бадий матнда қандай поэтик ва семантик кучга эга эканини кўрсатиш мақсадида шундай шеърни мисол келтирган:

Ewin-barqin satiḡsadi,
 Yuluy berip yariḡsadi.
 Tirig ersa turuḡsadi,
 Aḡar saqinč küni tuḡdi.

Ушбу тўртликдаги *ewin-barqin* – “уй-жойини” дегани; *satiḡsadi* – “сотишни истади; сотгиси келди”; ўша биз юқорида айтгандек, истак маъносидадир. *Yuluy ber-* “фидо қил-; эвазига бирор нарса бер-” дегани; *turuḡsadi* – “тургиси, яшагиси келди”. Сўнги сатрдаги *saqinč* – “қайғу-алам” маъносидадир.

Келтирилган шеърнинг мазмуни шундай бўлади: “Ўзини қутқаришга қурбон қилсин деб, ёв унинг уйини-жойини сотмоқ истади. У тирик қолмоқ истади. Лекин унга қайғули кунлар туққан эди” (ДЛТ,435).

Булардан ташқари, *-sa, -sa* қўшимчаси феълларга қўшилиб, истак, хоҳиш маъноларини ифодалашга хизмат қилади (Содиқов 2020,374–375).

Шу ўринда куйидаги мисолларга эътибор қаратинг:

ol anij tawarin qapsadi – “у унинг молини тортиб олмоқ истади” (ДЛТ,420). Бу жумлада *-sa* қўшимчаси “тортиб ол-” маъносидаги *qap-* феълига қўшилиб, истак, хоҳиш маъносини ифодалаган.

Кейингилай ҳам шундай:

ol suwda čapsadi – “у сувда сузмоқ истади” (ДЛТ,420)

ol yuqaru qopusadi – “у юқори чиқмоқ истади” (ДЛТ,420)

men anī körüsādim – “мен уни кўришни истадим”. Кошғарийнинг урғулашича, бу сўзнинг асли *körüsādim* дир (ДЛТ,420)

men seḡā kelisādim – “мен сенга келишни истадим”. Кошғарийнинг ёзишича, бу сўз *kelisādim* шаклида ҳам қўлланади (ДЛТ,420).

Ёки яна:

ol topiq yuwusadi – “у тўп ва бошқа нарсаларни юмалатишни истади” (ДЛТ,427).

ol meḡā tawar yöwüsādi – “у мол билан менинг кўнглимни олмоқчи бўлди” (ДЛТ,427).

ol tam yiqisadi – “у девор ва бошқа нарсаларни йиқитмоқчи бўлди” (ДЛТ,427).

ol meḡā ton kedürsādi – у менга тўн кийгизмак истади (ДЛТ,435).

Маҳмуд Кошғарийнинг кўрсатишича, *-msindi*, *-msindi* кўшимчаси феъл ўзагига кўшилиб, бажарилмаган ишни бажарилгандай қилиб кўрсатишга хизмат қилади. Бу кўшимчани *di*, *-di* билан бирга беришимизнинг боиси шундаки, бундай феъл доим ўтган замонда бўлади. Кошғарий ҳам уни ана шундай шаклда келтирган.

Қуйидаги мисолларга эътибор беринг:

ol ewkā barımsındi – “у ҳақиқатда уйга бормагани ҳолда, уйга бораётгандек кўринди” (ДЛТ,287);

ol tariğ tarımsındi – “у ҳақиқатда тариқ эмагани ҳолда экаётгандай кўринди” (ДЛТ,287);

ol berü kelımsındi – “у бу ёққа келаётгандек кўринди” (ДЛТ,287);

er külümsındi – “киши ва бошқалар кулимсинди, кулаётгандек кўринди” (ДЛТ,287).

Келтирилган мисолларнинг биринчисида феълнинг асли *bardi* эди, унга *-msindi* кўшимчасини кўшиб, бажарилмаган иш бажарилгандай қилиб кўрсатилмоқда.

Иккинчи мисолда феълнинг асли *tariğ tarıdi* (“дон экди”) эди, кўшимча кўшиб “дон экаётгандай кўринди” маъноси ифодаланган.

Кейинги гапларда феъллар *keldi*, *küldi* бўлган ҳолда, кўшимча кўшиб, бажарилмаган иш ва ҳолат бажарилгандай қилиб кўрсатилган.

Бу ҳодисанинг қолдиқлари реликт ҳолатда ҳозирги ўзбек тилида ҳам орачора сақланган. Ҳозирги ўзбек тилида ҳам *кулумсинди* дейилади. Бироқ бу феълнинг маъноси бироз ўзгарган: у “мийғида кулди; озгина жилмайди” маъноларини англатади. Ёки ҳозир ишлатилаётган *йиғламсинди* сўзида ҳам шундай: “йиғи тўлиб келди-ю, йиғламади” дегани.

Маҳмуд Кошғарий бундай феълларни тузиш қоидаси ҳақида сўз юритар экан, шундай ёзади:

“Феълга бу кўшимча кўшилганда, ўзак охиридаги ҳарф *alif* [*a*, *ä*] ли бўлса, *a*, *ä* чўзғиси, *vāv* [*u*, *ü*] ли бўлса, *u*, *ü* чўзғиси, *uā* [*i*, *i*] ли бўлса, *i*, *i* чўзғиси сақланади. Масалан, ўзакнинг охири *alif* [*a*, *ä*] билан тугаган сўзга мисол: *ol andin nāñ tilämsındi* – “у ундан нарса сўраётгандек кўринди”. Яна: *ol pičäk bilämsındi* – “у пичоқ қайраётгандек кўринди”, аслида қайрамаётган эди. Бу феълларнинг ўзаги, буйруғи *tilä*, *bilä* дир. Буларнинг охири *alif* [*ä*] бўлгани учун, кўшимча кўшилиб, бу хил феъл ясалганда ҳам ўз ҳолида қолади.

Ўзак охири *vāv* [*u*, *ü*] бўладиган сўзга мисол: *ol meñä telim külümsındi* – “у менга кўп кулимсинди, кулаётгандек кўринди”. Яна: *ol yuqaru turumsındi* – “у юқори тураётгандек кўринди”. Аслида у турмаган эди. Бу феълларнинг буйруқ шакли *kül*, *tur* дир. Бу ўзакларнинг охириги ҳарфи *rā*, *lām* ҳарфлари турғун (чўзғисиз) эди. Бу маънони англатиш учун кўрсатилган ҳарфларга ўзакнинг бош ҳарфидаги чўзғига мос чўзғи орттирилди. Ўзак икки ҳарфли бўлиб, бош ҳарфи *alif* [*a*, *ä*] ли бўлса, у вақт ўзак охирига ҳар қачон *alif* [*a*, *ä*] эмас, *uā* [*i*, *i*] чўзғиси орттирилади: *ol ewkā barımsındi* – “у уйга боримсинди,

бораётгандек кўринди”; *er suwqa qarimsindi* – “киши сувга чиқаётгандек кўринди”. Бу феълларнинг охириги ҳарфи юқорида биз айтган қоидага мувофиқ *alif* [a, ā] қилинмади.

Икки ҳарфли феълларда ўзакнинг бош ҳарфи *yā* [ī, i] ли бўлса, ўзак охири ўз ҳолича қолади. Чунончи, *ol ewkā kirimsindi* – “у уйга кирымсинди, кираётгандек кўринди”; *ol yarmaq terimsindi* – “у танга ва бошқа нарсаларни теримсинди, тераётгандек кўринди”.

Бу уч ҳарфдан *mīm* доим чўзғисиз бўлади; *sīn* доим *yā* [ī, i] ли бўлади; *nūn* ҳарфи ҳам доим турғун (чўзғисиз) бўлади. Чўзғиларнинг ҳаммаси ўзакнинг олдинги ҳарфига мослашади” (ДЛТ,287).

Юқорида айтилганлардан англашиладики, феълнинг ўзаги [a], [ā] ёки [ī], [i] унлилари билан тугаган бўлса, қўшилаётган *-msindi*, *-msindi* қўшимчаси аслидай сақланади. Агар феълнинг ўзагида лабланган [u], [ū] унлилари келган бўлса, лаб уйғунлигига мос равишда, қўшимчанинг олдида ҳам қисқа [u], [ū] унлилари орттирилади: *-umsindi*, *-ūmsindi* сингари.

Орттирма нисбатда келган, шунингдек, бир неча бўғинли, яъни кўп ҳарфли феълларда бу қўшимчанинг қўшилиш тартиби шундай. Кошғарий ёзади:

“Уч ҳарфлиларга келганда, *ol anī qačrumsindi* – “у уни ҳақиқатда қочирмагани ҳолда, қочираётгандек, қувлаётгандек кўринди”. Яна: *ol anīñ yazuqīn kečrumsindi* – “у ҳақиқатда унинг гуноҳини кечирмагани ҳолда, унинг гуноҳини кечираётгандек кўринди, кечримсинди”. Бу ерда *rā* ҳарфи *zamma* ли, яъни *vāv* [u] билан талаффуз қилинади. Чунки *qačur* сўзидаги *čīm vāv* [u] ли эди. Уни чўзғисиз қилиниб, *čīm* нинг чўзғиси *rā* га кўчирилди. Уч ҳарфлиларда иккинчи ҳарфдаги чўзғи учинчи ҳарфга кўчирилди, чунки ўрта ўзак охирига бош ҳарфдан кўра яқиндир.

Тўрт ҳарфлиларга келсак, унинг мисоли: *er at suwğarimsindi* – “киши от суғораётгандек кўринди”. Бу ерда ёнидаги *ğayn* ҳарфи *alif* [a] бўлгани ҳолда *rā* ҳарфи *yā* [ī] билан талаффуз қилинади, чунки *alif* [a] *yā* [ī] га тесқари эмас. Икки ҳарфлиларда ҳам аҳвол шундай. Чунончи, *barimsindi* – “боримсинди, бораётгандай кўринди” каби. Лекин *tilämsindi* (“тиламсинди, тилаётгандай кўринди”) сўзи *yā* ли эмас, *alif* лидир. Чунки бу тўрт ҳарфли ўзаги *tilä* дир. Уч ҳарф *mīm*, *sīn*, *nūn* қўшишда *alif* ни ёзувда ташланди, лекин талаффузда сақланди. Яъни *lām* ҳарфи *yā* ли қилинмай, *alif* ли ҳолида қолдирилди. Шундай қилинмаганда, бу уч ҳарфли икки ҳарфли бошқа феъл билан алмашилишга элтар эди. Масалан: *yarındaq tilimsindi* (“у қайиш тилаётгандек кўринди, тилимсинди”) гапидаги *tilimsindi* феълени *tilimsindi* феъли билан адаштиришга, шубҳага сабаб бўлар эди. Шунга ўхшаш, *pičäk bilämsindi* (“пичоқ қайраётгандек кўринди”) гапидаги *bilämsindi* феълида ҳам *yā* [ī] чўзғиси орттирилса, *iš bilimsindi* (“ишни биладигандек кўринди”) гапидаги *bilimsindi* феъли билан адаштириш юзага келар эди. Ҳолбуки, булар бири уч ҳарфли, иккинчиси икки ҳарфли, тамом бошқа феъллардир. Уч ҳарфли феълларда сўзнинг ўртасидаги чўзғи сўнги ҳарфга кўчирилиш қоидасини юқорида

айтган эдик. Масалан, *qačur*, *kečür* феълларида *čim* ҳарфининг *vāv* [*u*, *ü*] чўзғиси ташлангач, ташланган *vāv* [*u*, *ü*] чўзғиси *rā* га қўчирилди: *qačrumsindi* – қочираётгандай кўринди. *alif yā* га тескари бўлмагани учун, ўз ҳолича қолдирилади, аммо *vāv* чўзғиси *yā* га тескаридир. Шунинг учун ўзгартирилиб, *yā* қилинди, деган қоидани юқорида баён қилдик.

tođgurumsindi – “тўйдираётгандек кўринди”; *ol anī tođgurumsindi* – “у уни тўйдираётгандай кўринди”.

Бу баён қилган қоидаларим барча туркий тилларда ҳамма феъллар учун умумийдир. Ҳеч бир нарса (феъл) бундан четда қолмайди. Бу хил феълларда бу маънони англамайди биргина беш ҳарfli феълдан бошқа бир сўз йўқ. У *ol meñā yaramsindi* (“у менга хушомад қилди, ялтоқланди”) феълдир” (ДЛТ, 288).

Кўринадики, орттирма нисбатдаги *qačur-*, *kečür-* феълларига *-msindi*, *-msindi* кўшимчаси қўшилганда кўшимча олдида ортирилади қиска [*u*, *ü*] унлилари ҳисобига нисбат кўшимчасидаги лабланган [*u*, *ü*] унлилари туширилади; *suwğar-*, *tođgur-* феълларига қўшилганда эса ҳеч бир ўзгариш бўлмайди. Кошғарий келтирган ушбу қоидалар сўзнинг фонетик-фонологик структураси ва ўзак ҳамда кўшимчанинги семантик муносабатини очиқ беришга қаратилганлиги билан аҳамиятлидир.

Қадимги ёзма ёдгорлик бўлган Маҳмуд Кошғарийнинг девони орқали феъл шакллариининг тараққиётини кўриш учун ниҳоятда қизиқарли материалларни топиш мумкин, бу асар тилшунослар учун ҳозирги кунгача асос манба бўлиб келмоқда. Юқорида келтирилган айрим мисолларнинг ўзигина тил бирликларининг семантикаси, хусусан, феъл шакллариининг маъно товланишлари бўйича қатор изланишларни талаб этиши аниқлигини кўрсатмоқда, бу эса лингво-поэтик тадқиқотлар доирасида диахрон аспектдаги ёндашувлар асосида янги илмий хулосаларни келтириб чиқаради.

Фойлаланилган адабиётлар:

1. ДЛТ – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк [Туркий сўзлар девони]. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Тошкент, 2017.
2. Якобсон Р. Лингвистика и поэтика. // Структурализм: "за" и "против". М., 1975. С. 193-228.
3. Содиқов 2020 – Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Тошкент, 2020.

**“ДЕВОНУ ЛУГАТИТ-ТУРК” МАҲМУД КОШГАРИЙНИНГ
ИЛМИЙ-ГЕОГРАФИК ТАФАККУРИНИНГ ЮКСАК
МАҲСУЛИ СИФАТИДА**

Омонов Қудратулла,

*Тошкент давлат шарқшунослик университети проректори,
филология фанлари доктори, профессор*

Махмудов Элёр,

*Тошкент давлат шарқшунослик университети проректори,
иқтисод фанлари номзоди, доцент*

Аннотация. Кишилик ер юзида яшай бошлаган кезлардан бошлаб теварак-атроф билан танишув ишига киришган. Ушбу танишувнинг биринчи қадами унга ном қўйишдан бошланган. Шунинг учун теварак-атрофга қўйилган номлар тил лугат бойлигининг нисбатан эски қатлами ўлароқ баҳолаш имкониятини беради. Шу жиҳатдан бизга қадар етиб келган ҳамда топономик маълумотлар акс этган ёзма манбалар муайян минтақанинг тарихи, халқнинг географик тафаккури ва тасаввурларини ўрганишида айрича аҳамият касб этади.

Маҳмуд Кошгарийнинг “Девону лугатит турк” асари филологик тадқиқот бўлишига қарамасдан унда турли фанларнинг маълумотларига дуч келиш мумкин. Айниқса, асарда келтирилган турли-туман географик маълумотлар ва китобдаги ер шари харитаси кишини ҳайратга солади.

Мақолада XI асрнинг машҳур алломаси Маҳмуд Кошгарийнинг “Девону лугатит турк” (“Туркий сўзлар девони”) асарида келтирилган ер юзининг шарқий ярим шарига тўғри келувчи жузрофий харита ва унда келтирилган *Сабарқа* топоними мисолида Кошгарий ва туркий халқларнинг юксак географик тафаккур ва тасаввурлари таҳлил этилади.

Таянч сўз ва иборалар: *Аш-Шарқ (шарқ), географик тафаккур, топоним, Маҳмуд Кошгарий, “Девону лугатит турк”, Сабарқа, ер юзи харитаси, Япония*

Abstract. From the moment when mankind began its existence on earth, it immediately proceeded to the knowledge of the environment. The first step of this acquaintance was the assignment of names to each subject and environmental phenomenon. Therefore, despite the fact that the names of the objects and phenomena surrounding it have changed over time, to some extent it makes it possible to evaluate them as a relatively outdated layer of the lexical stock of the language. From this point of view, written sources containing topographic information play a peculiar role in the study of the history of a particular region, geographical thinking and the name of the people. In this article, the author, based on the written sources of our ancestors that have come down to us, made an attempt to collect information about the distant country of the East, the so-called “Land of the Rising Sun” – Japan.

This article is about the geographical map of the eastern hemisphere, given in the work of Makhmud Kashgari “Divanu lug’atit turk” (“Dictionary of Turkic words”, 1074 year) and the toponym “Сабарқа” that occurs in it.

This map of Makhmud Kashgari is recognized as one of the most ancient maps, known to science based on geographical representations of the Turkic peoples.

On the upper part in the eastern most corner of the side, which is indicated under the name "Ash-shark (east)" the toponym "Ĉabarqa" is given. The fact that the ancient Turkic peoples under the toponym "Jabarka" meant Japan is fully argued on the basis of scientific data.

Keywords and expressions: East, geographical thinking, toponymy, Japan, Shandong province, Mahmud Kashgari, "Divanu lug'atit turk", Jabarqa, map.

Özet. İnsanoglu yeryüzünde yaşamaya başladığından beri çevresiyle tanışmaya çalışmıştır. Söz konusu tanışmanın ilk adımı onlara ad vermekle başlamıştır. Bundan dolayı çevredekilere verdiği adlar kelime dağarcığının nispeten eski düzeyi olarak değerlendirilebiliriz. Bu açıdan bize kadar ulaşan ve toponimik bilgileri bulunduran el yazma kaynaklar belli bir bölgenin tarihiü halkın coğrafik düşüncesi ve tasavvurlarını incelemede ayrı bir önem arz etmektedir.

Kaşgarlı Mahmud'un Divanu Lügati't Türk eseri filolojik bir araştırma olmasıyla birlikte farklı alanlarla ilgili bilgilerle karşılaşabiliriz. Ayrıca eserde bulunan çeşitli coğrafik bilgiler ve kitaptaki Yer küresinin haritası insanı hayrete düşürür.

Makalede 11.yüzyılın ünlü allamesi Kaşgarlı Mahmud'un Divanu Lügati't-Türk eserinde verilen Yer yüzünün Doğu yarıküresini yansıtan coğrafik harita ve oradaki Ĉabarqa toponimi örneğinde Kaşgarlı ve Türk halklarının yüksek coğrafik düşünce ve tasavvurları ele alınacaktır.

Anahtar kelimeler: Eş-şark, coğrafik düşünce, toponim, Kaşgarlı Mahmud, Divanu Lügati't-Türk, Ĉabarqa, Yer küresinin haritası, Japonya.

Энг қадим кезлардан бошлаб тупроғимизда яшаган аждодларимизнинг географик тафаккури ва билими анчайин юксалган эди. Бизгача етиб келган ёзма ва топономик материаллар ушбу фикримизни далиллайди.

Кишилик ер юзида яшай бошлаган кезлардан бошлаб теварак-атроф билан танишув ишига киришган. Ушбу танишувнинг биринчи қадами унга ном қўйишдан бошланган. Шунинг учун теварак-атрофга қўйилган номлар йиллар ўтиши билан ўзгаришига қарамасдан маълум маънода тил луғат бойлигининг нисбатан эски қатлами ўлароқ баҳолаш имкониятини беради. Шу жиҳатдан бизга қадар етиб келган ҳамда топономик маълумотлар акс этган ёзма манбалар муайян минтақанинг тарихи, халқнинг географик тафаккури ва тасаввурларини ўрганишда айрича аҳамият касб этади.


Минтақамизда IX асрдан бошлаб ижтимоий, табиий, географик фанлар бўйича тадқиқотлар яратиш ишлари кучая бошлади. Айниқса, X асрнинг иккинчи ярмидан ҳокимиятни идора қилиш қорахонийлар сулоласидан бўлган ҳукмдорлар қўлига ўтиши билан маълум бир муддат сўниб қолган ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётда яна жонланиш, ривожланиш бошланди, дунё сахнасида туркий қавмларнинг мавқеи қайтадан ўса борди. Ана шу кезлардан бошлаб, ЕврооСИё қитъасида қорахонийлар номи билан тарихга кирган йирик империяга асос солинди. Бу эса туркий халқларнинг нуфузини ортишига ва бошқа элларнинг туркий тилни ўрганишга бўлган эҳтиёжини ошишига сабаб бўлди. Ана шу юзага келган эҳтиёжни қондириш йўлида XI асрнинг доврўғли алломаси Маҳмуд Кошғарий ўзининг "Девону луғатит

турк” (“Туркий сўзлар девони”) асарини яратди. Асар ҳижрий 466 йили (мелодий 1074 йилда) ёзиб тугалланган. Кунимизгача “Девону луғатит турк”нинг битта қўлёзмаси сақланган. Уни ҳижрий 664 (мелодий 1266 йилда) котиб Муҳаммад ибн Абубакр ибн Абдулфатҳ ас-Савий ад-Дамашкий кўчирган. Котибнинг ёзишича, мазкур қўлёзма Маҳмуд Кошғарийнинг ўз қўли билан битилган нусхасидан кўчирилган.

Асар филологик тадқиқот бўлишига қарамасдан унда турли фанларнинг маълумотларига дуч келиш мумкин. Айниқса, асарда келтирилган турли-туман географик маълумотлар ва китобдаги ер шари харитаси кишини ҳайратга солади. “Девону луғатит турк” асарининг муқаддимасида “Турк табақалари ва қабилаларининг баёни ҳақида” деган бўлим бор. Ушбу бўлимда Маҳмуд Кошғарий ғарбдан бошлаб шарққа ёйилган туркий қабилалар тўғрисида хабар бера туриб, “бу қабилаларнинг турар жойларини бу доирада кўрсатдим” деган қизиқ бир маълумотни келтиради [1]. Асар қўлёзмасида ҳам доира шаклидаги ер юзининг шарқий ярим шарига тўғри келувчи жуғрофий харита берилади. Муаллиф яна бир ўринда ана шу доира шаклидаги харитага ишора қилиб, “Рум ва Мочингача бўлган турк шаҳарларининг ҳаммасининг бўйи беш мингдан саккиз минг фарсахгача етади. Бу шаҳарлар ўрнини аниқлаш мақсадида уларнинг ҳаммасини ер шаклидаги доирада кўрсатдим”, дейди [2]. Маҳмуд Кошғарийнинг ушбу харитаси ҳозиргача дунё фанда маълум бўлган туркий халқларнинг географик тасаввурлари асосида яратилган энг қадимги хариталардан бири сифатида тан олинади [3].

Харитада ер юзи томонларининг жойлашуви ниҳоятда қизиқ. Хаританинг юқори қисмида шарқ – кунчиқар, пастда ғарб – кунботар, ўнгда жануб ва чапда шимол томони жойлаштирилган. Бу эса энг қадимги туркий халқларнинг оламнинг жойлашуви ҳақидаги “тўрт бўлунг” (тўрт томон) тўғрисидаги тасаввурлари билан боғлиқ. Туркий қавмларнинг дунё томонлари билан боғлиқ тушунчалари қадимги туркий битигларда яхши келтирилган [4]. Харитада томонларнинг бу кўринишда берилиши ҳам шарқ мусулмон географик билимларидан ажралиб туради. Мусулмон халқларининг географик тафаккурида асосий томон сифатида “ғарб, мағриб, кун ботар, қибла” олинади. Кошғарий харитасининг юқори қисмида “Аш-Шарқ (шарқ, кунчиқар)” деб кўрсатилган.

Шу ўринда харитада келтирилган бир географик ном мисолида Маҳмуд Кошғарий ва туркий халқларнинг юксак географик тафаккур ва тасаввурларини таҳлил этсак. Маҳмуд доира деб атаган хаританинг шарқ томонининг энг шарқий чеккасида *Şabarqa* деган топоним берилади (1-расм).



1- расм. Харитадаги “Аш-Шарк (шарқ, кунчиқар)” деб кўрсатилган ва Ъабага топоними берилган жой

Ушбу топоним остида аждоларимиз шарқдаги энг олис давлат кун чиқар юрт - Японияни назарда тутишган деган фикрлар илм аҳли орасида юради. Ушбу топоним анача йиллардан буён тадқиқотчиларни ҳам қизиқтириб келади. Атоқли рус тарихчиси В.Бартольд ушбу ном остида қадимги туркий халқлар ҳозирги Япония мамлакатини кўзда тутган деган, кўзқарашни илгари сурган эди.


Ундан кейин немис шарқшуноси А.Герман ва тарихчи И.Умняков ҳам В.Бартольд фикрини қувватлашган [5]. Бирок, айрим олимлар ушбу фикрга шубҳа билан қарашган. Чунончи, мусулмон шарқ тарихий географик мероси бўйича йирик олим И.Ю. Крачковский мазкур фикр у қадар ишонарли эмаслигини қайд этган [6]. Ўтган асрнинг 60- йилларида Ъабага топоними остида қадимги туркий халқлар ҳақиқатдан ҳам, айнан, Японияни назарда тутилганини ўзбек олими, тарихий география бўйича таниқли олим Ҳ.Хасанов ёзма манбалар асосида исботлашга ҳаракат қилган [7].

Юқоридаги тадқиқотлардан келиб чиққан ҳолда Ъабага топоними Японияга тўғри келишини бешта омилга асосланиб таҳлил этиш мумкин. Биринчи, японияликлар ўз юртларини “Ниппон” деб аташади. хитойликлар мазкур топонимни “Жибень (кун чиқар)” ироглифи билан беришади ва унга “го (мамлакат, давлат)” лексимасини кўшиб, Жибеньго (Япония) деб аташади. “Жабарқа” ва “Жибеньго” бир топонимнинг икки хил фонетик вариантыдир.

Иккинчи, қадимги туркий халқларнинг географик билимлари юқори даржада бўлиб, кунчиқарда Ъабага номли юрт борлигини аниқ-таниқ билишган. Чунки VI асраёқ туркий қавмлар Шарқий чегараси Корея ярим оролига туташ Сарик денгиздан Ғарби – Қора денгизга қадар чўзилган улкан салтанат – Турк хоқонлигига асос солган эди [8]. Тарихдан туркий хоқонликнинг қаноти ва

ҳимояси остида яшаган қавмлардан бири киданларнинг Японияга бориб турганлари тўғрисида ҳам қайдлар учрайди [9].

Учинчи, Аждодларимиздан ҳозирга қадар етиб келган ва бизнинг она тилимизда ёзилган энг эски ёзма ёдгорликлардан бири қадимги туркий-рун хатида тошларга ўйиб ёзилган туркум ёдгорликлар киради. Ёдгорликларнинг асосий қисми VI-VIII асрларда битилган. Мазкур ёзма обидаларда туркий халқларнинг географик тафаккури билан боғлиқ қимматли маълумотлар учрайди. Чунончи, иккинчи кўк турк хоқонлигининг асосчиси Элтариш хоқоннинг кичик ўғли, шаҳзода Кул тигин вафоти муносабати билан 732 йилда ўрнатилган битиг тошда туркий аждоларимизнинг шарқ томон билан боғлиқ жуғрофий тасаввурлари келтирилган. Мана ўша матн: *İlgärü kün toğsuqa, birgärü kün ortusiñaru, qurıǵaru kün batsiqiña, yirǵaru tün ortüsiñaru, anta icräki bodun qo[p] m[äj]ä kör[ür...]n bunča bo[dunuǵ] qop itdim. Ol amti añiǵ yoq..* – “Олдинга – кун чиқарга, ўнгга – жанубга, орқага – кун ботарга, чапга – шимолгача бўлган ораликдаги халқ бутунлай менга қарайди. Шунча халқни шод этдим. У энди ёвуз эмас”. Битиг муаллифи фикрини давом эттириб ёзади: “*İlgärü Şantuñ yaziqa tägi sülädim, taluуqa kiçig tägmädim*”. – “Шарққа – Шантунг даштига қадар лашкар тортдим, денгизга бир оз етмадим” [10]. Энди ана шу жумлани таҳлил этсак. Матнда келган “Шантунг” топоними Хитойнинг энг шарқида Сарик денгиз бўйида жойлашган ҳозирги Шаньдун провинциясидир. Мисолдаги *taluuqa kiçig tägmädim* жумласини “денгизга бир оз етмадим”, деб ўгириш мумкин. Бу ердаги *taluu* – “денгиз” дейилганда, ҳозирги Сарик ва Шарқий Хитой денгизи назарда тутилган. Мазкур худудни яққолроқ тасаввур қилиш учун бу худуднинг харитасини беришни ўринли деб биламиз (2- расм).



2- расм. Турк хоқонлиги қўшинлари ўрнашган худуднинг ҳозирги харитада кўриниш

Матндан шу далил келиб чиқадики, Турк хоқонлигининг кўшинлари шарқда – Шаньдун провинцияси худудларини босиб олган ва хоқонликнинг энг шарқий чегараси сифатида ушбу худуд қайд этилган. Туркий халқларнинг кўшинлари ана шу худудда эканликларида Шаньдун провинциясидан кейинги Сарик ва Шарқий Хитой денгизидан сўнг куруклик худудлари борлигини эшитган бўлиши ва Япония тўғрисидаги ўзларида мавжуд географик билимларни ўша кезларда мукаммалаштирган бўлишлари мумкин. Чунки мазкур худуд аҳолиси Япония мамлакати тўғрисида яхшигина маълумотга эга бўлган. Чунки илк ўрта асрлардаёқ IV – VI юзйилликларда Хитой ва Япония ўртасида маданий, маърифий алоқалар яхши йўлга қўйилган бўлган. Хитой иероглифик ёзувининг ёки буддавийлик динининг шу худуд орқали Японияга кириб бориши бу фикрларимизни тасдиқлайди. Рус японшуноси В.Гривнининг тадқиқотларига кўра дастлабки босма китоблар ҳам VIII асрдан бошлаб Шаньдун провинцияси орқали кириб борган [11].

Юқоридаги маълумотлардан туркий халқларнинг Ислом дини кириб келгунга қадар ҳам географик билимлари юқори бўлгани ва Ислом дини кириб келиши билан Яқин ва Ўрта Шарқ халқлари Марказий Осиёдан кейинги Шарқ томондаги мамлакатлар, хусусан, Япония тўғрисидаги географик билимларни, айнан, туркий халқлардан ўрганган. Бунинг исботини кейинчалик яратилган асарларда аниқ кўрамиз.

Тўртинчи, Маҳмуд Кошғарий харитасининг маркази саналувчи Боласогундан (ҳозирги Иссиқкўл атрофлари) Япониягача бўлган бўлган масофа билан Африкадаги Эфиопиягача (Билоди Ҳабаш) бўлган оралиқ масофа тенг. Ҳозирги замонавий хариталарда ҳам ушбу масофалар деярли тенг.

Бешинчи, энг асосийси, Маҳмуднинг девонда келтирган ўз изоҳи: “*Ўабарқа* ликларнинг *узоқда туриши*, *Māsīn* билан уларни *катта денгиз айриб тургани* учун уларнинг тиллари билинмайди” (таъкид бизники – Қ.О., Э.М.) [12].

Шу ўринда яна бир маротаба Маҳмуд Кошғарий асарига мурожаат қилсак. Маҳмуд девонда келтирган жой номларини қандай мезон асосида берганлигини ҳам изоҳлаб ўтган. У ёзади: “*Китобда кўрсатилган тоғ отлари, кўл, водий, денгиз отлари фақат мусулмон шаҳарларидаги номлардир. У номлар ҳар вақт қўлланадиган ва машҳур бўлганлари* учун ёздим. *Машҳур бўлмаганларининг кўпларини тушириб қолдирдим. Мусулмон бўлмаганларидан баъзиларининг шаҳар номларини ҳам ёздим, баъзиларини қолдирдим. Машҳур бўлмаганларини ёзшидан фойда йўқ*” (таъкид бизники – Қ.О., Э.М.) [13]. Ушбу изоҳдан чиқадики хулоса шуки, девондан ўрин олган “*Жабарқа*” топоними қадимги туркий қавмлар орасида машҳур бўлган ва бу ном остида ер юзининг энг шарқий қисмида жойлашган кун чиқар юрт – Япония тушуниланган.



3- расм. Маҳмуд Кошғарий харитасининг ҳозирги қата тикланган кўриниши

Айни ўринда Ғарб олами Япония тўғрисидаги дастлабки маълумотларни итальян сайёҳи Марко Полонинг асарлари орқали билганлигини ҳам қайд этиш ўринли бўлади. Марко Поло кунчиқар юрт тўғрисидаги маълумотларни Хубилайхон саройида эшитган. У 1266 йили ҳокон саройида яшаган. Тарихдан бизга яхши маълумки, Хубилайхон саройидаги асосий мулозимлар ва ҳокон маслаҳатчилари туркий қавмларнинг вақллари эди. Шу боис, Марко Поло ҳам Япония номини туркий талаффуз асосида “Чипангу” шаклида ўз сайёҳатномасига киритган. Демак, Маҳмуд Кошғарий Марко Полондан икки юз йил олдин ўз харитасида Ъабағқа топонимини келтирган ва кунчиқар юрт тўғрисидаги маълумотлар билан шарқ мусулмон олами ваққларини таништирган.

Умуман, илк ва ўрта асрларда Марказий Осиёда яшаган аждодларимизнинг географик билимлари ва тасаввурлари ниҳоятда юқори даражада бўлиб, унинг ёрқин намунасини, айнан, Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғатит турк” асирида учратамиз. Ҳатто, кейинчалик Ислон дини кириб келиши билан Яқин ва Ўрта Шарқ халқлари Марказий Осиёдан кейинги Шарқ томондаги мамлакатлар, хусусан, Япония тўғрисидаги географик билимларни, айнан, туркий халқлардан ўрганган.

Фойдаланилган адабиётлар:

- [1]. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғатит-т-турк. Тошкент, 2017. 24-б.
- [2]. Кошғарий Маҳмуд. Ўша аср. Тошкент, 2017. 25-б.

- [3]. journals.rudn.ru/semiotics-semantics/article/download/16338/14664.
- [4]. Қосимжон Содиков. Қадимги турк фалсафаси. Тошкент, 2008. 104-107- б.
- [5]. Hermann F. Die älteste, türkische Weltkarte, Imago mundi, Jahrbuch der alten Kartographie, I. Berlin, 1935. S. 21-28; Умняков И.И. Самая старая турецкая карта мира. «Труды Самаркандского ГПИ им. А.М. Горького». I, вып. 1, Самарканд, 1940, стр. 103-132.
- [6]. Крачковский И.Ю. Избранные сочинения в 6 тт. Том 4. Арабская географическая литература. М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1957, стр. 268.
- [7]. Хасанов Х. Махмуд Кошғарий. Т., 1963. 57-60- б.
- [8]. Гумилев Л. Три исчезнувших народа. // Страны и народы Востока: География, этнография, история. - М., 1961. - Вып. II. - стр. 105.
- [9]. Малов С.Е. Памятники Древнетюркской письменности. М., Л., 1951, стр., 27.
- [10]. Содиков Қ. Эски туркий битиглар. Т., 2009. 31- б.
- [11]. Гривнин В.С. Японская печатная книга VIII – первой половины XIX в. (Автореф. дис). М., 1962.
- [12]. Махмуд Кошғарий. Ўша аср. Тошкент, 2017. 25-б.
- [13]. Махмуд Кошғарий. Ўша аср. Тошкент, 2017. 24-б.

**“ДЕВОНУ ЛУГАТИТ-ТУРК” ЛЕКСИКАСИ ТАҲЛИЛИ
ҲАМДА ҲОЗИРГИ ЗАМОН ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИ
ОЛДИДА ТУРГАН МУҲИМ ВАЗИФАЛАР**

Абдурахманова Меҳрибон Дустмуратовна,
Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети
Ўзбек ва рус тиллари кафедраси катта ўқитувчиси

Abstract. *Mahmud Kashgari occupies a special place in the history and development of the Uzbek language. With a careful study of the work "Devonu lugotit Türk", which contains very valuable information about phonetics, grammar and vocabulary of the Turkic languages, we can follow the path of the historical development of our language, rediscover the interrupted roots and enrich our language. This article emphasizes that the bulk of the words in the dictionary are stable in the modern Uzbek language, comparing them with dialects of the Uzbek language, we can see that they live in our language, and also analyzes words that are not used today, but which we need. The author comes to the conclusion that the study of the vocabulary of "Devonu lugotit turk" and the problems associated with this issue, including a comparative analysis of links with the work, the study of links with dialects of specific regions, research on the basis of identical or similar materials contained in them, will allow to find evidence testifying to the progressive development of the Uzbek language, to reveal the deep roots and foundations of the development of the modern Uzbek literary language, to enrich the modern Uzbek literary language.*

Keywords and expressions: study of vocabulary "Devonu lugotit turk", comparative analysis of Uzbek words, dialect basis, study of the language of a historical source.

Özet. Kasgarlı Mahmut, Özbek dilinin tarihinde ve gelişiminde özel bir yere sahiptir. Türk dillerinin fonetik, gramer ve söz varlığı hakkında değerli bilgiler içeren "Devanı lugat it Türk" adlı eseri dikkatle inceleyerek dilimizin tarihsel gelişim yolunu izleyebilir, yok olan kökleri yeniden keşfedebilir ve dilimizi daha da güzelleştirebiliriz. zenginleştirebiliriz. Bu makale, sözlükteki kelimelerin büyük kısmının modern Özbekçede sabit olduğunu, dilimizde yaşayan dil, lehçelere kıyasla yaşadıklarını, aynı zamanda günümüzde kullanılmayan ancak ihtiyacımız olan kelimeleri de analiz etmektedir. Yazar, "Devanı lugat it Türk" sözlüğü ve bu konuyla ilgili sorunları, eserle ağızların karşılaştırmalı analizi, belirli bölgelerin ağızlarıyla ilişkilerinin incelenmesi, aynı veya benzer materyaller temelinde araştırma dahil olmak üzere inceler. Modern Özbek edebi dilini daha da zenginleştirmek için modern Özbek edebi dilinin gelişiminin görkemli köklerini ve temellerini belirlemeye, Özbek dilinin kademeli gelişimine dair kanıtlar bulmayı sağladığı sonucuna varır.

Anahtar kelimeler: "Devanı lugat it Türk" sözlüğünün incelenmesi, Özbek lehçelerinin karşılaştırmalı analizi, diyalektik temel, tarihsel kaynak dil.

Тилимизни бойитиш, сўз хазинамиз бойлигини янада ошириш учун нафақат ўзлашма сўзлар, неологизмларни, балки ички манба – тарихий асарлар, шева-ларда яшаб келаётган бой меросимизни ўрганиб, уларни фаоллаштириб, адабий тилимизда бўлмаган сўзларни янги маънода бўлса ҳам, истеъмолга киритиш мақсадга мувофиқдир. Қадимги туркий тил, эски ўзбек тили, ўзбек шевалари ҳозирги ўзбек адабий тилининг томири ва тараққиёт асосидир.

Шу маънода йирик тилшунос олимларимиз олиб борган илмий тадқиқотларни давом эттирган ҳолда, тилимизни тарихий тараққиёт йўлларида юриб, тарихий манбаларимизни синчиклаб ўрганиш билан узилган илдизларини қайтадан кашф этишимиз ва тилимиз тарихини янада бойитишимиз мумкин.

Ўзбек тили тарихда турли ҳолларни кечирди ва ўз илдизларидан юлиниб олингандек эди. Тилимиз тарихининг тараққиёт даврлари орасининг узилиши, бой тил меросимиздан фойдаланмаслик оқибатида биз мумтоз асарларимизни луғатсиз тушуна олмайдиган даражага келдик. Ваҳоланки, XI аср қадимги туркий филологиясининг дурдона асари "Девону луғотит турк"ни ўзбек тилига таржима қилган тилшунос олим профессор Солих Муталлибов луғатни таҳлил қилар экан, "Девондаги сўзларнинг бир қисми тил тараққиёти қонунларига мувофиқ архаик ҳолга тушган бўлса, асосий қисми турли ҳолларда ёки бутунлай ўзгаришсиз ва баъзи ўзгаришлар билан бизга етиб келган", деб ёзади.¹ Олим ўз тадқиқотларида XI аср ёзма ёдгорликлари тил фактларининг асосий қисми ҳозирги ўзбек тилида барқарор эканлигини таъкидлаб, "дарров сезилмовчи баъзи хусусиятлар ҳам бор. Лекин уларни жиддийроқ текширганда, яъни жонли тил, диалектларга қиёс

¹ ДЛТ - Махмуд Кошғарий. Девону луғатит турк, I жилд, Тошкент 1960-1963, 36-бет

қилганда, улар ҳозирги тилда ҳамон қаердадир борлиги аниқланади”, деб қайд этади.¹

Шу жиҳатдан кўплаб туркий тилларнинг фонетикаси, грамматикаси ва сўз бойлиги ҳақида жуда қимматли маълумотларни ўз ичига олган "Девону луғотит турк" асари лексикасини ҳозирги ўзбек тили ва ўзбек шевалари билан қиёсий ўрганиш аҳамиятлидир.

Дарҳақиқат, Маҳмуд Қошғарий асарининг аҳамияти беқиёс. У ҳақли равишда бутун турк дунёсининг бойлиги ҳисобланади. Қимматбаҳо адабий, этнографик, тарихий ва маданий ёдгорлик бўлган ушбу асар туркий халқларнинг тили тарихи ва лексикологиясини ўрганишда нодир манба бўлиб ҳисобланади. Тилшунос, адабиётшунос, тарихчи, этнограф, фольклоршунос ва бошқа туркшунос олимларнинг такрор-такрор унга мурожаат этишлари бунинг яққол далилидир.

Шу билан бир қаторда Маҳмуд Қошғарий ўз замонасининг диалектолог сифатида ҳам ўша даврдаги қабилалар ва уларнинг тилини чуқур ўрганиб, лексик-грамматик, фонетик ўзига хосликларини тадқиқ этган. Қабиланомларини батафсил изоҳлаган. Уларнинг географик жойлашувига аниқ маълумот берган: “Рум яқинидаги қабилалар бажанак, сўнг қипчоқ, сўнг ўғиз, сўнг ямоқ, сўнг бошқирт, сўнг басмил, сўнг кой, сўнг ябоку, сўнг татар, сўнг қирғиз – булар Чин яқинида, Рум ёнидан Чинга қадар чўзилган қабилалардир. Сўнг чигил, сўнг тухси, сўнг яғмо, сўнг иғроқ сўнг жорух, сўнг жумул, сўнг уйғур, сўнг тангут, сўнг хитой Чин шаҳридадир...”². Асарда қабилалар ва уруғлар ҳақида берилган маълумотлар Марказий Осиё халқлари тилининг диалектал асосини аниқлашда муҳим манба бўлиб хизмат қилади. Зеро у фақат ўз даври тилидаги сўзларни изоҳловчи луғат эмас, балки “Юқори Чиндан бошлаб бутун Мовароуннаҳр, Хоразм, Фарғона, Бухорога қадар чўзилган кенг ва катта территорияда яшовчи уруғлар, қабилалар, халқлар ва уларнинг тиллари ҳақида тўлиқ маълумот берувчи нодир филологик асардир”³.

Бунинг учун диалектология соҳасида чуқур тадқиқотлар олиб бориш зарур ва бу борада

- қадимги ўзбек тили ва ҳозирги ўзбек тили орасидаги тарихий алоқадорлик ва ривожланиш хусусиятларини белгилаш;
- ўзбек тилини Қошғарий даври қадимги ўзбек тили билан боғловчи тарихий илдизлар – ўзбек тилининг тадрижий такомилли ва ривожини кўрсатувчи далилларни топиш;
- Қошғарий яшаган давр ҳудудларини ва у ерлардаги ўзбек шеваларининг бугунги тарқалиш чегаралари ва жойлашиш ўринларини қиёсий ўрганиш;

¹ ДЛТ - Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк, I жилд, Тошкент 1960-1963, 37-бет

² ДЛТ - Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк, I жилд, Тошкент 1960-1963, 64-бет

³ Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк, I-III жилд, Тошкент 1960-1963, 29-бет

- Кошғарий асарлари тили ва шеваларда учрайдиган муштарак сўзларни тадқиқ этиш ўзбек тилининг тарихи, тарихий диалектологияси борасида ниҳоятда аҳамиятлидир.

Биз Луғатнинг I жилдида берилган сўзларни ҳозирги ўзбек тили билан қиёсий таҳлил қилиб ўрганганимизда, уларнинг каттагина қисми (*тузлуқ, сўпўринди, ботмон, талқон, қузғун, тутқун, табчан, қафтан (устки кийим), телба, белги, билги (билимли), тамга, тегра, қўнгилдош, тилим, тизим, чечак, тизик, қовиқ, батиг (ботиқ / чуқур жой), қулоч каби*) ҳозирги кунда ҳам кенг ва тор истеъмолда эканлигини кўрдик. Лекин шу билан бирга бугунги кунда қўлланилмайдиган ва муқобили ҳам йўқ (ёки деярли унутилган) сўзлар диққатимизни тортди. Маълумки, тилда нарса ва тушунчани бир сўз билан номлаш аниқлик ва лўндаликни таъминлайди. Баъзан, айниқса, таржима жараёнида, ҳозирги адабий тилимизда шундай сўзларга эҳтиёж сезамиз ва изоҳлаш орқали у ёки бу тушунчани ифодалаймиз. Асардаги сўзлар таҳлили ўтмишда нарса, тушунча, ҳаракат ёки жараёнларнинг номланиши нисбатан аниқ ва аксарият ҳолда бир сўз билан ифодаланган бўлиб, тилнинг тараққий этганидан далолат беради.

Қуйида ушбу сўзларнинг бир қисмини келтирамиз: бурқуғ¹ – тери ва бошқаларнинг йиғилиб қолиши, биғриғ² – тикиб тўлатилган қоп, турқуғ³ – ишдан уялиш (*Мендан турқуғ бўлди – ўзидан ўтган бир иш учун у мендан уялди*), сувсуш⁴ – буғдой сувининг, шароблик қуввати кетганидан кейинги сувлик ҳоли, чулбуш⁵ – кийим ва қўлларга теккан мева шираси, бурбағ⁶ – ишни кечиктириш, кейинга суриш, туғрағ⁷ – шоҳ томондан жанг вақтида аскарларга берилиб, тинчликда қайтариб олинадиган от, тирнак⁸ – одамларнинг йиғилиш жойи, сумлим⁹ – умуман туркча билмайдиган кишиларга сумлим дейилади, кестам¹⁰ – чақирилмаган меҳмонга (кечаси келган кишиларга) қилинадиган зиёфат, тўшўргў¹¹ – кичикроқ сувнинг дарёга қўшилаётган жойи, кўсўрга¹² – ичига қоғозлар солинадиган муқова, папка, сағнағу¹³ – қуритилган қовоқ, сўкнағў¹⁴ – тирноқ билан гўшт орасига чиқадиган чиқик,

¹ ДЛТ I, 429

² ДЛТ I, 429

³ ДЛТ I, 429

⁴ ДЛТ I, 428

⁵ ДЛТ I, 428

⁶ ДЛТ I, 429

⁷ ДЛТ I, 430

⁸ ДЛТ I, 441

⁹ ДЛТ I, 442

¹⁰ ДЛТ I, 443

¹¹ ДЛТ I, 451

¹² ДЛТ I, 452

¹³ ДЛТ I, 453

¹⁴ ДЛТ I, 453

булғама¹ – ёғсиз мазасиз овқат, тутғуч² – дастлабки овқат, қизғут³ – намуна-ли жазо, бошқаларга ўрнак бўлиши учун халққа кўрсатиб бериладиган жазо, хумару⁴ – эсдалик (ўлган одамнинг бир нафис нарсасини эсдалик учун бе-риш, мана шу нарса хумару дейилади), бэлак⁵ – сафар қилувчи киши ўз яқинларига олиб борадиган совға, тухфа, чалқан⁶ – яранинг бошқа ерларга ёйилиши, чубра⁷ – эски кийим, сўчик⁸ – ширин нарса, кизўк⁹ – ёмғирда кийиладиган ёпинчиқ, тўшўк¹⁰ – кам ҳафсала, ишёкмас киши, сизиф¹¹ – тишлар оралиғи, тиш ва милклар орасидаги оралик, булуш¹² – сўз билан ёрдам қилиш (*ол мена булуш қилди*), тўрк¹³ – бутун меваларнинг пишиш, етилиш маҳалининг ўртаси, тўбўн¹⁴ – овқатнинг тагини англатади. Мисол-лардан кўринадики, XI аср тили лексикаси тил тараққиёти қонунларига учраган ҳолда, қайсидир қисми бизгача етиб келган бўлса, яна қайсидир қисми эскириб истеъмолдан чиққан, лекин ҳозирги кунда ҳам қўлланишига эҳтиёж бўлган тил бирликлари ҳам жуда кўп.

Луғатда берилган феълларнинг аксарияти ҳозирги кунда ҳам тилимизда барқарор ва халқ тилида кенг қўлланилади. Ўзбек тилининг луғат таркиби тилнинг бутун тарихий тараққиёти даврида шаклланган ҳодисадир. Даврлар ўтиши билан ижтимоий, иқтисодий ва маданий ҳаётдаги ўзгаришлар натижасида тилнинг фонетикаси, лексикаси ва грамматик қурилиши ўзгариб боради. Шу жиҳатдан ҳозирги ўзбек тилида бирикма ёки қўшма феъл тарзида қўлланиладиган сўзларнинг содда феъл кўринишидаги шакллари диққатимизни тортди. Жонли тилимиз, шеваларда ҳам шундай шакллар фа-ол ишлатилади, жумладан, -са, -ла каби аффикслар ёрдамида ясалган феъл-лар. "Девону луғотит турк" асарида келтирилган сўзларни мисол келти-рамиз: инмак¹⁵ – пастга тушмоқ, ўзармак¹⁶ – изидан бормоқ (*мен ани ўзардим*), учуқмак¹⁷ – охирига етмоқ (*иш учуқти*), ўтунмак¹⁸ – ҳикоя қилмоқ,

¹ ДЛТ I, 453

² ДЛТ I, 422

³ ДЛТ I, 421

⁴ ДЛТ I, 416

⁵ ДЛТ I, 366

⁶ ДЛТ I, 413

⁷ ДЛТ I, 397

⁸ ДЛТ I, 387

⁹ ДЛТ I, 371

¹⁰ ДЛТ I, 368

¹¹ ДЛТ I, 355

¹² ДЛТ I, 348

¹³ ДЛТ I, 330

¹⁴ ДЛТ I, 380

¹⁵ ДЛТ I, 181

¹⁶ ДЛТ I, 187

¹⁷ ДЛТ I, 199

¹⁸ ДЛТ I, 208

ўқунмак¹ – пушаймон емоқ, улинмак² – кунгилга тегмоқ (*мен бу ишта улиндим*), этатмак³ – сиқиққа, қийинчиликка солмоқ (*ол ани этатти – у уни қийинчиликка солиб қўйди*), ўрпармак⁴ – оҳ-воҳ қилмоқ, арташмак⁵ – бир-бирига таъсир қилиб бузилмоқ, эгришмак⁶ – ўрашга ёрдам бермоқ, андикмак⁷ – онт ичмоқ, ўртўлмак⁸ – пардаланмоқ, ноаниқ қолмоқ (аслида бирон нарса остига яширинган ҳар бир нарсага ҳам бу сўз қўлланилади), исринмак⁹ – қаттиқ хафа бўлмоқ, эрсинмак¹⁰ – балоғатга етмоқ, ўтқунмак¹¹ – тақлид қилмоқ (*қарға қазга ўтқунса, бўти синур*), ўпланмак¹² – нес-нобуд бўлмоқ, эзлатмак¹³ – тартибга солмоқ, узлатмак¹⁴ – орқасидан юбормоқ каби. Кўринадики, у давр тили жонли тилга жуда мосдир.

Хулоса қиладиган бўлсак, Кошғарийнинг "Девону луғотит турк" асари тили ҳозирги ўзбек тили ва шевалари билан қиёсий тадқиқ этилса, ўзбек тилининг тарихий илдизларини ўрганиш билан бир қаторда, тилимизни янада бойитиш, ўзбек шеваларини чуқур тадқиқ этиб, шеваларда яшаб келаётган бой меросимизни ўрганиш ҳамда уларни фаоллаштириш каби бир қатор илмий масалалар ўз ечимини топади. Шу билан бир қаторда адабий тилимизда бўлмаган сўзларни истеъмолга киритиш (янги маънода бўлса ҳам) бой адабий меросимиз тилини тушунишга яна бир қадам бўлади.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк, I-III жилд, Тошкент 1960-1963
2. Abdushukurov B. "Devonu lugotit turk" and uzbek dialects
<https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02-08-13>
3. Рустамова С. Маҳмуд Кошғарий луғатининг лексикографик хусусиятлари: фил. фан. номзоди дис. автореферат – Т., 1998.
4. Абдуллаев Ф. Ҳозирги замон ўзбек адабий тили ва унинг ривожланиш йўллари – Ўзбек тили ва адабиёти журнали — 1965. — 2-сон
5. Алиев А. Ўзбек диалектологиясидан материаллар, Тошкент, 1974.

¹ ДЛТ I, 211

² ДЛТ I, 212

³ ДЛТ I, 214

⁴ ДЛТ I, 223

⁵ ДЛТ I, 234

⁶ ДЛТ I, 239

⁷ ДЛТ I, 245

⁸ ДЛТ I, 246

⁹ ДЛТ I, 252

¹⁰ ДЛТ I, 254

¹¹ ДЛТ I, 255

¹² ДЛТ I, 256

¹³ ДЛТ I, 263

¹⁴ ДЛТ I, 264

KAŞGARLI MAHMUD'UN "DIVANU LUGATİT TÜRK"
ESERİNDEKİ GİYSİ ADLARI

*Prof. DSc. Usmanova Shoir Rustamovna,
Taşkent Devlet Şarkşinaslık Üniversitesi
Koreşinaslık fakültesi dekanı*

Abstract. *This article analyzes the etymological names of clothes in Mahmud Kashgari's "Divan lughat al turk". The costumes mentioned in the play are classified into semantic groups such as outerwear, underwear, hats and shoes.*

Keywords and expressions: *Turkic peoples, clothing, outerwear, underwear, hats, shoes*

Kaşgarlı Mahmud'un "Divanu lugatit türk" eseri 11. yüzyılın Orta Asya'daki Türk boylarını ve onların dil özelliklerini incelemeye, bununla birlikte bazı modern Türk halklarının oluşumu ve gelişimlerini belirlemede çok önem taşımaktadır.

Kaşgarlı Mahmud sadece kelimelerin farklı anlamlarını ve anlam tonlarını açıklamakla kalmaz, aynı zamanda farklı kabileler arasındaki karakteristik fonetik ve morfolojik farklılıklara da dikkat çeker. Bu anlamda "Divanu lugatit türk" eseri sadece açıklayıcı bir sözlük değil, aynı zamanda 11. yüzyıl dilinin fonetiği ve grameridir.

Kaşgarlı Mahmud o dönemin sözlükteki bütün kelimeleri, çeşitli kelime gruplarını, kelimelerdeki bütün şekil ve muhteva olaylarını, döneminin dilbilimiyle ilgili olarak çok kapsamlı ve bilimsel bir şekilde anlatmıştır.

"Divanu lugatit türk" eserinin sözlük bölümünde yazar, o dönemde kullanılan tüm kelimeleri kapsamaya çalışır. Ve bunları bilimsel, tarihsel bir bakış açısıyla kapsamlı ve eksiksiz bir şekilde anlatmaya çalışmıştır.

"Divanu lugatit türk" eserinde giyim kuşam ile ilgili bir kaç kelimeler kaydedilmiştir. Divandaki giyim kuşam ile ilgili kelimeleri aşağıdaki gruplara ayırarak inceleyebiliriz:

1. Üst giysi adları
2. İç giysi adları
3. Başlık adları
4. Ayakkabı adları

1. Üst giysi adları

"Divanu lugatit türk" eserinde aşağıdaki üst giysi adlarıyla karşılaşılacaktır:

Çekrek – kölelerin giydiği ve yünden dokunan bir tür giysi

Jalma – yağmurluk

Kürk – kürk

Köñlek – gömlek

Ās/ āz – beyaz samur; beyaz samurun postundan dikilmiş kürk

İçmāk – kuzu derisi

Kars – deve veya koyun yününden yapılmış bir giysi

Kizüt – giyilecek bir giysidir. Bu kelime genellikle gelin ve damadın akrabalarının onuruna giyilen bir gelinlik için kullanılır.

Kizük – yağmurda giyilen pardösü
 Kemâk – pamuk ipliğinden yapılmış, dış giyimden yapılmış uzun, uzun beyaz çizgili bir giysi
 Kaftan – üst giysi
 Kübâ – demir gömlek
 Jenşü – kısa pamuklu ceket
 Partu – tek kat pardösü, partuk
 Terinchâk – kadınların kolsuz dış giyimi
 Artığ – kadınlar tarafından giyilen bir yelek
 Êtâk – etek

ÇEKREK ‘kölelerin giydiği ve yünden dokunan bir tür giysi’ (Kaşgarlı 442). Eski Türkçe çekrek ‘basma gömlek’, Çagatay Türkçesi çekmen ‘üst giysi’, ‘basma’, Türkiye Türkçesi çekmen, çepken, cepken ‘kolları yarık olup çoklukla sarkıtılan üzeri işlemeli bir çeşit kısa üstlük’, ‘yağmurluk’, ‘bol şalvar’ anlamlarına gelebilmektedir.

Bununla birlikte diğer Türk lehçelerinde aşağıdaki biçimlerde görülmektedir: Özbek Türkçesi çakmân, Özbek ağzı çäkman, çä:mân, çepkân, Uygur Türkçesi çäkman, Türkmen Türkçesi çäkmen, Karayım Türkçesi cekmen, çekmân, Teleüt Türkçesi çekmen, Tatar Türkçesi çikmen, Oyrat Türkçesi çekpen, çepken, Kırgız Türkçesi çekmen, çepken, Balkar Türkçesi çepken, Kara Kalpak Türkçesi şekmen, şekben, şekpen, Nogay Türkçesi şekpen, şepken, Tuva Türkçesi şekpen, Tofalar Türkçesi şekpen, Başkurt Türkçesi säkmân, Altay Türkçesi çekpen ‘bir çeşit geniş üstlük’, Azerî Türkçesi çäpkân ‘çekmen’, ‘kadife ve diğer parlak kumaşlardan dikilmiş üst giysi’, Karaçay-Balkar Türkçesi çepken ‘çuha’, ‘pardösü’, Hakas Türkçesi sikpen ‘önü açık çekmen’, Gagauz Türkçesi çukman ‘evde dokunan kumaş’, ‘sarafan (kolsuz kadın elbisesi)’, ‘etek’, ‘yakasız kaftan, çekmen’, Çuvaş Türkçesi säkman, sâxman ‘çekmen’. 1 Türkçeden Rusçaya çekmen ‘bir çeşit üst giysi’, ‘çiftçilerin kaftanı’, sukman ‘çuha çekmen ya da sarafan’, Bulgarçaya sukman ‘yün etek’, Ukrainçaya sukman ‘çuha’, Moldovancaya sukman ‘çuha’, Farsçaya çepken ‘arkası veya yanı kopçalı buluz’ şekillerinde geçmiştir.

Eren’e göre, çekmen sözcüğü < çek- + -men’den oluşmuştur. 2 Yegorov Çuvaşçadaki sâxman kelimesini sâx- ‘dikmek’ kökünden geliştiğini iddia etmiştir. 3 Karanfil kaydedilen biçimleri şep//çep// çup < juf// jup < *jap ‘çarşaf’ ile ilişkilendirmiştir. 4 Asomiddinova göçebe Türk-Tacik kabilelerinin eskiden

1 Gerard Clauson, An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish, Oxford Press, London 1972, s. 416; Mahmud Kaşgarî, Devonu lug`otit turk I, Özbekistan Fanlar Akademiyasi, Taşkent 1960, s. 442; Şemseddin Sâmî, Kâmûs-i Türkî (Temel Türkçe Sözlük) 1-2, Karakuşak Basın ve Yayın Limited Şirketi, İstanbul 1985, s. 201, 204; Özbek tilining izohli luğati II, Rus tili, Moskva 1981, s. 350; Bolta Corayev, Yuqori Qaşqadaryo özbek şevaları, Fan, Taşkent 1969, s. 155; Hasan Eren, Türk Dilinin Etimolojik Sözlüğü, Bizim Büro, Ankara 1999, s.69.

2 Hasan Eren, age, s. 69

3 V.Yegorov, Etimologičeskij slovar' čuvashskogo jazyka, Čuvashgosizdat, Cheboksary 1964, s.186

4 Guli Karanfil, Bytovaja leksika gagauzskogo jazyka <<http://www.balkaria.info/library/g/gullu/lexicon04.htm>>, (SGT: 29.03.2008).

yünden çekip basarak kumaş dokuduklarını, bundan dolayı çekmen'in de aslında dokuma adını karşıladığını, daha sonra metonymia yoluyla 'giyim' anlamını kazandığını¹ dile getirmiştir.

Buna benzer bir görüşü Etymological Dictionary of the Altaic Languages de ileri sürmektedir: çekrek, çekmen < Türkçe proto-biçim *čĕk- 'pamuklu kumaş', 'pamuklu kumaştan yapılmış gömlek', 'yün kumaş', 'bir çeşit üst giysisi'; Moğolca proto-biçim *čegedeg 'bir çeşit kumaş', 'kısa gömlek'; Tunguzca proto-biçim *čēk 'kısa üst giysi', 'kadife'; Korece proto-biçim *čjak- 'gömlek', 'ceket'; Proto-Altayca yapı *č'ek'V 'bir çeşit kumaş', 'giysi'.²

Benim bakış açımına göre, çekrek/ çekmen 'yırtmaçlı giysi' anlamında olduğundan kelime *ček 'yırtmaç' kökünden gelişmiş olabilir. Örneğin: Orta Türkçede čak 'yırtmaç', 'yarık',³ Uygur Türkçesi čak 'cübbenin eteğindeki yırtmaç', 'yarık',⁴ Türkmen Türkçesi čak 'yırtmaç',⁵ Özbek Türkçesinin Yukarı Kaşkaderya ağzında čak/ čak 'cübbe, gömlek gibilerin eteğinde, şalvarın paçasında iki taraftan dikilmeden açık bırakılan yer'⁶ anlamlarında kullanılmaktadır. Bundan başka, Altay, Tuva, Moğolistan ve Yedisu'da bulunan taş heykelciklerde betimlenen eski Türk cübbelerin de en önemli unsurunun yırtmaç olduğunu belirtmek gerekmektedir.

JALMA divanda 'yağmurluk' anlamında geçmektedir.⁷ Kaşgarlı bu sözcüğü şöyle açıklamıştır: "Farşlar bu sözcüğü Türklerden almışlar ve onu jalma şeklinde telaffuz ederler. Araplar Farslardan almışlar ve jalmaq biçiminde kullanırlar. Kimse bu kelimeyi Türkler Farslardan aldı diye iddia edemez. Çünkü ben bu kelimeyi en kenar sınırlarında yaşayan Türklerden duydum. Onların diğer halklara göre bu tür yağmurluğa daha çok ihtiyaçları var. Çünkü onların yurdunda kar, yağmur çoktur."⁸

Eski Türkçede de aynı şekil ve anlamda rastlanılmaktadır.

Dybo Türkçe *jalma'yı Mançu-Tunguzca *nalma 'mont' ile birleştirmiştir (krş. Evenkice nelmekēn 'kaftan', Oroqça nalma(n-) 'mont', 'astarlı kürk').⁹ Daha sonra Etymological Dictionary of the Altaic Languages'de Türkçe *jalma; Mançu-Tunguzca *nelme- ve Moğolca *nolom 'işlemeli kumaş, desenli kumaş' ile aynı öbeğe dahil edilmiştir.¹⁰

1 M. Asomiddinova, Kiyim-keçak nomlari, Fan, Taşkent 1981, s. 22.

2 The Tower of Babel, An International Etymological Database Project, <<http://starling.rinet.ru>>, (SGT: 29. 03.2008).

3 Ergaş Fazilov, Budapeştskaja rukopis' "Gül i Navruz" Lütfi, Taşkent 2006, s. 316

4 E.N. Nadcip, Uygursko-russkij slovar', Sovetskaja ensiklopedija, Moskva 1968, s. 390.

5 Bol'şoj russko-turkmenskij slovar' II, Russkij jazyk, Moskva 1987, s. 286

6 Bolta Corayev, Yuqori Qaşqadaryo özbek şevalari, Fan, Taşkent 1969, s.154,156

7 S. Y. Malov, Pamjatniki drevnetjurkskoj pis'mennosti, Akademii nauk SSSR, Moskva-Leningrad 1951,

s. 384; Mahmud Kaşgarî, age III, s. 41

8 Mahmud Kaşgarî, age III, s. 41-42

9 Anna Dybo, Senmantičeskaja rekonstruktsija v altajskoj etimologii. Somatičeskije terminy (Plečevoj pojas), Yazyki russkoj kul'tury, Moskva 1996, s.15

10 <<http://starling.rinet.ru>>, (SGT: 29. 03.2008)

Yukarıdaki analizler jalma ‘yağmurluk’ kelimesini < *ja- ‘örtmek’ kökü ile –I ve giyim kuşam adı yapan -ma eklerinden geliştiğini göstermektedir. krş. jama, jamak ‘yama’ < *ja- ‘örtmek’, ‘kaplamak’; Türkiye Türkçesinin ağızlarında jalpak ‘başörtüsü’ < *ja- ‘örtmek’, ‘kaplamak’. Mançu-Tunguzcadaki nalma, nelmekēn ‘mont’, ‘astarlı kürk’ sözcüklerini neltel- ‘giyimi üzerine atmak’, nere- ‘yağmurluğu üzerine atmak’, ‘elbise düğmesini iliklemeden üzerine atmak’ 1 fiilinin türevleri olarak açıklanabilir.

KÜRK ‘hayvanların, giyecek yapmak için işlenmiş postu’, ‘kürkle kaplı üst giysisi’. Eski Türkçe kürk ton ‘kürk manto’, Çağatayca kürk ‘kürk manto’, Kıpçakça kürk ‘koyun postu’, Türkiye Türkçesi kürk ‘hayvanların, giyecek yapmak için işlenmiş postu’, ‘kürkten yapılmış giyecek’, Azeri Türkçesi kürk ‘içi koyun postundan yapılmış manto’, Gagauz Türkçesi kürk ‘koyun postundan yapılmış manto’, ‘kısa manto’, Çuvaş Türkçesi kërək ‘kürk’. 2

Yegorov kürk kelimesini köruk ‘ateşi yelleme için kullanılan araç’ ve körik ‘çizgili sincap’ ile karşılaştırmıştır. 3 Karanfil kürk kelimesinin küri-/ kura- ‘deri tabaklamak’ kökünden gelişmiş olabileceğini ve daha sonra bu işlem sonucunda meydana gelen ürünü ifadelediği ihtimalini ileri sürmüştür: kura- > kürek > köruk > kürk. 4

Bana göre, Yegorov’un kürk kelimesini körik ‘çizgili sincap’ ile bağlaması gerçeğe yakındır. Çünkü kürk kelimesi ‘hayvanların işlenmiş postu’ olduğuna göre, onun hayvan adından gelişmesi gayet doğaldır. Örneğin: ās/ āz ‘beyaz samur’, ‘beyaz samurun postundan dikilmiş kürk’. 5

Ayrıca bu bağlantı aşağıdaki kanıtlarla da desteklenebilir: Sibirya’daki Türk lehçelerinde, özellikle Hakas Türkçesinde körik ‘çizgili sincap’ anlamında kullanılmaktadır. 6 Öte yandan Sibirya sincap, sansar, samur gibi hayvanların en çok bulunduğu bölgedir. Üstelik Sibirya’da iklimin soğuk olmasından dolayı bu bölgede kürkten yapılmış giysilerin tüketimi de yüksektir. Bütün bunlara ek olarak Sibirya bölgesinde bulunan eski Türk taş heykellerinde kürk giymiş insanların betimlenmesi⁷ de kürk kelimesinin dağılım merkezinin burası olduğunu göstermektedir.

Böylece kürk kelimesinin etimolojisini şu şekilde düşünmek mümkündür: kürk < k`ürk < k`ürek (krş. Çuvaş Türkçesinde kërək ‘kürk’) < *k`ürek ‘Sibirya çizgili sincabı’. Ayrıca *k`ürek, ‘kokarca, gelincik’ anlamını taşıyan *k`üren ile homojen sayılır. Etymological Dictionary of the Altaic Languages Proto-Türkçe

1 Sravnitel’nyj slovar’ tunguso-man’čžurskix jazykov I, Nauka, Leningrad 1977, s. 620, 625

2 S. Y. Malov, age, s. 397; Mahmud Kaşgarî, age, s. 336; Gerard Clauson, age, s. 741; Türkçe Sözlük 2. s. 950; M.R. Fedotov, Etimologičeskij slovar’ čuvashskogo jazyka I, Čuvashskij gosudarstvennyj institut gumanitarnyx nauk, Cheboksary 1996, s. 280

3 V.Yegorov, age, s. 108

4 Guli Karanfil, Bytovaja leksika gagauzskogo jazyka <<http://www.balkaria.info/library/g/gullu/lexicon04.htm>>, (SGT: 29.03.2008).

5 Mahmud Kaşgarî, age, s. 109

6 Hakasko-Russkiy Slovar’, Gosudarstvennoje izdatel’stvo inostrannyx slovaroj, Moskva 1953, s. 92

7 Türkler IV, Yeni Türkiye Yayınları, Ankara 2002, s. 196

*k`üfen ‘kokarca, gelincik’; Proto-Moğolca *kürene ‘kokarca, gelincik’; Proto-Mançu-Tunguzca *xur- ‘ayı’, ‘ayı eti’, ‘geleni’, ‘tarbagan’ biçimlerinin kelimenin Proto-Altayca biçimi olan ve ‘kürklü bir hayvan türü’ anlamına gelen *k`ufe(-i)’den türetildiğini ileri sürmektedir. 1

KÖDLEK ‘ince, hafif giysi’. Çağatay Türkçesi köñlek, köjnek, Türkiye Türkçesi gömlek, Türkiye Türkçesi ağzı gönlek, gönek, köjnäk, köñcek, Tatar Türkçesi külmäk, Özbek Türkçesi kojnak, kojlak, Uygur Türkçesi köñläk, köñnek, Azerî Türkçesi köjnek, Türkmen Türkçesi köjnek, Türkmen Türkçesi ağzı gömlek, Hakas Türkçesi kögenek, Şor Türkçesi künek, Oyrat Türkçesi künek, Yakut Türkçesi küñküläki, Tuva Türkçesi xöjleñ, Kırgız Türkçesi köjnek, Nogay Türkçesi köjlek, Başkırt Türkçesi küldäk, Balkar Türkçesi kölek, Gagauz Türkçesi gölmäk, Karayım Türkçesi kölmek, Kara Kalpak Türkçesi köjlek, Kumuk Türkçesi gölek ‘ince, hafif, kollu ve yakalı giysi’, ‘üst giysi’, ‘iç giysi’, ‘kadınların iç giysisi’ anlamlarını ifade etmektedir.2 Türkçeden Yazılı Moğolcaya küjileg, Kalmıkçaya kılæg, Eski Moğolcaya köñlek şekillerinde geçmiştir.

Bang Türkçedeki köñlek kelimesi köñ (< köñül) ‘gönül’ kökünden türediğini ileri sürmüştür. 3 Onun bu görüşünü çoğunluk benimsemiştir. Dybo köñül ‘gönül’ kelimesinin kojn ‘koyun’dan -il ekiyle yapılmış bir türev olduğu ihtimalini ve köñl-ek’i de bu kökten geldiğini dile getirmiştir. 4

Köñlek kelimesini köñül ve kojn ile bağlamak bize göre mümkün değil. Sâmî Türkiye Türkçesindeki gömlek kelimesini < kön+lek, yani kön ‘gön’ kökünden geldiğini açıklamıştır. 5 Ben de Sâmî’nin bu açıklamasına katılıyorum. Bu durumun birinci sebebi, *köñlek ile *köñ arasında fonetik bir engelin olmamasıdır. İkincisi, köñlek kelimesinin semantik alanında ‘deriden yapılmış giysi’ anlamının bulunmasıdır. krş. Yakut Türkçesinde küñküläki < köñ-läki ‘deriden yapılmış giysi’.6 Üçüncüsü ise dokumacılığın henüz gelişmediği en eski çağlarda göçebe Türk kabilelerinin giyimlerini deriden dikip giymeleridir. Böyle elbise kalıntıları arkeolojik kazılardan da bellidir.

Yukarıdaki analizler temelinde köñlek ‘deriden yapılmış giysi’ kelimesinin < kön ‘gön’ kökü ve isimden giyim adı yapan -lek ekinden türediği yönünde bir varsayımda bulunabiliriz. Türkçe köñlek biçimini Altay dillerindeki şu sözcüklerle birleştirebiliriz: Yazılı Moğolca qunar, qunir, Eski Moğolca qunar, Halhaca xunar, Buryatça xunar, Kalmıkça xunər, Ordosça xunar, Dahurca xonor ‘giysi’; 7 Evenkice kuñgu ‘kürkten yapılmış giysi’, ‘kışlık giysi’, ‘matem giysisi’, Evence

1 <<http://starling.rinet.ru>>, (SGT: 29. 03.2008)

2 Gerard Clauson, age, s. 732; Levitskaja ve b. age, s. 89-90; Şemseddin Sâmî, age, s. 431; Hasan Eren, age, s. 160

3 W. Bang, “Beiträge zur türkischen Wortforschung”, Turän, 9-10, 1918, s. 299-301

4 Anna Dybo, age, s.159

5 Şemseddin Sâmî, age, s. 431

6 Sravnitel’nyj slovar’ tunguso-man’čžurskix jazykov I, s. 433

7 <<http://starling.rinet.ru>>, (SGT: 9. 03.2008)

köngeke ‘kadınların üst giysisi’, Negidalca kençe ‘geyik derisinden yapılmış erkek giysisi’, Nanayca kuŋgu ‘geyik derisinden yapılmış ceket’. 1

2. İç giysi adları

Öm – pantolon, don

Otran – pantolon, don

ÖM – pantolon. Eski Türkçe üm (EDT 155), Çağatay Türkçesi öm, um (ДЛТ I, 74, CTC I, 83), Çağatay Türkçesi im, Osmanlı Türkçesi im (EDT 155), Sarı Uygur im, jīm, jüm, Çuvaş Türkçesi jēm (VEWT 520-521, Егоров 78, Федотов 1, 195, Мудрак 119, Лексика 478), Halaj ém, ejem (Heyet 2008: 380), im (Ölmez pdf файл), ĩem (Doerf.-Tez. 137) “don, pantolon”.

Ramstedt öm – pantolon kelimesini Moğolca ömü-dü(n), emüdü(n) “don” ve emüs- “giyinmek” ile karşılaştırmıştır (Ramstedt 145). Bu görüş Бу қараш Etymological Dictionary of the Altaic Languages’da devam ettirilmektedir: Türkçe *(i)öm “don”; Moğolca *emü- (*ömü-) “don”, “giyinmek”; Mançu-Tunguzca *(x)im- “üst giysi”, “şapka” ile aynı grupta birleştirilmiş ve onların Altayca proto şekli *jumi “bir çeşit giysi türü” olarak kaydedilmiştir.

Yukarıdaki biçimlerin Proto Türkçedeki şeklini *(i)um/(i)om “kadınlar pantolonu” olarak ileri sürülebilir. Karşılaştırın: Eski Türkçede umaj “rahım” (Малов ПДП 438), Türkiye ağızlarında uma “kalça”, oma “bel kemiği”, “kalça kemiği”, omaja “kalın kemik”², om “kemik ücü”, omča “kalça kemiğinin bir kısmı” (Gülensoy II, 623); Moğolca umadag, umdag “karının alt kısmı”, (L. MTS II, 1347); Evenk. umul, Solon, Negidal omol, omolča “kuşak”, “bel” (ССТМЯ II, 269).

Analizler sonucunda vücudün alt kısmına giyilen giysi adlarının genelde bel, kalça bacak, ayak gibi vücudün alt kısımlarını anlatan kelimelerin mecazi anlamından oluşmuş diye biliriz.

3. Başlık adları

Aşuk – demir şapka, miğfer

Börk – şapka, başlık

Bürünçük – kadın başörtüsü

Kidük – tüyden yapılmış şapka

Sarağuç – kadın başlığı, mendil

Başlıkların Türklerin tarihinde kendine özgü bir yeri bulunmaktadır. Başlıklar eskiden göcebe halk arasında güneşten, savuktan, kardan, yağmurdan ve rüzgardan koruyan bir araç olarak kullanılmıştır. Ayrıca savaşlarda da başlıklar düşmanların oklarından korumuştur. Dini törenlerin kutsal elementi sayılmış. Başlık ve şapkalara göre kişilerin toplumdaki yeri, mevkeyi, mesleği, yaşı, evli veya bekarlığı belirlenmiştir.

4. Ayakkabı adları

Ätük – çizme, edik

1 Sravnitel’nyj slovar’ tunguso-man’čžurskix jazykov I, s. 433

2 T.T. Ağızları Sözlüğü // <http://www.tdk.gov.tr> 11.12.08.

İzlik – türklerin hayvan derisinden yapılmış ayakkabısı

Çaruk – pabuçlu terlik

Başmak – topuklu ayakkabı

Eski Uyg. etük (ДТС 188), Eski Kıpçak itik (At-tuhfa 180), ätik (AbuH 12), Çagatay Türkçe etük (P I, 844; Pav.C 98), ötüк (Бор. Бадю 106; Pav.C 46), Türkiye Türk edik, Türkiye ağızları edük, etik, ödüк, Türkmen Türkçesi ä:dik, Salar. itix, itix, Tat. it`ik, Kırg. ötüк, Kaz. etik, Nog. etik, Kom. etik, Kkalp. etik, Özb. etik, Özb. ağız. ädik, ötik, ötüк, Uyg. ötüк, Hak. ödəк, Alt. ödüк, Şor. üdüк, Kazan tat. üdüк, Çuv. atā, Yakut. eterbes, Dolg. eterbes (EDT 50, VEWT 52, ЭСТЯ 1, 319-321, Егоров 36, Федотов I, 69, Лексика 479, Gülensoy I, 318) gibi fonetik varyantlarda rastlanılmaktadır.

Ramstedt etük kelimesini Mançu-Tunguzcadaki etu- “giymek” ile birleştirmiş ve Türk lehçeleri için (etük <) *etu- “giymek” kökünü önermiş. Daha sonra *etu-kökünü *ät- “giymek” biçimine deyiştirmiş1.

Etymological Dictionary of the Altaic Languages’de Türkçe *ëtük Evenkçe hatı “uzun konçlı çizme” (CCTMЯ II, 318-319); Korece pađi, Eski Korece pätì “pantolon” (Nam 237, Liu 360, KED 709) ile aynı grupta kaydedilmiş ve onların Proto Altaycadaki şekli *p`ät`i “pantolon”, “çizme” (<http://starling.rinet.ru>) olarak ileri sürülmektedir. Gülensoy edik kelimesinin etimolojisini ötüк < *ötlüg “delikli, delinmiş” (< öт “delik, oyuk” + lüg; -l-nin düşürülmesi sonucunda ötüг olmuş) diye açıklıyor 2.

Şunu belirtmek gerekki, eskiden edik ata binildiğinde giyilen suvari giysilerinden biri olmuş. Milattan önceki V-IV yüzyıllarında dünyadaki ilk edik de Altay bölgesinde bulunmuştur. Bu yüzden Türkçedeki ätüк`ı äт “at” ve uk “kiyiz çizme” kelimelerinin birleşimi olarak açıklamak mümkündür. Bunu aşağıdaki faktlarla destekleyebiliriz: Öncelikle, Çuvaş Türkçesinde atā “edik” (Егоров 36, Федотов I, 69), Tatar ve Kazak ağızlarında atu “bir çeşit çizme” (ДСТ 54) biçimleri korunmuş. Öte yandan äт “at” kelimesi äт- “atlamak”, “yürmek” ile homojen sırayı ortaya çıkarmaktadır.

Karşılaştırın: Türkm ağız. äт-, äт-, äт-le-, adim, Osmanlı Türk ad-, Türkçede adim, adim at-, Çagatay. adim, Tat. atla-, atì-, adim, Özb. ädim, Özb. ağız. adim, Uyg. atli-, Azer. adim at-, adim, Hak. alta-, Ayr. alta-, Çuv. odъm, ot-, Yakut. atillā-, Dolg. atillā-, Kırg. atta-, adim, Kaz. atla-, adim, Nog. atla-, adim, Başk. atla-, adim, Balk. atla-, Kar. adim, Kkalp. atla-, adim, Sol. a'tla- “ileri gitmek, atlamak”, “yürmek”, “adım” (VEWT 31, ЭСТЯ 1, 88-89, 322, Федотов II, 293-294, Stachowski 39); Yazılı Moğolca adaga-, adgah, adam (L. MTS I, 14), Halha adga-, Kalmıkça adğə-, adm “acele etmek”, “çabuk ilerlemek”, “adım” (KW 1); evenk. hetekēn-, Even. heteken-, Negid. xetexen-, Mançu yazı. finte-, Ulç. peten-

1 Ramstedt G.J. Studies in Korean Etymology. - Helsinki: Suomalais-ugrilainen Seura, 1949. - P. 265; Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков: Общетюркские и межтюркские основы на гласные. - М.: Наука, 1974. - С. 321.

2 Gülensoy T. Türkiye Türkçesindeki Türkçe Sözcüklerin Köken Bilgisi Sözlüğü. I. -Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2007. - S. 318.

Orok. potčo-, Nan. petēn-, Oroç. xete-, Udıg. xetigen-e- “koşmak”, “atlayarak geçmek, kaçmak” (ССТМЯ II, 372). Bununla birlikte, Çuvaş Türkçesindeki ut “at” kelimesinin de ut-//ot- “yürümek”, “adımlamak”, “acele ettirmek”, “atı çu çu” diye yürmesine davet etmek”, utā, utām//otām “adım” (Федотов II, 293-294), Yakut Türkçesindeki utā- “yetişmezlik”, “acele etmek” (ССТМЯ II, 293) fiiliyle köklü bir sırayı oluşturduğunu göre biliriz.

Xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy shakllaridan biri bo‘lgan maqollar, qisqa va lo‘nda, tugal xulosani ifodalaydi, insonlarni yaxshilikka chorlaydi, yomonlikdan qaytaradi. Shuningdek, “u kishilarni ogohlantiradi, maslahat beradi, tanbeh berib, tanqid qiladi... Maqollarda chuqur mazmun, mehnatkash ommaning donoligi, milliy an‘ana, uzoq asrlik hayot tajribalari mujassamlashgan”² bo‘ladi. Ota-bobolarimizning yuzlab yillik hayotiy tajribasi yig‘indisi hisoblangan maqollar, hozirgi kunda ham insonlar hayotini yorutuvchi chiroq vazifasini bajarmoqda. Shu bilan birga maqolga kundalik muloqotimizda tez-tez murojaat qilinadi va u “nutqimizni bezovchi xalq donoligi qomusidir”³. Dastlabki turkiy yozma yodgorlik asari hisoblanuvchi DLTda maqollar, ya‘ni otalar so‘zi *saw* atamasi bilan ifodalangan. Shuningdek, xabarlar, so‘zlar, hikoyalar aytishga ham bu so‘z qo‘llanilgan. Demak, *saw* - keyingi davr adabiyotida maqol (arabcha) nomi bilan ifodalangan janr mazmunini ham qamrab olgan⁴. Asarda keltirilgan maqollar borasida olib borilgan ishlarda ularning soni har

¹ Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘oti-t-turk. Nashrga tayyorlovchi Q. Sodiqov. -T.: G‘afur G‘ulom, 2017. -15-b.

² O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. –Toshkent, O‘qituvchi, 1980. – 108-b.

³ Sarimsoqov B., O‘zbek adabiyotida saj‘. – Toshkent: Fan, 1978. –51-b.

⁴ Mirzaaliyev I.M., Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi (“Devoni lug‘oti-t-turk” materiali misolida), Dissertatsiya, Toshkent –2020. 23-b.

xil. Sagip Atli maqolasida¹ maqollar bo'yicha faoliyat olib borgan taqiqotchilar va ularning taqiqotida keltirilgan maqollar soni jadval tariqasida beriladi. Unga ko'ra, asardagi maqollar soni 250 tadan 319 tagacha bo'lgan oraliqda deya ko'rsatiladi. Jadvalda birinchi bo'lib Abdulloh Nuri keltiriladi, u Devondan 252 maqolni to'plab, ularga usmonli turk tilida sharh yozadi. Maqola muallifining yozishicha, Abdulloh Nuri DLTda uchratgan maqollar soni aslida keltirigan sondan ko'p, lekin ularning ko'pchiligi ma'no jihatidan o'xshash sinonim maqollar bo'lganligi bois, ularni hisobga qo'shmagan. Ya'ni maqollardagi ayrim so'zlargina o'zgargan, ma'no esa bir xil. Shuning uchun biz ham aynan mana shu saralangan maqollardan foydalanishni ma'qul deb topdik.

Turmush qurish masalasi

Turkiy xalqlarda azaldan bo'ydoqlikka ijobiy qaralmaydi. Xususan turk xalqining maqoli – “Bekarın parasını it yer, yakasını bit”² (*Bo'ydoqning oshini it, yoqasini bit yer*³) orqali bo'ydoqlikka salbiy baho beriladi. Xuddi shu singari DLTda ham bo'ydoqlik qoralanib, *Ernenke elig karı bözün üm tükemes* – bo'ydoq ellik arshin bo'zdan to'n tikolmas - uning molida baraka bo'lmasgiga urg'u qaratilgan. Shuning uchun ham ertaroq turmush qurishga targ'ib qilinadi - *Tünle yorup künü sevnür, kiçigde ewlenip ulgađu sewnür* (Tunda yo'l yurgan kunduz kuni, erta uylangan keksayganida rohatini ko'radi). Turmush qurishdagi asosiy tamoyillardan yana biri tenglik, ikki oilaning bir biriga munosibligi masalasi hisoblanadi. Mazkur holat asardagi quyidagi maqol orqali bayon qilinadi: *Barçın yamağı barçınka kars yamağı karska*, ya'ni ipaklikka ipak yamoq munosib bo'lsa, yungga yung yamoq loyiqdir⁴. Ushbu maqol o'zbek tilimizda “Teng tengi bilan” tarzida uchraydi. Bundan tashqari yengiltabiati ayol erga yolchimasligi asarda “*Ersek erke tegmes, îwek ewke tegmes*” (Ersoq ayol erga tegmas, shoshqaloq uyiga yetmas) maqoli orqali ifodalangan. Qizlarning vaqtida turmush qurishi masalasiga alohida e'tibor qaratilib, nikohning kechiktirilishi yaxshilikka yo'yilmaydi. Qizlarning uyda qolishi esa ish bilmasligi bilan bog'lanadi. Bu holatni quyidagi maqolda ko'rishimiz mumkin: *Kurtga büdiğ bilmez yirim tār tūr* (Qari qiz o'yin bilmas, joyim tor der).

Turmush qurish orqali yangi qarindoshlik munosabatlarining o'rnatilishi, quda tomonga boshqa qarindoshlarga nisbatan alohida iltifot ko'rsatilishi bor gap. Bu narsa DLTda ham e'tiborga olingan: *Kadaş timiş kaymaduk kađın timiş kaymış* (Qarindosh keldi desa iltifot ko'rsatishmadi, qayin(ota, ona, aka, uka) keldi desa iltifot qilishdi, degan ekan). Oila qurish bilan bog'liq maqollarda turmushga targ'ib qilish qadrlangan bo'lsa, yigitlarning bo'ydoq yurishi, qizlarning turmush qurishga kechikishi va ayrim qizlarning “ersoq”ligi salbiy jihat sifatida baholanganligiga guvoh bo'lamiz.

Oilada erkakning roli

Erkak uying, oilaning ustuni hisoblanadi. U oiladagi ma'suliyati katta, ro'zg'orni tebratuvchi shaxsdir. Shuning uchun ham u oilada so'z sohibi bo'ladi.

1 ATLI, S. (2019). Divanu Lugati't-Türk'teki atasözleri üzerine yapılan bir çalışma: Abdüllah Nuri ve “Atalar sözü”, *Manas Sosyal Araştırmalar Dergisi*, 8(3): 2243-2279

2 Aksoy, Ö. A., *Atasözleri sözlüğü* 1, İstanbul 2016, s.184

3 Mirzayev T. vb. O'zbek xalq maqollari. Sharq nashriyoti, Toshkent-2005, 118-b.

4 Mirzaaliyev I.M., *Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi* (“Devoni lug'oti-t-turk” materiali misolida), Dissertatsiya, Toshkent –2020. 154-b.

Uning gapi oila a'zolari uchun qonun, ya'ni bajarilishi lozim. Buni asarda keltirilgan *Er sözi bir edüz köki üç* (Erkak so'zi bir, eagar bog'i uch) maqoldan anglashimiz mumkin. Uy-ro'zg'or xarajatlarini o'zi topishi, uning kamchiliklarini o'zi mustaqil bartaraf qilishi lozim. Kelin tomondan qarindoshlarning ham muntazam yangi oilaning kamchiliklariga qarashib turishi yaxshi holat emasligi bayon qilingan. *Zero, Yöwüshlög kelin küdegü yawaş bulur*, ya'ni "qarindoshlari tomonidan ko'p hadya olib kelingan kelinning eri tamagir bo'ladi". Maqol mazmuniga ko'ra, kelin yaqinlarining hadeb moddiy tomondan "ko'maklashuv"i erning dangasa bo'lib qolishiga sabab bo'ladi.

Oilada ayol

Oila deb atalmish muassasaning yana bir asosiy vakili ayoldir. Uning turmush masalalarida erkakdan kam bo'lmagan vazifalari va ma'suliyati borligi hech kimga sir emas. Ayol oilada qiz, kelin, xotin, ona, qaynona, kundosh kabi rollarda namoyon bo'lib keladi. DLTda ham ulardan ayrimlari haqida maqollar kelganligiga guvoh bo'ldik. *Kizlençü kelinde* - yashirin narsalar kelinda, ya'ni kelin hamisha yaxshi narsalarni eri uchun yashirib qo'yadi. Ayollarning eri uchun chiroyli ko'rinishga harakat qilishi lozimligi, ular uchun alohida kiyinishi kerakligi maqollarda ham o'z aksini topgan: *Kılnu bilse kızık keđer yaranu bilse yaşıl keđer* - ayol eri bilan suhbatni istasa qizil, xushomadgo'ylik qilmoqchi bo'lsa yashil kiyadi. Jamiyatda ayollar hamisha o'zaro raqobatchi bo'lib, biri boshqasidan ustun kelishga urinishadi. Bu narsa oilada kundoshlik holatida hattoki dushmanlik darajasiga ko'tarilishini asarda kelgan quyidagi maqol orqali bilib olishimiz mumkin: *Küniniñ küline tegü yağı* - kundoshning kuli ham dushman bo'lib ko'rinadi. Maqollardan shuni anglash mumkinki, ayol oilada har doim eri uchun yaxshi narsalarni asraydi, kiyinishi orqali his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini bildiradi, hatto, shundoq ham jamiyatda hamjinslari bilan raqib holatida yashovchi ayol, oilada kundoshlik rolida ikki hissa raqobat qiladi.

Ona va farzand

Oilada kelinlik holatidan keyingi rol bu onalik maqomidir. Onaning odobi, axloqi, tarbiyali bo'lishi farzandlarning ham kamolini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. DLTda ham ona va farzand mavzusi ko'tarilgan bir qator maqollarni uchratamiz. *Müş oğlu muyavu togar* - mushukdan miyovlaydigan bola tug'iladi, maqoli orqali onasi qanday bo'lsa bolasi ham shunday bo'lishi, xislatlar, xulq va tarbiyani undan olishi nazarda turiladi. Yaxshilikka chorlovchi, to'g'rilikka o'rgatuvchi onaning farzandi ham yaxshi va to'g'riso'z inson bo'lishi va aksincha, hiylakor, makkor ayolning farzandi o'zidan ham makkorroq bo'lishi maqolda quyidagicha bayon qilinadi: *Anası tewlüg yuwka yapar, oğlu tétig koşa kapar* - hiylagar ona yupqa pishiradi, ayyor o'g'il ikkitadan olib qochar.

Ona mehr-muhabbat timsoli hisoblanadi. Uning uchun hamma farzandlari birdek suyuqli, birdek aziz; birini boshqasidan ajratmaydi. Jamiyat biror insonni "qaroqchi" deya bilsa ham, ona uchun u farzandligicha qolaveradi, unga quchoq ochaveradi. Buni asardagi mazkur maqol ham ko'rsatib turibdi: *Yitüklög anası koyun açar* -

qaroqchiga onasi quchog'ini ochar. Kundalik hayotda uchraydigan yana bir holatda ham ona-bolalik holatidagi yaqinlikka guvoh bo'lishimiz mumkin. Oilada er vafot etsa, ayolning boshqa kishiga turmushga chiqishi, yoki aksincha, ayol vafot etsa, erkakning boshqa bir ayolga uylanishi uchrab turadigan tabiiy holat hisoblanadi. Onasi boshqa bo'lgan og'a-inilar orasidagi munosabat va otasi boshqa jigarlarning o'zaro ahilliklari ham aynan bir onadan dunyoga kelganliklari bilan izohlanadi. Bu holat asardagi: *Kanđaş kama urur öğdaş öri tartar* - ona boshqa og'a-inilar bir-biri bilan urishar, ota boshqa aka-ukalar o'zaro muhabbatli bo'lishar.

Ota va o'g'il

Ota ham oila davomiyligini ta'minlash, qadriyatlarni va an'analarni kelajak avlodga yetkazish, farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanish borasida, xususan, o'g'il bola tarbiyasida asosiy rolni o'ynaydi. Xalqimiz orasida "ota o'g'il" tabiri tez-tez uchrab turadi. Bu o'g'il farzandning otaga ko'rinish, xarakter jihatidan o'xshash bo'lishini ifodalash uchun ishlatiladi. Devonda ham shu kabi holatlarni aks ettiruvchi maqollarga duch kelamiz: *Atasi ogli ataç togar* – o'g'il axloqan otasiga o'xshar. Ba'zan otalarning noto'g'ri xatti-harakati, qilmishi uchun bolalar javob berishiga to'g'ri keladi: *Ata acıg alımla yise oğlının tışı kamar* – ota achchiq olma yesa, o'g'lining tishi qamashar. Lekin ba'zan farzandlarning ham otalariga nisbatan nohaqlik qilishlari, ularning nasihatlariga quloq solmasliklari kundalik hayotimizda uchramaydigan holat emas. Farzand ulg'ayganidan so'ng, "men"i kuchayadi, o'zini otasining nasihatlariga muhtoj emasdek his qila boshlaydi. Bu holat DLTdagi *Ata tōnu ogulka yarasa atasın tilemes* – otaning to'ni o'g'ilning kuniga yarasa, otasini tilamas (istamas), maqoli yordamida ifodalanadi. Tabiiyki, otaga nisbatan qilingan bunday munosabat qoralangan va yoshlar bundan qaytarilgan.

Turkiy xalqlarda oilada o'g'il farzandga alohida e'tibor bilan qaraladi, tug'ilajak farzandning o'g'il bo'lishi uchun duo qilinadi. O'gil farzandga nisbatan birinchi galda, nasl davomchisi, oila va vatan qo'riqchisi, oilaning kelajakdagi ta'minotchisi, boquvchisi sifatida qaraladi. O'g'il otaning oiladagi vazifalarini kichikligidan ko'rib, o'rganib ulg'ayadi. *Tay atatsa at tinur ogul eredse ata tinur* – toychoq ot bo'lganida - ot, o'g'il ulg'ayganida ota dam oladi, tabiri o'g'ilning voyaga yetganini, oila ko'magiga tayyor bo'lganligini bildiradi. Bu esa o'g'ilning ota qo'lidagi ishini olib, uning dam olishini ta'minlovchi o'ziga xos odat – an'ana hisoblandi.

Bola va u bilan bog'liq masalalar

Devonda shuningdek bola bilan bog'liq bir qator maqollar keltiriladi. Ulardan biri dunyoga kelgan bola o'zining rizqi bilan kelishiga ishora qiluvchi quyidagi maqoldir: *Agilda oglak togsa, arikda oti öner* – og'ilda uloq tug'ilsa, soy chetida o'ti unar. Ushbu maqoldan maqsad ko'p farzandli yoki yo'qsil oilalar bola tug'ilishidan andishaga tushmasliklari kerakligini, u(*oglak-bola*)ni bergan Zot uning rizqi(*ot*)ni ham berishini xotirlatadi.

Kichiklar biror xato yoki ayb ish qilib qo'yishsa, "bola-da" degan uni qaysidir ma'noda "qutqaruvchi" so'z ishlatiladi. Bolalarga xos xislatlar, ko'p narsaga aqli yetmasligi, ular qiladigan nojo'ya xatti-harakatlar, ularning bajargan ishi mukammal

bo‘lmasligi DLTda keltirilgan quyidagi maqollarda o‘ziga xos tarzda beriladi: *Oglak yiliksiz, oqlan biligsiz* – uloq iliksiz, o‘g‘il bilig(ilm)siz; *Oqlan (Sabi) işi iş bolmas, oqlak münzi sap bolmas* – bola qilgan ish ish bo‘lmas, uloq shoxidan sop bo‘lmas. Shuningdek, bolasi qilgan ish ortidan oila kattalari dashnom eshitishi, bo‘yni xam bo‘lishi *Oqlan suw töker ulug yāni sinur* – bola yerga suv to‘kar, ulug‘(yoshi katta odam) sirpanib, oyog‘i sinar, maqoli orqali ifodalangan.

Qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq maqollar

Oilaning ichki va tashqi munosabatlarida qarindoshlar aralashuvi, yordami katta ahamiyat kasb etadi. Tadbir va marosimlar qarindoshsiz, ularning maslahati va ko‘magisiz o‘tmaydi. Ular et va tirnoqqa o‘xshatiladi: *Etili turjakli adirmas* – et tirnoqdan ajralmaydi. Qarindoshdan keladigan yaxshilik ham, yomonlik ham ijobiy qabul qilinadi. Yomonligi ham begonaning yaxshiligidan afzal deb bilinadi: *Yātnuñ yāghlig tiküisinden öznün kānlig yuđruk yig* – begonaning yog‘li luqmasidan, qarindoshimning mushti xayrlidir. Mazkur maqol orqali begona qilgan yaxshiligini minnat qilishi, qarindosh yomonlik qilgan taqdirda ham tezda unut bo‘lishi ma‘nosi anglashiladi.

Xulosa. Asarda keltirilgan maqollar ko‘lami ham anchagina keng bo‘lib unda mehnat, yaxshilik, boshqalarga foydali bo‘lish, ilm va boshqa bir qator hayotiy masalalar o‘z aksini topgan. Shuningdek, jamiyatning negizi hisoblangan oila mavzusi ham chetda qolmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Asardagi maqollar orasidan biz 25 ta oila konseptiga aloqador deb hisoblagan maqollarni ajratib oldik va ularni ma‘no jihatidan tasniflanib, alohida-alohida tahlilga tortdik. Ushbu maqollar oilaviy munosabatlardagi turmush qurish, ota-ona va farzand, er va xotinning oiladagi rollari, bola va u bilan bog‘liq holatlar hamda qarindoshchilik aloqalari singari masalalarni o‘z ichiga oladi. Oilaviy munosabatlardagi turli vaziyatlarning sabab va yechimlarining maqollarda aks etganining guvohi bo‘ldik. Xususan, oilada erkakning hamisha bir pog‘ona ustunligi; ayolning o‘z xohish-istaklari, his-tuyg‘ularini tashqi ko‘rinishida ifodalashi; ota-ona fe‘l-atvori bevosita farzandning axloqida namoyon bo‘lishi; qarindoshning begonadan xayrli ekanligi maqollar vositasida atroflicha yoritib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg‘ariy. *Devonu lug‘oti-t-turk*. Nashrga tayyorlovchi Q. Sodiqov. -T.: G‘afur G‘ulom, 2017.
 2. Sarimsoqov B., *O‘zbek adabiyotida saj‘*. – Toshkent: Fan, 1978.
 3. Mirzaaliyev I.M., *Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi* (“Devoni lug‘oti-t-turk” materialini misolida), Dissertatsiya, Toshkent –2020.
 4. ATLI, S. *Divanu Lugati‘t-Türk’teki atasözleri üzerine yapılan bir çalışma: Abdüllah Nuri ve “Atalar sözü”*, *Manas Sosyal Araştırmalar Dergisi*, 8(3): 2243-2279, 2019.
 5. Aksoy, Ö. A., *Atasözleri sözlüğü 1*, İstanbul 2016.
 6. *O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi*. –Toshkent, O‘qituvchi, 1980.
- Mirzayev T. vb. *O‘zbek xalq maqollari*. Sharq nashriyoti, Toshkent-2005

**“ДЕВОНУ ЛУҒАТИ-Т-ТУРК”: ТАРЖИМА ВА ЯНГИ
НАШРЛАРИ ХУСУСИДА**

Сатторова Зилола Исмоиловна,

Таянч докторант,

Тошкент давлат шарқишунослик университети

Abstract. *Mahmud Kashgari's “Diwan lugat-al-turk” is a very unique encyclopedic source and has about 30 translations and publications. Especially in recent years, the full translation of the work into Russian and Kyrgyz, as well as the publication of new editions in Uzbek in 2016 and 2017, form the basis of new research on the divan. This article analyzes translations and editions of the work in foreign and Uzbek languages.*

Keywords and expressions: *encyclopedia, edition, colophon, original, libris, devon, frame, conversion, copy.*

Özet. *Mahmud Kaşgari'nin “Devonu lug'ati-t-turk” adlı eseri çok özgün bir ansiklopedik kaynaktır ve bugüne kadar 30'a yakın tercüme ve yayın yapılmıştır. Özellikle son yıllarda eserin Rusça ve Kırgızcaya tam çevirisinin yanı sıra 2016 ve 2017 yıllarında Özbekçe yeni baskılarının yayınlanması devon üzerine yeni araştırmaların temelini oluşturmaktadır. Bu makale, eserin yabancı ve Özbekçe dillerindeki bazı tercümelerini ve baskılarını incelemektedir.*

Anahtar kelimeler: *ansiklopedi, baskı, kolofon, orijinal, libris, devon, çerçeve, dönüştürme, kopya.*

Маҳмуд Кошғарий Марказий Осиё илк ўрта аср маданиятининг буюк арбобларидан бўлиб, тилшунослик соҳасида, хусусан, туркий тилларни ўрганиш соҳасида машҳур бўлди ва тарихда ўчмас из қолдирди. Аллома илк ўрта асрлар Уйғониш даврининг ёрқин вакилларида бири. Унинг “Девону луғати-т-турк”ида жамланган кенг кўламли хилма-хил материалларни ўрганишга асосланиб, аксарият тадқиқотчилар Кошғарийни тилшунослик, этнология, география, адабиёт, тарих ва бошқа илм-фан соҳалари ривожига бекиёс ҳисса қўшган энг буюк турколог деб билишади. Бошқача қилиб айтганда, Кошғарий - энциклопедик олим, “Девон” эса Уйғониш даврининг қомусий интеллектуал маҳсулидир[1].

“Девону луғати-т-турк” биринчи марта туркий тилларнинг сўз бойлигини тақдим этди, шунинг учун асарни Луғат деб аташга ҳақлимиз [2]. У яшаб ижод этган даврда Мовароуннаҳрда Сомонийлар ўрнини Қорахонийлар сулоласи эгаллаган, туркий адабий тил минтақада кенг урф бўла бошлаган эди. Ҳатто Аббосийлар халифалиги марказларида, азалдан араб ва бошқа сомоний халқлар яшаб келган ўлкаларда туркий элатлар намоёндалари кўпайиб, туркий тилга эътибор ошган эди. Маҳмуд Кошғарий ҳам ўзининг узоқ йиллар давомида яратган “Девону луғати-т-турк” китобини 1075 йилда тугаллаган. Асарнинг асосий матни ўша даврда кенг минтақа мусулмон Шарқида, бутун Яқин ва Ўрта Шарқда дин ва фан тилига айланган араб

тилида ёзилган бўлиб, туркий тилнинг бойлигини, мазмундор ва ранг-баранглигини тушунтириш, ўргатишни мақсад қилган эди.

Сўнги йилларда девон бўйича олиб борилган энг муҳим ва кенг қамровли ишлардан бири таниқли турк олимлари Аҳмет Бижам Эржиласун ва Зият Аккоюн-лиларнинг тадқиқотлари бўлди [3]. (Доктор А.Б.Эржиласун девон тадқиқига оид 20 дан ортиқ китоб ва 80 га яқин илмий мақолалари эълон қилинган. Шунингдек, Доктор Зият Аккоюнлининг ҳам 30 дан ортиқ илмий нашрлари “Девону луғати-т-турк” тадқиқига бағишланган [4]). Тадқиқотнинг аҳамиятли жиҳати асар муаллифи, ёзилиши ва бугунги кунгача етиб келиши тарихи, номланиши, матн талқини, транскрипцияси ва энг муҳими нашрлар ва таржималарда йўл қўйилган хатолар қўлёзма билан солиштирилиб асослаб берилган. Шу хусусда А.Б.Эржиласуннинг шогирди, айни пайтда доктор Ф. Ерсойнинг 2019- йилда “Бир китаба тутулдум” номли мақоласи чоп этилди. Мақолада олим “Девону луғати-т-турк романи” номли дидактик асар ёзганини маълум қилади [5]. Олимни ҳайратлантирган жиҳат шу эдики, А.Б Эржиласун ҳамда З.Аккоюнлининг “Kâşgarlı Mahmud - Dîvânu Lugâti't-Türk (Giriş - Metin - Çeviri - Notlar - Dizin)” китобининг нашр жараёнида асар билан тўлиқ танишиб, ўқиб чиқиш имконига эга бўлади. Романга икки давр вакиллари қаҳрамон қилиб танлайди яни, 1912 йилларда Истанбулда ҳаёти кечган Али Амирий ҳамда замонавий қаҳрамонлар қилиб икки турколог олимнинг фаолияти саҳифага олинган. Романда муаллиф девоннинг топиллиши ва у билан боғлиқ афсонаю ҳақиқатларни ёритган [6].

Ислом анъаналарига кўра, девон араб тили грамматик қоидалари асосида тузилган. Кўпчилик ўқувчилар девоннинг номидан асар турк тилида ёзилган деб ҳисоблашади. Бироқ девон арабларга турк тилини ўргатиш мақсадида ёзилган. Тадқиқотчи Т. Гариповнинг таъкидлашича, Кошғарийнинг исми, отасининг ва боболарининг исмида, исломий номлаш меъёрларига асосан Аллоҳнинг тўқсон тўққиз сифатларига мурожаат қилинган. Биз девон муаллифининг антропонимик триадасида учта бундай онимларни учратамиз. Унинг яратувчиси китобининг бошида ўзини камтарлик билан: “Худонинг хизматкори Маҳмуд, Ҳусайн ўғли, Муҳаммаднинг ўғли ал-Кошғарий” деган сўзлар билан таништиради. Бу ерда Маҳмуд ва Муҳаммадлар ягона арабча “Ҳамида” ўзагига асосланади, Ҳусайн эса “Ҳасан” - “хушбичим”, “яхши” эпитетларига нисбатан кичрайтирувчи вазифасини бажаради [7]. Шунингдек, Маҳмуд Кошғарий аждодларидан бирини Бухорони забт этган амир деб таъкидлаган, аммо у бу ҳақда ҳеч қандай очиқ маълумот қолдирмаган.

“Девону луғати-т-турк” бугунги кунгача 20 дан ортиқ тилга таржима этилиб нашр қилинди. Хусусан, турк, ўзбек, хитой, форс, қирғиз, қозок, уйғур, инглиз, рус, немис, озарбайжон тилларига таржималар амалга оширилган. Девонни таржима қилишдек мураккаб жараёни уддалаган ўзбек олимларининг хизматлари ҳам дунё туркологларининг эътирофидадир.

Девоннинг инглиз тилидаги таржимаси. 1982-1985 йилларда АҚШнинг Гарвард университетида девон уч жилдда биринчи марта инглиз тилига

таржима қилиниб нашрдан чиқди [8]. Тадқиқотчилар Роберт Денкофф ҳамда Жеймс Келлларнинг машаққатли меҳнатлари самараси бўлган девоннинг инглизча таржимаси қўлёзма асосида инглиз тилига ўгирилган. Таржима 3 жилдда (1-жилд 316, 2-жилд 381, 3-жилд 337 бет) чоп этилган.

Денкофф ўзининг илмий изланишларида усмоний турк тилидаги ёзма ёдгорликларнинг лингвистик ва бадиий хусусиятларини тадқиқ этди. Шу билан бирга Ўрта Осиёдаги исломий-туркий ёзма обидаларни ўрганди. Туркшунос олим турли динлар назарияси хусусан, Қуръон, ҳадисдан яхши хабардор эди. Шу боис девон таржимасидаги арабча истилоҳлар, Қуръондан парчалар, араб грамматикаси таҳлиliga оид қонун-қоидалар девон тадқиқида унга мураккабликлар туғдирмади.

Таржима муаллифлари ўзигача бўлган таржима ва нашрлардаги кўплаб хатоларни, матнда тушириб қолдирилган, икки хил ёзилган сўзларни аслият билан таққослаб қайта тиклаган. Девоннинг топилиши, эгалари ҳақида қимматли маълумотларни далиллар билан асослаб берган. Тадқиқотчининг аниқлашича, қўлёзмада қора, қизил, шунингдек, жигарранг сиёҳлар ишлатилган. Ҳошияда баъзи тузатишлар ва ўзга қўл излари бор. Шунингдек, жигарранг сиёҳ кейинчалик XIV аср охири Дамашқ ёки Қоҳирада бўлган котибнинг ёрдамчиларидан бири томонидан қўшилган. Қўлёзманинг биринчи саҳифасида Маҳмуд Кошғарийга тегишли бўлмаган 15 қаторли матн бор. Унга кўра, бу китоб туркманчага тўғри келмаслиги, отаси турк юртларидан келган одамлардан бу китоб ҳақида сўраганини ёзган. Улар ҳам ёшлик чоғларида бу диёрга келиб, ўз тилини яхши билмаслиги сабаб китобнинг мазмунини тушунмайдилар. Бу сўзбоши билан боғлиқ олимларнинг изоҳлари асосан икки хил:

1. Сўзбоши котиб томонидан киритилган. Сарлавҳадаги икки сатр билан матннинг ҳажми 17 қатор бўлади. Котиб девонни кўчириб бўлгач, ушбу сўзбошини бошқа қаламда ёзган. Қолаверса, қўлёзмага сўзбоши учун алоҳида саҳифа бириктирилмаган.

2. Сўзбоши китоб эгалари томонидан ёзилган. Яъни буюртмачининг истагига биноан амалга оширилган бўлиши мумкин. Денкофф ўз тадқиқотида бу фикрларини қуйидагича изоҳлайди: “Қўлёзманинг илк саҳифаси сарлавҳа билан 17 қаторни ташкил қилади ва бошқа саҳифалар ҳам худди шундай. Сўзбоши девонни кўчирган котибнинг тилидан эмас, унинг дўсти ёки унга таниш бўлган буюртмачи, яъни китоб эгаларидан бирининг изоҳлари сифатида кейинчалик учи учлироқ, ингичкароқ ёзувда девон яқунлангач битилган”[8]. Денкофф ўз қарашларини исботи сифатида яна қуйидагиларни ёритади: “Саҳифада иккита ҳошия бор, бири матннинг ўнг томонида иккинчи ва учинчи қаторлар ўртасида жойлашган. Бу ўртадаги қатор бир нечта сўзларнинг изоҳини беради, яна бир тепа қатордаги ҳошиядаги изоҳ Муҳаммад ибн Аҳмад Даррайя (Аллоҳ унинг гуноҳларини афв этсин!) га тегишли. Ва яна бу ерда ҳеч нарса ёзилмаган бўш жой бор, кейин сана –

йил ёзилган. Бундан келиб чиқадики, либрис китобнинг собиқ эгасининг имзоси. Мана шу имзо сарлавҳадан бутунлай фарқ қилади”. Тадқиқотчи сарлавҳадаги *Allah* ва либрисдаги *bi-l-qahira* (Миср) сўзларида қўлланган ҳа ҳарфининг икки хил ёзилгани билан ўз қарашларини тасдиқлайди. Демак, Денкоффнинг тахминларига кўра либрисдаги сана 803 йил (милодий 1400-1401) ҳамда Қоҳира сўзлари китоб эгаларидан бирининг имзоси эканлиги келиб чиқади (З.С).

Девоннинг қирғиз тилидаги таржимаси. “Девону луғати-т-турк” қирғиз тили ва лаҳжалари билан боғлиқ аксарият маълумотлар келтирилган. Шу боис қирғиз олимлари асар юзасидан кўпгина тадқиқотлар олиб боришмоқда. Сўнгги йилларда девон қирғиз тилига тўла таржима этилди ва нашр юзини кўрди [9]. Ушбу таржимани қирғиз туркологлари Т.Токоев ва К. Кошмоковлар кўп йиллик илмий изланишлар натижаси ўлароқ амалга оширдилар. Таржиманинг уч жилди ҳам 2011, 2012, 2013 йилларда Бишкекда чоп этилди. 1 жилд 906, 2 жилд 591, 3 жилд 678 саҳифани ташкил этади [10].

Девоннинг русча таржималари. “Девону луғати-т-турк” ҳозиргача миллати рус бўлмаган турк олимлари томонидан уч марта рус тилига таржима ва нашр қилинган. Асарни рус тилига биринчи бўлиб ўзбек олими Алибек Рустамов тўлиқ таржима қилган. Бироқ ушбу таржима анча йиллар нашр қилинмади. И.В.Кормушиннинг ёзишича, А. Рустамов 1979 йилда 1215 саҳифали русча таржимани якунлаб, чоп этиш учун нашриётга топширган [11]. XX асрнинг 80-90 йилларидаги сиёсий вазият сабаб таҳрир узоқ муддатга чўзилиб, нашр жараёни тўхтаб қолади. Ниҳоят, 2010 йилда И.В.Кормушин раҳбарлигида А.Рустамовнинг русча таржимасининг биринчи жилди “Восточная литература” нашриётида чоп этилди [12].

Биринчи жилд 462 саҳифа бўлиб, сўзбоши (15-20 бетлар) ҳамда кириш қисми (21-25 бетлар) И.В.Кормушин томонидан ёзилган. Тадқиқотчининг ушбу мақоласида девоннинг яратилиши, Кошғарий шахси, туркча, немисча, ўзбекча, уйғур, озарбайжон, инглизча таржималари, ушбу таржиманинг нашрга тайёрланиш жараёнлари ҳақда фикр юритган. “Девону луғати-т-турк”нинг иккинчи рус тилидаги таржимаси муаллифи З.А. Авезовадир. Олима 2005 йилда биринчи бўлиб русча таржимани Алматида “Дайк Пресс” нашриётида 1000 нусхада чоп эттиради [13].

Учинчи русча таржимани озарбайжонлик олим Рамиз Аскар амалга оширди. 2009 йилда индекс билан 4 жилдда нашр дунё юзини кўрди [14]. Рамиз Аскарнинг озарбайжон ва туркча таржималари жаҳон туркологлари томонидан юқори баҳоланади.

Ўзбекча таржима ва нашрлари. Ўзбек тадқиқотчиларидан илк бор Абдурауф Фитрат девон устида илмий иш олиб бориб 1927 йилда “Энг эски турк адабиёти намуналари” мажмуасини чоп эттиради [15]. Шундан сўнг 1960-1963 йилларда “Девону луғатит турк” илк бор ўзбек тилига тўлиқ таржима қилиниб нашр этилди [16]. Муаллифнинг девон сўзбошида

изоҳлашича: “... қўлёзма бизда йўқлиги учун биз ўз таржимамизда (Девон таржимасида) Истамбулда босилган босма нусха асосида иш кўрдик [16]. Сўнги йилларда илм-фан, инновациянинг ривожини, сифатли факсимил нашрларининг чоп этилиши, янги талқинлар навбатдаги нашрларга зарурат туғдирди. Ҳозирда С.Муталлибов таржимасининг ўзи ноёб манбага айланиб улгурди. Тадқиқотчиларнинг кейинги нашрларга эҳтиёжи ортди. Шу боисдан “Девону луғатит турк”нинг тўлдирилган ва ислоҳ қилинган кейинги нашрлари чоп этилди.

2016- йилда филология фанлари доктори, профессор Ҳамидулла Дадабоев муҳаррирлиги остида “МУМТОЗ СЎЗ” нашриётида ЎЗРФА академиги Алибек Рустамов ҳамда таниқли адабиётшунос олим, филология фанлари доктори, профессор Ҳамидулла Болтабоев томонидан “Девону луғотит турк”нинг биринчи жилди қайта нашрдан чиқди. Иккинчи ва учинчи жилдлар ҳам 2016 йилда чоп қилинди [17]. Филология фанлари доктори Ҳамидулла Болтабоев ҳамда филология фанлари номзоди Бахтиёр Исабеков кейинги қисмларни нашрга тайёрлади.

Ҳ.Болтабоевнинг таъкидлашича, мазкур нашр С.Муталлибовнинг таржимаси ва нашрига асосланган ҳолда тайёрланган, изоҳлари, асосан, сақланган. Шунинг билан бирга “Девон”нинг қўлёзма нусхаси билан солиштириш натижасида айрим ўзгаришларни амалга оширишга тўғри келган. А.Рустамов С.Муталлибов таржимасини аслият билан солиштириб, матнда тушириб қолдирилган жумла, сўз ва иборалар ҳамда ҳарфларни тиклаган. Нашрдаги умумий ўзгаришлар асосан қуйидагича:

- асл нусханинг саҳифа рақамлари қўйиб чиқилган (Кошғарий саҳифаларга рақам қўймаган. Кейинчалик кутубхоначилар томонидан рақамлаштирилган);
- таржимаси келтирилмаган оятлар, ҳадислар ва айрим шеърларнинг таржимаси ва крилл ёзувидаги транслитерацияси берилган;
- девонда келтирилган шеърлар рим рақамида тизимлаштирилган;
- мақоллар ажратилган ҳолда янги сатрбошидан ёзилган;
- фаслларда мисоли келтириляётган ҳарфлар ажратилиб кўрсатилган;
- араб ёзувидаги сўзларнинг ўқилиши курсив билан, мазмун талаби билан ортириляётган сўз, иборалар [мисол] тарзида квадрат қавс ичида берилган;
- С.Муталлибов таржимасидаги “отлар” сўзи “исмлар” деб ўзгартирилган.

Биринчи жилд 346 саҳифадан иборат. Матн крилл алифбосида босилган, муқовасига Маҳмуд Кошғарийнинг Урумчида чизилган сурати, Истанбулдаги ҳайкали расми, муқова ички юзасига Кошғарий ўз қўли билан чизган “доира” географик харитаси илова қилинган. Сўзбоши ўрнида Ҳ.Болтабоевнинг “Илми адаб ибтидоси” йирик ҳажмли мақоласи берилган. Мақола қуйидаги ички сарлавҳалардан иборат: Қорахонийлар даври адабий манбалари; Маҳмуд КОШҒАРИЙнинг ҳаёти ва фаолияти; Луғат муаллифи;

“Девон...”нинг ёзилиш ўрни ва манбалари географияси; “Девон...” нусхалари; Таржималари ва нашрлари; Асар асосида тузилган индекс ва луғатлар; Ўрганилиш тарихи; Асарнинг яратилиш сабаблари ва хусусиятлари; Таркиби; Қамров доираси; Ушбу нашр ҳақида.

Нашрда қўлланган транскрипция ва белгиларга изоҳлардан сўнг девоннинг муқаддима қисми ва асосий луғат жой олган. Асар якунида Муталлибовнинг девонда зикр этилган қабила ва уруғлар, шаҳарлар ва баъзи бир атоқли отлар хусусидаги мулоҳазалари илова қилинган. Шунингдек “Девону луғоти-т-турк”нинг бизгача маълум нашрлари титул варақлари фотонусхалари хроник тарзда кўрсатилган.

Иккинчи жилднинг умумий ҳажми 286 саҳифа. Муқова ичида Кошғарий ўз қўли билан чизган “доира”нинг русча таржимаси нусхаси Олмаота нашридан олинган. Асар “Нашриётдан: Иккинчи жилд нашри ҳақида” сўзбоши билан бошланади. Ушбу мақоладан жорий нашр асосан феълларнинг тадқиқига яъни, феъл қоидалари, феъл боблари билан боғлиқ лингвистик ходисалар шарҳлангани, таржима қўлёзма нусха билан солиштириб чиқилгани ва нашрга хос ўзгаришлар, кўрсаткичлар ҳақида маълумотлар ўрин олган. Шунингдек, ҳарфлар ва уларнинг ўқилиш жадвали ҳам киритилган. Асосий луғатдан сўнг С.Муталлибов нашрининг I жилдидаги катта ҳажмли мақоласи билан II жилддаги “Қабилалар масаласи”, III жилддаги “Баъзи қабилалар ҳақида”ги мулоҳазалари қўшилган. Қўлёзманинг титул варағи ва икки саҳифаси ҳам иловага олинган.

Учинчи жилд 306 саҳифа. Сўзбоши берилмаган. “Бешинчи китоб”дан бошланган. Нашр якунида С.Муталлибовнинг изоҳлари сақланган.

2017 йил “Девону луғоти-т-турк”нинг С.Муталлибов таржимаси асосида қайта ишланган, тўлдирилган, ўзгаришлар киритилган мукамал нашри чоп қилинди [18]. Нашр дунё эътироф этган туркий филологиянинг етук олими, филология фанлари доктори, профессор Қосимжон Содиқовнинг кўп йиллик самарали изланишлари натижаси ўлароқ юзага келди. Р.Алимухаммедовнинг қайд этишича: “Домла Қосимжон Содиқовнинг айна китоб устида ўн бир йилдан буён тер тўкиб меҳнат қилаётганликларининг шахсан гувоҳиман. Ушбу нашрни кўрган мутахассис у мазкур асарнинг бошқа нашрлардан тубдан фарқ қилишини бир кўришдаёқ илғайди. [19]”

Нашр битта китоб ҳолида крилл алифбосида босилган, 482 саҳифадан иборат. Асарнинг кириш қисмида Қ.Содиқовнинг Маҳмуд Кошғарий ва унинг “Девону луғоти-т-турк” асари (3-10 бет) мақоласи киритилган. Ушбу қисмда девоннинг қўлёзмаси ҳақидаги маълумотлар, Кошғарий қўллаган лингвистик атамалар, сўзларнинг морфологияси ва фонетикасига оид шарҳлари ёритилган. Шунингдек, Девонни нашрга тайёрлаш принциплари (10-11 бет), Матнда қўлланган транскрипция (12-бет) изоҳлари ҳам қўшилган.

Шундан сўнг қўлёзма таълифи транслитерацияси ва таржимаси ([“ТУРК СЎЗЛАРИ ДЕВОНИ”] КИТОБИ Тузувчи: Маҳмуд бин ал-Ҳусайн бин

Муҳаммад ал-Кошғарий (Оллоҳ у кишини Ўз раҳматига олсин)] келтирилган сарлавҳа остида сўз боши ёзилган (13-бет). С.Муталлибов ва Ҳ.Болтабоев нашрларида эса бу сўзбоши киритилмаган, маълумотлар ҳам ҳам учрамайди.

Сўнг девон Муқаддимаси (14-27 бет), асосий Луғат қисми (28-428 бет) келади. Шунингдек, қўлёзма муқаддимасининг уйғур алифбоси келтирилган саҳифаси, Кошғарий чизган Ер юзи харитаси ва яна бир саҳифа илова қилинган (192-195 бетлар орасида). Китоб якунида нашрда учрайдиган арабча тилшунослик атамаларига изоҳ берилган. Рус ва инглиз тилларида умумий хулоса ҳам киритилган. Бизнинг ҳисобимизга кўра, бадийий намуналарнинг умумий ҳажми 243 та (856 мисра) [20]. Шундан 185 та тўртлик ва 58 та иккилик байтлардир. Мақоллар сони 298 та, 42 та мақол такрор келган [21].

Ушбу нашрга хос хусусиятлар ва умумий ўзгаришлар қуйидагича:

- Девон бир жилдда чоп этилган;
- С.Муталлибовнинг сўзбоши ва сўнг сўз ўрнида изоҳлари киритилмаган;
- Муқаддимадан олдин котибнинг сўзбоши матни қайд этилган;
- Асарда берилган туркий мисоллар қўлёзма асосида қайта транскрипцияга ўгириб чиқилган;
- Арабча матндаги атоқли отлар транскрипцияда берилган;
- Ингичка айтиладиган сўзларда жарангли ундошлар, унли ва сонорлардан кейин жўналиш келишиги қўшимчасининг *-kä* вариант танланган (*ewkä, bizkä*);
- Шаҳс-сон қўшимчалари ингичка ва йўғон айтилувчи сўзларда *-men, -sen* шаклларида берилган (*keligli-men, barirmu-sen*);
- Қўлёзмадаги гап ёки бирикма таркибида келган баъзи сўзларни аниқлаштириш мақсадида намунанинг бошига кўчирилган ва бурчакли қавсга олинган: [أوتلدى *otuldī* (ўтулди)] *tariğ otuldī* – экин ўталди, ўтоқ қилинди.
- С.Муталлибов нашрида янглиш кетган баъзи сўз ва бирикмалар қўлёзма асосида тузатилди: *terkin-to'plangan har narsa* (*Shoshning ismi emas*);

Шеърый узиндилар олдинги Кошғарий жумлаларини (*Шоур*) *шундай деган*, (*Билимли*) *шундай деган*, (*Кўпни кўрган*) *шундай деган*, шеърлардан кейин *Айтмоқдаки* деб ўгирган. Мақоллардан олдин *Мақолда* (*шундай келган*), мақолдан кейин эса *Маъноси* деб ўгирилган.

Ҳар иккала нашрни тайёрлашда муаллифлар С.Муталлибов таржимасига асосланган ва қўлёзма билан солиштириб чиқилган. Ҳ.Болтабоев ва Қ.Содиқов нашрларида С.Муталлибов таржимаси матни сақланган. Бироқ учала нашрдаги ўзига хосликлар келтирилган иқтибос, атоқли отларнинг ифодаланиши, мақолалар сифати, миқдори, тартиби, матн мазмуни билан орттирилаётган сўзларнинг ёзилиши, транскрипция билан боғлиқ.

“Девону лугати-т-турк” бўйича шу кунга қадар минглаб тадқиқотлар, таржима ва нашрлар амалга оширилди. Бироқ девоннинг турли таржима ва нашрларининг қиёсий-матний тадқиқига эҳтиёж катта. Зеро, турлича ёндашувлар ва талқинларнинг аслиятнинг номаълум қўриқларини очиб, илм фан аҳлини янада улкан илмий ютуқларга эришишига асос бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алиев. А Махмуд Кашгари – ученый-энциклопедист периода ренессанса в государстве караханидова. А. Алиев Вестник КРСУ. 2015. Том 15. No 10/ 12-15 с
2. Махмуд ал-Кашгари. Диван лугат ат-турк (Свод тюркских слов). В 3-х томах. Т. 1. Пер. с араб. А.Р. Рустамова под ред. И. В. Кормушина [Текст] / Махмуд ал-Кашгари. – М., 2010. – 15.с
3. Ercilasun, A. B., Akkoyunlu, Z. (2014). *Kâşgarlı Mahmud Dîvânü Lugâti't-Türk (Giriş - Metin - Çeviri - Notlar - Dizin)*, Ankara: TDK Yayınları. S.1120.
4. Tamir N. Prof. Dr. Ahmet Bican Ercilasun ve Prof. Dr. Ziyat Akkoyunlu'nun hazırladıkları Dîvânü Lugâti't-Türk adlı eser üzerine. *Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi* Sayı:3/3 2014 s. 260-276, Türkiye.
5. Ersoy, Feyzi. (2019). “Bir Kitaba Tutuldum! Dîvânü Lügâti't-Türk'ün Romanı” Ankara: Gazi Kitabevi Yay. 2019 . S.173
6. Erkan Karagöz. Bir Kitaba Tutuldum. *Türk Yurdu*. Sayı 380. Nisan. 2019. S. 87-88
7. Гарипов Т.М. Арабские масдары II породы и их рефлекты в башкирском языке // Ак-туальные проблемы контрастивной лингвистики. Уфа : БГУ, 2011. Ч. I ;
8. Mahmud al-Kashgari, *Compendium of the Turkic Dialects (Diwan Lugat at-Turk)*, edited and translated with introduction and indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. Cambridge, Mass. [In: *Sources of Oriental Languages and Literatures*, ed. Sinasi Tekin.] Part I: 1982 (Pp. xi + 416). Part II: 1984 (Pp. iii + 381). Part III: 1985 (Pp. 337 + microfiche)
9. А. Алиев. Восточный ренессанс и его роль в историко-культурном развитии кыргызстана и сопредельных территорий (x в. – первая треть xvi в.) Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. Бишкек – 2016. с. 166
10. Махмуд Кашгари. Словарь тюркских языков / перевод на кырг. Т. Токоев, К. Кошмоков. Бишкек, 2011. Т. I. с. 906; 2012. Т. II. с. 591; Т. III. с. 678
11. Xudoyberdiyev J. Mahmud Koshg'ariy hayoti va “Devonu lug'otit turk” bo'yicha yaratilgan asarlar ko'rsatkichi. – T.: Akademyanashr, 2011. – b. 10.
12. Махмуд ал-Кашгари. Диван лугат ат-турк (Свод тюркских слов). В 3-х томах. Т. 1. Пер. с араб. А.Р. Рустамова под ред. И. В. Кормушина [Текст] / Махмуд ал-Кашгари. – М., 2010. – 461 с.
13. Кашгари, М. Дивону лугат ат-тюрк [Текст] / М. Кашгари; пер., предисл. З.-А. М. Ауэзовой. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005. – 1288 с.

14. Махмуд Кашгарский. Дивану лугат ит-тюрк: в 4-х т. . Перевел Рамиз Аскер [Текст] / Махмуд Кашгарский. – Баку: МДМ, 2009.
15. Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. Самарқанд. 1927.
16. Махмуд Кошғарий. “Девону луғотут-турк” . 1-3- жилдлар. Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталлибов.С. –Т: ЎзФА Фан нашриёти. 1960, 1961,1963.
17. Махмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк. 1-3 жилд. (Нашрга тайёрловчилар: А.Рустамов, Ҳ. Болтабоев, Б.Исабеков) -Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2016
18. Махмуд Кошғарий. Девону луғати-т- турк –Т.: Гафур Гулом. Нашрга тайёрловчи Содиков.Қ. 2007. Б.2.
19. Алимухаммедов.Р. Проф. Қ.Содиков томонидан тайёрланган “Девону луғати-т-турк” асарининг янги нашри // “Девону луғоти-т-турк” – туркий халқларнинг ноёб ёзма ёдгорлиги” мавзуидаги халқаро илмий анжуман материаллари.:Т. 2018. Б. 122.
20. Sattorova. Z.I. About Uzbek Editions Of Dīwān Lughāt Al-Turk . The American Journal of Social Science and Education Innovations. January 17, 2021 | Pages: 92-99
21. Мирзаалиев. И. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси. (“Девону луғоти-т-турк” материали мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Т.: 2020. –Б. 14.

Тошкент давлат шарқшунослик институти илмий**журналлари томонидан илмий мақолаларга қўйиладиган талаблар**

Нашрга оригинал, илгари нашр қилинмаган мақолалар ва журнал мавзусига мос келадиган материаллар қабул қилинади. Мақолада шарқшунослик билан боғлиқ адабиётшунослик, тилшунослик, фалсафа, тарих, иқтисодиёт каби фан соҳаларининг долзарб масалалари ва илмий янгиликлари ёритилиши лозим. Оригинал мақоланинг ҳажми (аннотация, калит сўз ва сўз бирикмалари ҳамда фойдаланилган адабиётлар рўйхати бундан мустасно) 1 интервал оралиқда 10–12 бет, матни Microsoft Word, A4 форматида, Times New Roman шрифтнинг 14 катталигида, қоғозга чиқарилган ва электрон вариантларда камида 2 та тақриз (ички ва ташқи) билан нашриётга топширилади. Матннинг икки ёнидан қолдириладиган ўлчам – 2 см, хат боши (абзац) – 1,25 см.

Мақоланинг тузилиши қуйидагича тавсия этилади:

Мақола ва бошқа материаллар сарлавҳаси қисқа, мазмунга мувофиқ ва 12 сўздан ошмаслиги керак.

Муаллифнинг тўлиқ исми қуйидаги тартибда қайд этилиши керак: исми, отасининг исми, фамилияси, икки ёки ундан ортиқ муаллифлар бўлса, вергул билан ажратилади.

Муаллиф(лар)нинг иш жойи қуйидаги тартибда тақдим этилиши керак: бўлим (кафедра), муассаса (институт), шаҳар ва мамлакат.

Кетидан муаллифнинг телефон рақами, факс рақами, электрон почта манзили келтирилган бўлиши керак.

Мақоланинг сарлавҳаси, муаллиф(лар) ҳақидаги маълумотлар лотин алифбоси (транслитерация)да берилади.

Аннотация ва калит сўзлар:

Аннотация – илмий характердаги мақола ҳажмидан ташқари берилган инглиз, рус ва ўзбек тилларидаги қисқача баён.

Аннотацияда мақоланинг асосий жихатларини баён этишда қуйидагиларга эътибор берилади:

– тадқиқотнинг асосий маълумотларини қамраб олиши ва ишда мавжуд бўлмаган фактлар бўлмаслиги лозим;

– мақоланинг тузилиши Аннотацияда такрорланади: кириш, мақсад ва вазифа, усуллар, натижа/муҳокама, хулоса/мулоҳаза;

– натижалар аниқ ва лўнда бўлиб, узвийликда берилади;

– Аннотацияда мақола сарлавҳаси такрорланмайди, кераксиз изоҳлар, “кириш жумлалари” (муаллиф мақолада шуни назарда тутадик...) бўлмаслиги лозим;

– Аннотацияда иқтибос келтирилмайди;

– Аннотация матнининг ҳажми 250–300 сўздан иборат бўлиши лозим.

Аннотация остида “Калит сўз ва сўз бирикмалари” (8–10 та) ёзуви жойлаштирилади. **Калит сўзлар** мақоланинг асосий мазмунини ифодалаб, асосан, соҳага доир муҳим тушунчалардан ташкил топган бўлиши лозим.

Кириш: Мақолада тадқиқотнинг мақсади ва мақола ёзилиш вақтида илмий муаммонинг ҳолати акс этиши керак.

Мақсад ва вазифа:

Мақоланинг мазмун-моҳияти мақсад ва вазифаларидан келиб чиққан ҳолда тизимли равишда очиб берилди.

Усуллар: Тадқиқот усуллари батафсил тавсифланган бўлиши лозим.

Натижалар ва мулоҳаза:

Натижалар ва мулоҳазалар кенгайтирилган шаклда тақдим этилиши керак (жадваллар ва тасвирлар ёрдамида), шунингдек, илгари нашр этилган натижаларнинг қиёсий таҳлили ва талқини берилди.

Хулоса: Кириш қисмида қўйилган саволларга жавоблар, хулосалар аниқ кўрсатилиши керак.

Фойдаланилган адабиётларнинг берилиш тартиби:

Адабиётлар рўйхати лотин алифбосига транслитерация қилинади. Рўйхатга киритилган адабиётлар сўнгги 25 йил ичида нашр қилинган бўлиб, уларнинг сони 30 тадан ошмаслиги керак.

Саҳифа тагида бериладиган сноскаларда журнал мақолаларининг берилиши:

Zagurenko A.G., Korotovskikh V.A., Kolesnikov A.A., Timonov A.V., Kardymon D.V. Tekhniko-ekonomicheskaya optimizatsiya dizaina gidrorazryva plasta [Techno-economic optimization of the design of hydraulic fracturing]. Neftyanoe khozyaistvo – Oil Industry, 2008, no.11, pp. 54-57.

Электрон журналдаги мақолаларнинг берилиши:

Kontorovich A.E., Korzhubaev A.G., Eder L.V. [Forecast of global energy supply: Techniques, quantitative assessments, and practical conclusions]. Mineral'nye resursy Rossii. Ekonomika i upravlenie, 2006, no. 5. (In Russ.) Available at: <http://www.vipstd.ru/gim/content/view/90/278/>. (accessed 22.05.2012)

Digital Identifier of an Object (DOI) тизимидаги журналлардаги мақолаларнинг берилиши:

Zhang Z., Zhu D. Experimental research on the localized electrochemical micro-machining. Russian Journal of Electrochemistry, 2008, vol. 44, no. 8, pp. 926-930. doi: 10.1134/S1023193508080077

Даврий илмий тўпламларнинг берилиши:

Astakhov M.V., Tagantsev T.V. [Experimental study of the strength of joints "steelcomposite"]. Trudy MG TU «Matematicheskoe modelirovanie slozhnykh tekhnicheskikh sistem» [Proc. of the Bauman MSTU "Mathematical Modeling of Complex Technical Systems"], 2006, no. 593, pp. 125-130. (In Russian)

Конференция материалларининг берилиши:

Usmanov T.S., Gusmanov A.A., Mullagalin I.Z., Muhametshina R.Ju., Chervyakova A.N., Sveshnikov A.V. [Features of the design of field development with the use of hydraulic fracturing]. Tru158 dy 6 Mezhdunarodnogo Simpoziuma "Novye resursosberegayushchie tekhnologii nedropol'zovaniya i povysheniya neftegazootdachi" [Proc. 6th Int. Symp. "New energy saving subsoil technologies and the increasing of the oil and gas impact"]. Moscow, 2007, pp. 267-272. (In Russian).

Китоблар (монография, тўплам)ларнинг берилиши:

Kashnikov Y.A., Ashikhmin S.G. Mekhanika Gornyx Porod Pri Razrabotke Mestorozhdeniy Uglevodorodnogo Syr'ya (Rock Mechanics In The Development Of Hydrocarbon Deposits) Moscow, OOO "Nedra-Biznestsentr" Publ., 2007. 486 p.

Таржима китобларнинг берилиши:

Timoshenko S.P., Young D.H., Weaver W. Vibration problems in engineering. 4th ed. New York, Wiley, 1974. 521 p. (Russ. ed.: Timoshenko S.P., Iang D.Kh., Uiver U. Kolebaniia v inzhenernom dele. Moscow, Mashinostroenie Publ., 1985. 472 p.).

Интернет-ресурсларнинг берилиши:

Kondrat'ev V.B. Global'naya farmatsevticheskaya promyshlennost'[The global pharmaceutical industry]. Available at: http://perspektivy.info/rus/ekob/globalnaja_farmatsevticheskaja_promyshlennost_2011-07-18.html. (accessed 23.06.2013)

Диссертатсия ва авторефератнинг берилиши:

Semenov V.I. Matematicheskoe modelirovanie plazmy v sisteme kompaktnyi tor. Diss. dokt. fiz.-mat. Nauk [Mathematical modeling of the plasma in the compact torus. Dr. phys. and math. sci. diss.]. Moscow, 2003. 272 p.

Патентнинг берилиши:

Palkin M.V. e.a. Sposob orientirovaniia po krenu letatel'nogo apparatas opticheskoi golovkoi samonavedeniia [The way to orient on the role of aircraft with optical homing head]. PatentRF, no. 2280590, 2006.

Жадваллар

Ҳар бир жадвал 2 интервалда алоҳида саҳифага жойлаштирилади. Жадваллар фотосурат сифатида топширилмайди. Жадваллар рақамланади ва махсус номланади. Жадвалдаги ҳар бир устун қисқа номга эга бўлиши керак (қисқартмалардан фойдаланиш мумкин). Ҳар бир жадвал матнда изоҳланади.

Қисқартмалар ва белгилар

Мақола матнида фақат стандарт қисқартмалардан фойдаланилади. Мақоланинг сарлавҳасида қисқартма берилмайди. Аннотацияда умумистеъмолда бўлмаган қисқартма ва шартли белгилар камдан-кам ҳолларда келтирилади, уларнинг изоҳи аннотациянинг дастлабки қўлланилган ўрнида, албатта, берилиши жоиз.

Босишга рухсат этилди 25.09.2021. Бичими 1/16. Шартли 7 б.т.
100 нусхада, оригинал-макет асосида босилди.
Буюртма №_____ Баҳоси келишилган нархда.

Тошкент давлат шарқшунослик университетининг
кичик босмахонасида босилди.
Тошкент, Амир Темур кўчаси, 20.